

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**AKADEMIK LITSEYLAR PEDAGOG KADRLARI
MALAKASINI OSHIRISH KURSI
“TARIX” yo‘nalishining**

**“O‘ZBEKISTONNING SOVET DAVRI TARIXI
O‘QITISHNING INNOVATSION USULLARI”**

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV – USLUBIY MAJMUUA

BUXORO-2025

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur ishchi o'quv dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashining 2024-yil 29 dekabrdagi 5-sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: **K.J.Rahmonov**—BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti t.f.n.

Taqrizchi: **Sh.A.Hayitov** - BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası professori, t.f.d.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI	10
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	13
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	61
V. GLOSSARIY	90
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI:	93

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 -yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020- yil 3 -dekabrdagi "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 -yil 1- iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar hamda namunaviy dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan mavzular orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan tarix yo'nalishi pedagoglarni O'zbekistonning sovet davri tarixi o'qitishning innovatsion usullariga oid bilimlar darajasini kengaytirish va chuqurlashtirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Modulning maqsad va vazifalari

Modulning maqsadi. Tinglovchilarni O'zbekistonning sovet davri tarixi o'qitishning innovatsion usullarining o'quv jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan mutaxassislikka oid kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Modulning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- pedagoglarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;
- milliy davlatlarning shakllanishining asosiy omillari, madaniyatlar to'qnashuvining iqtisodiy va ma'naviy omillari, etnik mojarolar va ularning ildizlariga amal qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish;
- tarixiy voqea va hodisalarning kelib chiqishi hamda rivojlanib borishiga ta'sir etuvchi sabablarni anglash usullari, geografik nomlarni yaratilish qonuniyatlarini o'zlashtirish, tarixiy taraqqiyot bosqichlari va uning qit'alar, hududlar bo'yicha o'ziga xosligini o'zlashtirish;

- mazkur modulni o'qitishdagi jahon mamlakatlarida qo'llanadigan tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

Modul yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

“O'zbekistonning sovet davri tarixi o'qitishning innovatsion usullari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- Turkiston Muxtoriyatining vujudga kelishini;
- Respublika sanoatini rivojlanishini;
- Rossiyada fevral inqilobi va uning Turkistonga ta'siri. Mahalliy ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning faollashuvini;
- sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlarni;
- Turkiston Muxtoriyatining vujudga kelishini;
- Sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonda madaniy-ma'naviy hayotning muammolarini **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- urushdan keyingi yillarda O'zbekiston xalq xo'jaligini tinch rivojlanish yo'liga o'tilish;
- etnik mojarolar va ularning kelib chiqish sabablarini baholash ;
- tarixiy taraqqiyotni anglashga nisbatan sivilizatsion yondashuvning mohiyatini tushunish;
- O'zbekistonda qatag'on siyosatining boshlash;
- insoniyat taraqqiyoti muammosiga nisbatan ishlab chiqilgan sintetik yondashuvni tahlil qilish **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- tarixiy sharoit, tarixiy zaruriyat, vaziyat tushunchalari va ularni tarixiy jarayonini tushunish;
- Respublika sanoatini rivojlanish;
- tarixning davrlarini taqqoslash, tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish;
- davlatlarning tashkil topishi, davlat shakli, davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy jarayonlar, ichki va tashqi munosabatlar, harbiy salohiyat, insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o'rni haqida yozma ma'lumot berish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	Turkiston Muxtoriyatining vujudga kelishi va sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar.	2	2	2
2.	O'zbekiston SSRning tashkil topishi. Mustabid tuzumning mustahkamlanishi	4	4	2
3.	O'zbekiston ikkinchi jahon urushi yillarida (1941-1945 yillar)	2	2	
4.	Turkiston Muxtoriyatining vujudga kelishi va sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar.	2	2	2
	Jami:	8	4	4

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. TURKISTON MUXTORIYATINING VUJUDGA KELISHI VA SOVET HOKIMIYATIGA QARSHI QUROLLI HARAKATLAR (2 soat)

Rossiyada fevral inqilobi va uning Turkistonga ta'siri. Mahalliy ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning faollashuvi, "Turiston muxtoriyatining" tashkil etilishi. Turkiston muxtoriyati hukumatining tarkibi va uning faoliyati. Turkiston muxtoriyatining sovet hukumati tomonidan tor-mor etilishi. Qo'qon fojiasi, uning ayanchli oqibatlari. Turkiston o'lkasida va istiqlool uchun harakatning boshlanishi, uning sabablari. Turkistonda sovet hukumatiga qarshi qurolli harakatlarning bostirilishi, uning oqibatlari.

1-MAVZU: O'ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISHI. MUSTABID TUZUMNING MUSTAHKAMLANISHI (2 soat)

O'zbekiston SSRning tashkil topishi. Mustabid tuzumning mustahkamlanishi. Sovet Ittifoqining shakllanish davri va uning o'zbek tarixiga ta'siri. O'zbekiston SSRning tashkil topishiga olib kelgan omillar. O'zbekiston SSR tashkil etilishining rasmiy bosqichlari. O'zbekistonda boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimining qaror topishi. O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasini qabul qilinishi. Respublikada iqtisodiy o'zgarishlar sanoat qurilishi va sanoat

korxonalarining faoliyati. Qishloq xo'jaligini isloh qilishdagi ziddiyatli holatlar, jamoalashtirish siyosati va uning oqibatlari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-AMALIY MASHG'ULOT: O'ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISHI. MUSTABID TUZUMNING MUSTAHKAMLANISHI (2 soat)

O'zbekiston SSRning tashkil topishi. O'zbekistonda boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimining qaror topishi. O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasini qabul qilinishi. Respublikada iqtisodiy o'zgarishlar sanoat qurilishi va sanoat korxonalarining faoliyati. Qishloq xo'jaligini isloh qilishdagi ziddiyatli holatlar, jamoalashtirish siyosati va uning oqibatlari.

2-AMALIY MASHG'ULOT: O'ZBEKISTON IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA (1941-1945-YILLAR). (2 soat)

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi, umumiy harbiy safarbarlik. O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi. O'zbekistonliklarning urush jangohlarida ko'rsatgan jasoratlari. Urush yillarida fan va madaniyat. O'zbekistonga evakuatsiya qilingan aholiga hamda jangchilar oilalariga g'amxo'rlik va mehribonlik.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“O'zbekiston tarixida sovet davri tarixini o'qitishning innovatsion usullari” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va masofaviy ta'limga asoslangan raqamli texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- video ma'ruzada zamonaviy interaktiv texnologiyalar yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalar;

o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda bulutli texnologiyaga asoslangan dasturiy vositalar, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Maxsus adabiyotlar

13. Qahramon Rajabov. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash. Toshkent. Ma'naviyat. 2002
14. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T.: Sharq. 2000.
15. Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
16. Sagdullayev A.S., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. -T., 2006.
17. Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. -Т.: Узбекистан. 2009.
18. Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. (o'quv qo'llanma). - T.: Ma'rifat, 2009.
19. Yo'ldoshev S.V., Tojiboyev M. Etnotoponimika. O'quv qo'llanma/-Farg'ona: 2021.
20. Гумилев Л. Этногенез и биосфера земли. -Л.: Гидрометиздат. 1990.
21. Бобров И.В. и др. История мировых цивилизаций част I. Учебное пособие. Тюмень 2004
22. Бобров И.В. и др. История мировых цивилизаций част II. Учебное пособие. Тюмен 2004
23. Sh.Ergashev. Qadimgi sivilizatsiyalar. - T.: O'zbekiston, Tixonravov Y.V. Geopolitika. M., 2000.
24. Xo'janov B.A. Geosiyosat asoslari. T., 2002.
25. Толипов Ф. Большая стратегия Узбекистана в контексте геополитической и идеологической трансформации Центральной Азии. T., 2005.
26. Safoyeve S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. T., 2005.
27. Bhuvan Garg. Teachingofhistory. India. New Delhi.: Rajatpublications. 2010. James B. M. Schick., Teaching History Witha Computer: A Complete Guidefor College Professors. USA. 2009.
28. Гринин Л. Е. О стадиях эволюции государства. Проблемы теории // История и современност. 2006. № 1.
29. Subtelny M.E. Timurids in Transition Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. - Leiden-Boston, 2007.
30. Mazar Documents from Xinjiang and Ferghana (Facsimile) 3. Edited by A.Muminov, N.Abdulahadov, K.Yayoi. - Tokyo: Tokyo University of Foreign Studiyes, (StudiaCulturaeIslamicae, 88), 2007.- 234 p.

II. Internet saytlar

19. <http://natlib.uz>
20. <http://yedu.uz>
21. <http://lex.uz>
22. <http://lib.bimm.uz>
23. <http://ziyonet.uz>
24. <https://tarixinstituti.uz/uzb>
25. <http://www.istedod.uz>

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

Mashg‘ulotda jarayonida qo‘llaniladigan «Aqliy hujum» usuli

Aqliy hujum	- (breynstorming - miya buroni), amaliy va ilmiy muammolarni yechishda jamoa bilan ma’lumot yig‘ish
Usulni asosiy g‘oyasi	- g‘oyalar to‘plash, ularni baholash va tahlil qilish, ajratish. “Aqliy hujum”ni olib boruvchining xatti-harakati uchun bu g‘oya asosiy ko‘rsatgich bo‘lib, ishtirokchilarni imkoniyat qadar ko‘p g‘oyalar taklif qilishga undaydi.
Qoidalari	Imkoni boricha ko‘proq g‘oyalarni taklif etish (jamlash), ularni talqin qilish, muammolarni yechish va ularni doskaga yozib qo‘yish.
Ta’lim beruvchi	Qatnashchilarni 3-4 guruhga bo‘ladi va har biriga muammolar taklif etadi (Ilova 1) - Ishtirokchilarni qo‘llab-quvvatlaydi (imo-ishora, jilmayish, ha-yo‘q so‘zlari bilan); - yumshoq, ammo astoydil tinglovchilarni boshqalarni tanqid qilishdan qaytarib turadi; - har bir fikrni o‘zgartirmasdan doskaga yozdirib qo‘yadi; - tinglovchilarni so‘rovga kirishib ketishiga yordam berish va psixologik tushkunlikni yo‘qotish uchun, oldingi yoki shu darsdan kutilmagan, original savollar berib mashq o‘tkazadi (blits so‘rov) (Ilova 2).
Fidbeyk	- har bir g‘oyani muhokama qilish; - eng to‘g‘ri g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash

Aqliy hujumning maqsadi va qoidalari

Aqliy hujumni o'tkazishdan maqsad:

- muammoni hal qilish uchun g'oyalarni topish;
- g'oyalarni ularning ahamiyatligiga qarab tartiblash;
- faol fikrlash malakasini shakllantirish;
- kutilmagan g'oyalarni paydo bo'lish jarayonini namoyish qilish;
- topilgan g'oyalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

Aqliy hujum qoidalari:

- g'oyalarni ilgari surilishi bosqichida tanqid taqiqlanadi;
- original hatto fantastik g'oyalar rag'batlantiriladi;
- barcha g'oyalar yozib boriladi yoki qayd qilinadi;
- agar ma'qul topsa muallifning o'zi ham yozib boradi;
- "aqliy hujum" metodida qatnashchilar bir-biri bilan yuridik va ma'muriy jihatdan bog'liq bo'lmasligi zarur;
- tahlilchilar guruhi nisbatan samarali g'oyalarni tahlil qiladi, sintez qiladi, baholaydi va tanlaydi;
- ushbu tadbirni o'tkazishda Keynsning " iqtisodchilar adashsalar ham ularni g'oyasi kelajak uchun xizmat qiladi" degan qoidasiga amal qilish.

Natija:

- talabalar tomonidan muayyan nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishiladi;
- vaqt ajratiladi va qilinadi;
- har bir talaba faollikka intiladi;
- ularda erkin fikrlash layoqati shakllanadi.

1. O'quv topshiriqlarini bajarish bo'yicha vazifalar

Guruhni 2 ta kichik guruhlariga bo'linadi va har bir guruh uchun savollar tarqatma material sifatida tarqatiladi.

Izoh: Qaysidir guruh to'la aniq javobni birinchi bo'lib topsa guruhni har bir a'zosiga 1.0 balldan baho qo'yiladi. Agarda guruhdan 1 yoki 2 ta talaba to'g'ri javob topsa u holda ularga 1.0. balldan rag'batlantiriladi.

Mavzu bo'yicha 1-guruh savollari:

1. Turkiston ASSRning tuzilishi?
2. Turkiston o'lkasida va istiqlol uchun harakatning boshlanishi, uning sabablari?
3. Turkistonda sovet hukumatiga qarshi qurolli harakatlarning bostirilishi, uning oqibatlari
4. O'lkada sovet boshqaruv tizimining shakllanishi, davlat boshqaruvining o'ziga xos jihatlari?
5. 1917-1924 yillardagi ma'naviy-madaniy hayotning xususiyatlari?

Mavzu bo'yicha 2-guruh savollari:

1. Rossiyada fevral inqilobi va uning Turkistonga ta'siri?
2. Turkistonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning jadallashuvi?
3. O'lkada oktyabr to'ntarishining amalga oshirilishi va uning oqibatlari?
4. Turkiston muxtoriyati hukumatining tarkibi va uning faoliyati?
5. Turkiston muxtoriyatining sovet hukumati tomonidan tor-mor etilishi?
6. Turkiston ASSRning tuzilishi?
7. Qurolli harakatning kuchlari va bosqichlari shunchasi?

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: Turkiston Muxtoriyatining vujudga kelishi va sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar.

REJA:

- 1. Rossiyada fevral inqilobi va uning Turkistonga ta'siri.**
- 2. Turkiston muxtoriyati hukumatining tarkibi va uning faoliyati.**
- 3. Turkiston o'lkasida va istiqlol uchun harakatning boshlanishi, uning sabablari.**

1. Rossiyada fevral inqilobi va uning Turkistonga ta'siri.

Uch asr davomida Rossiya saltanatini to'xtovsiz boshqarib kelgan Romanovlar sulolasi hukmronligi ag'darildi. 1917-yil 28-fevralda Petrogradga Qishki saroy va Petropavlovsk qal'asini bosib olish bilan inqilobiy voqealar nihoyasiga yetdi. 2-martda ishchi va soldat deputatlari Petrograd sovetining burjua partiyalari va tashkilotlari vakillaridan iborat bo'lgan hamda "Progressivniy blok" nomi bilan birlashgan Davlat dumasini Muvaqqat qo'mitasi bilan kelishuv asosida Rossiyada muvaqqat hukumat tuzildi. Rossiyada ikki hokimiyat – ikki diktatura: Muvaqqat hukumat siyosiy demokratik diktatura va Sovetlar siyosiy proletariat va dehqonlarning inqilobiy-demokratik diktaturasining o'ziga xos qo'shiluvi yuzaga keldi.

Muvaqqat hukumat 3- martda e'lon qilgan Bayonnomasi va 6 -martda e'lon qilgan Rossiya fuqarolariga murojaatnomasida o'z dasturini bayon qilib berdi. Hukumat siyosiy erkinliklar – so'z, matbuot, ittifoqlar tuzish, yig'ilishlar va ish tashlashlar erkinligi joriy etilganligini; barcha tabaqa, diniy va milliy cheklashlarning bekor qilinganini, teng va yashirin ovoz berish bilan o'z-o'zini boshqarish organlariga saylov o'tkazish, politsiyani xalq militsiyasi bilan almashtirish, to'la siyosiy avfnoma berish lozimligini e'lon qildi.

Demokratik inqilob Turkiston o'lkasiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. O'lkada yangi jamiyatlar barpo etish harakatlari boshlandi. Jadidlar vujudga kelayotgan milliy-demokratik kuchlarning o'zagi bo'ldi, ular bu vazifani bajarishga o'zlarining ilgari faoliyatlari davomida tayyorgarlik ko'rgan edilar. Avj olayotgan demokratik jarayonlarda mahalliy xalqlar siyosiy manfaatlarining ustuvorligini himoya qilish

fevralning dastlabki kunlaridanoq siyosiy maydonda ular faoliyatining asosiy yo'nalishini belgilab berdi.

Turkistonda ham Rossiya markazidagiga o'xshash qo'sh hokimiyatning tarkib topish tamoyili yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Bir tomondan ishchi deputatlari Sovetlari bilan soldat deputatlari Sovetlari tuzila boshladi. Ko'p o'tmay ular ishchi va soldat deputatlari yagona Toshkent Sovetiga birlashdilar. Ana shu sovetning chaqirig'i bilan Turkiston shaharlarida Sovetlar tashkil qilina boshladi. 1917- yil mart oxiriga borib, o'lkada ishchi va soldat deputatlarining 75- Soveti bor edi. Sovetlarning saylangan deputatlari asosan yevropalik millat vakillaridan iborat edi.

Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida o'lka muxtoriyati masalasi asosiy o'ringa chiqdi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g'oyasi nafaqat demokratik ziyolilar orasida, hatto oddiy odamlar o'rtasida ham ancha ommalashgan edi. 1917-yil 14-martda xalq vakillarining birinchi majlisi bo'ldi. Unda aholining tatar va qozoq vakillari bilan to'ldirilgan 61 kishidan iborat bo'lgan yangi tashkilotning tarkibi tasdiqlandi. Bu organ "Sho'roi islom" degan nom oldi. Aprel oyining boshlarida mahalliy jadidlarning tashabbusi bilan O'sh, Andijon, Skobelev, Turkiston, Mari, Samarqand, Namangan va Qo'qonda uning mahalliy tashkilotlari tashkil qilindi.

"Sho'roi islom" tashkilotining xalq o'rtasida ta'sirining kuchayib borishi Turkistonda markazga o'xshab ikkihokimiyatchilik emas, balki siyosiy maydonda uch hokimiyatni yuzaga keltirgan edi:

- Turkiston Sovetlari – bular inqilobiy demokratiyaning xohish-irodasini ifodalovchi yevropalik ishchi va soldatlarning organlari edi.

- Ijroiya qo'mitalari – Sovetlarga nisbatan aholining ancha keng milliy guruhleri namoyandalari bo'lib, ular tarkibida turli partiyalar bo'lgan va ular joylarda Muvaqqat hukumat organlari rolini o'ynagan.

- "Sho'roi Islom" tashkiloti – musulmon aholining xohish-irodasini ifoda etdi va uning manfaatlarini himoya qildi.

1917-yilning mart-aprel oylari o'lkaning siyosiy uyg'onishida burilish davri bo'ldi. Turkiston jadidlari, milliy ziyolilari va islom ulamolarining yetakchilari bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875 – 1919), Munavvarqori (1878 – 1931), Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev (1882 – 1938), Fitrat (1886 – 1938), Fayzulla Xo'jayev (1896 – 1938), Mustafo Cho'qay (1886 – 1941), Muhammadjon Tinishboyev (1879 – 1939), Sherali Lapin (1868 – 1919), Ahmad Zaki Validiy (1890 – 1970), Obidjon Mahmudov (1858 – 1936) o'lkada yangi tashkil qilingan "Sho'roi Islom" (1917-yil mart), "Sho'roi Ulamo" (1917-yil iyun'), "Turon" jamiyatlari va "Turk adami markaziyat firqasi" (1917-yil iyul'), "Ittifoqi muslimin" (1917-yil sentyabr') siyosiy partiyalarining tuzilishida muhim ro'l o'ynadilar.

1917-yil 7-aprelda Muvaqqat hukumat qarori bilan kadet N. Shchepkin

raisligida Muvaqqat hukumatning Turkiston komiteti tashkil qilindi. Uning tarkibiga 9 kishi kirgan bo'lib, ularning 4 tasi mahalliy millat vakillari edi. Bu davrda jadidchilik ma'rifatchilik harakatidan siyosiy harakat darajasiga ko'tarilgan edi. 1917-yilning o'zida 4 marta Butun Turkiston musulmonlarining qurultoyi o'tkazildi. 1917-yil 17 – 21-aprelda Toshkentda bo'lgan 1-qurultoyda demokratik Rossiya tarkibida Turkiston muxtoriyatini tashkil etish g'oyasi ilgari surildi. Bu g'oya Turkiston xalqlarining o'z milliy davlatchiligini tiklash yo'lidagi dastlabki qadami edi. Qurultoyda Markaziy rahbar organ – Turkiston o'lka musulmonlari sovetini tashkil etilishi haqida qaror qabul qilindi. Sovetga Mustafo Cho'qay rais, Validiy bosh kotib, Munavvarqori, Behbudiy, U. Xo'jayev, O. Maxmudov, T. Norbo'tabekov, Islom Shoahmedov va boshqalar a'zo qilib saylandi. Sovetning Toshkent, Samarqand, Farg'ona bo'limlari ham tashkil qilindi. Markaziy sho'roning organi sifatida “Najot”, “Kengash” gazetalari chiqa boshladi. O'lka mussovetning 1917-yil 12-iyunda bo'lib o'tgan majlisida Nizom qabul qilindi va unga muvofiq barcha shahar, uyezd, volost, musulmon sovetlari va “Sho'roi islom”, “Ravnaq ul-islom”, “Mirvaj ul-islom”, “Muallimlar jamiyati” singari boshqa jamoat tashkilotlari volost, uyezd va shahar Sho'rolariga birlashishlari, ularning hammasi birgalikda musulmon deputatlari Turkiston markaziy sho'rosiga bo'ysunishlari lozim edi.

Shunday qilib, 1917-yil bahorida Turkistonning birligi va yaxlitligi tomon muhim qadam tashlandi. Turkiston o'lkasiga muxtoriyat berish masalasi birinchi bor musulmonlarning 1-Butun Turkiston se'zida (1917-yil aprel') qo'yildi. Shuningdek, bu masala “Sho'roi islom” Markaziy Qo'mitasi doirasida ham muhokama qilingan edi. Muhtoriyat masalasi musulmonlar orasida 1917-yil may oyi boshida Moskvada bo'lib o'tgan Butun Rossiya musulmonlarining 1-se'zidan keyin yanada faol qo'yila boshladi. 1917- yilning 12 – 14-iyulida Skobelev shahrida viloyat musulmon tashkilotlarining qurultoyi bo'lib o'tdi. Se'zdada qabul qilingan dasturiy hujjatda se'zdada tuzilgan “Turk adami markaziyati” partiyasi Turkiston, Qozog'iston, Kavkaz va Boshqirdiston uchun milliy-hududiy muxtoriyatni, Volgabo'yi, Qrim tatar va boshqa turkiy xalqlar uchun esa milliy-madaniy muhtoriyatni talab qiladi, degan rezolyutsiya kiritildi. Dasturda yozilishicha, muxtor jumhuriyatlar parlamenti va mahalliy o'z-o'zini boshqaruv tashkilotlariga saylovlar umumiy asosda, yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Dasturda fuqarolarning huquqlariga bag'ishlangan bo'lim e'tiborga loyiq bo'lib, unda “Jumhuriyatning butun aholisi, dini va millatidan qat'iy nazar qonun oldida bir xil javobgardir”, deb maxsus qayd qilingan edi. Yer masalasida esa barcha davlat mulklari musodara qilinib, aholiga ijaraga berish yoki fuqarolarga sotish taklif etiladi. Bundan tashqari dasturda fuqarolarning haq-huquqlari va erkinliklariga, mehnatkashlar mehnatini muhofaza qilishga doir bandlar ham bor edi.

Muxtoriyatchilar tomonidan maorif masalasi juda puxta ishlab chiqilgan edi.

Bilim olish huquqi barcha uchun himoya qilinishi ta'kidlangan. Dasturda maktab mustaqilligi e'lon qilinib, boshlang'ich ta'lim bepul, umumta'lim majburiy bo'lishi belgilangan edi. 1917-yil avgust oyida "Kengash" gazetasida Muxtoriyat dasturining loyihasi e'lon qilindi. Bu loyiha Turkistonda mashhur siyosiy arboblardan, huquqshunos va ulamolar tomonidan ishlab chiqilgan edi.

Farg'onada bo'lib o'tgan va unda qabul qilingan Turkiston o'lkasining demokratik yangilanish g'oyalari erkin qarashlardagi ziyolilar va musulmon ruhoniylari o'rtasida jiddiy qiziqish uyg'otdi. Bu esa o'ta keskin kayfiyatdagi millatchilar va islom mutaassiblarining g'ashini keltirmay qolmadi. Ular islom dini nomidan so'zlab jamiyatda demokratik islohotlar o'tkazish yo'lidagi har qanday urinishlarga keskin qarshi chiqishdi. Turkistonning ilg'or jadid ziyolilari va qadimchilari orasidagi bu ziddiyat milliy ozodlik kuchlari safida parchalanishga olib keldi. 1917-yil iyun oyida Munavvarqori boshchiligidagi "Sho'roi Islom" tashkilotidan "Sho'roi Ulamo" ajralib chiqdi. Sherali Lapin uning Toshkent sho'basiga asos soldi. Ko'p o'tmay Qo'qon shahrida ham "Sho'roi Ulamo" jamiyati tuzildi. Lekin ikki jamiyat o'rtasida doimiy ixtiloflar bor edi. "Sho'roi ulamo" jamiyati a'zolari ruhoniylar tarafdorlari bo'lib maydonga chiqdilar. "Sho'roi Ulamo" jamiyati tomonidan "Al-Izoh" jurnali chiqarila boshlangan. Jurnal sahifalarida asosan diniy masalalarga ko'proq e'tibor berilib, axloq, madaniyat, ijtimoiy hayot ruhoniylar nuqtayi nazaridan targ'ibot qilindi.

G'oyaviy jihatdan ajralish milliy ozodlik harakatidagi kuchlar nisbatining o'zgarishiga olib keldi. "Sho'roi ulamo" a'zolari asosan ruhoniylardan iborat bo'lib, ular aholi o'rtasida katta ta'sir kuchiga ega edi.

1917-yil kuzida davom etayotgan urush natijasida mamlakatda ocharchilik, ishsizlik avj oldi. Bu o'z navbatida mehnatkash ommaning noroziligini kuchaytirdi, joylarda hokimiyatning inqiroziga olib keldi. Bunday vaziyatdan foydalangan Toshkent ishchi va soldat deputatlari Sovetiga kirgan bolsheviklar "Butun hokimiyat sovetlarga" degan shiorni ko'tarib chiqdilar. 1917-yil 10-sentyabrda Toshkentda Butun Turkiston musulmonlarining 2-qurultoyi ochildi. "Sho'roi Islom" tashabbusi bilan chaqirilgan ushbu qurultoy hokimiyatni ishchi, soldat va dehqon deputatlari sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Qurultoyda faqat Milliy markaz – Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi mintaqadagi tub yerli aholi manfaatlarini himoya qilishi mumkin degan fikr qat'iy qilib qo'yildi.

1917-yil 20-sentyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston va Qozog'iston musulmonlarining qurultoyi "ulamochilar" bilan "Sho'roi islomchilar" o'rtasidagi bahslarga qaramay o'zaro murosaga keldi. Qurultoyda "Sho'roi islom", "Sho'roi Ulamo", "Turon" va boshqa siyosiy tashkilotlarni birlashtirish yo'li bilan butun Turkiston mintaqasi uchun umumiy bo'lgan "Ittifoqi muslimin" degan siyosiy partiya tuzishga qaror qilindi. Qurultoy ishidagi asosiy masala o'lkaning bo'lajak

siyosiy tuzumini belgilash edi. Qurultoy Turkiston Muxtoriyatini tashkil etish haqida qaror chiqaradi. Qurultoy muxtoriyatga “Turkiston Federativ Respublikasi” degan nomni qo'yib, parlament respublikasi asosida tuzilajak bo'lg'usi davlat tuzumining bosh tamoyil va me'yorlarni belgilab berdi. Shu tarzda Turkistonda muxtoriyat hukumati yuzaga kelmasdan ancha oldin uning poydevorini yaratishga zamin hozirlangan edi.

Shunday qilib, 1917-yilning oktyabr oyiga kelib Turkistonda hokimiyat masalasida ikki muqobil yo'nalish yuzaga keldi. Birinchisi – milliy demokratlarning o'lkadagi boshqa yerlik bo'lmagan millatlar vakillari ishtirokida demokratik ruhdagi Turkiston Muxtoriyatini tashkil etishga bo'lgan intilishlari, ikkinchisi esa – bolsheviklar tomonidan muxtoriyatchilarning bu intilishlarini inkor etib zo'rlik bilan hokimiyatni egallab, unga mutlaq hukmron bo'lish edi.

Rossiyaning Birinchi jahon urushida ishtirokining davom etishi, rus armiyasining frontda ketma-ket mag'lubiyatga uchrayotganligi umumxalq noroziligi va qahr-g'azabini tobora kuchaytirmoqda edi. Negaki, urushning butun og'irligi shu xalq ommasining zimmasiga tushayotgandi. Rossiyaning iqtisodiy halokat tomon borishi, ijtimoiy kenglik va inqiroziy jarayonlarning zo'rayishi esa Muvaqqat hukumatning tobora obro'sizlanishiga, xalqdan yakkalanib qolishiga, oqibatda esa vaziyatning keskinlashuviga olib kelayotgan edi. Lenin boshliq bolsheviklar xuddi mana shu qaltis vaziyatdan ustamonlik bilan foydalanib, ommani o'z tomoniga ag'darishni ko'zlovchi shiorlarni maydonga tashlab, siyosiy hokimiyatni egallash sari yo'l tutdi. Bolsheviklar o'z maqsadlariga erishishda xalqning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldiruvchi va'dalar berdilar. Ular ommabop chaqiriqlarni ilgari surib, barcha tub masalalarni hal etishga qasamyod qildilar. Mana shunday ustakorlik va hiylakorlik yo'li bilan bolsheviklar 1917-yil-ning 24-25-oktabr kunlar Petrograd da davlat to'ntarishini amalga oshirdilar. Ular Muvaqqat hukumatni ag'darib, hokimiyatni egallashga muvaffaq bo'ldilar. Tez orada mamlakatning boshqa hududlarida ham ularning hukmronligi o'rnatila boshlandi. Proletariat diktaturasi nomi bilan atalgan zo'ravon tuzum mana shu zaylda vujudga keldi. Rossiya markazida yuz bergan voqealarning aks-sadosi ko'p o'tmay Turkistonga ham yetib keldi. 28-oktyabrda Toshkentning yangi shaharida yevropalik ishchilar va soldatlar bolsheviklar qutqusi bilan qurolli to'qnashuvlarni boshlab yubordilar. Shaharning tub yerli aholisi bo'layotgan voqealarga aralashmasdan betaraf pozitsiyada turdi. Qo'zg'olonchilar Muvaqqat hukumatning general Korovichenko boshchiligidagi harbiy qismlaridan ustun keldi. 1 -noyabrda Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston komiteti qamoqqa olindi. Ko'cha janglari vaqtida faqat Sovetlar tarafdorlaridan 80 ga yaqin kishi halok bo'ldi. Shunday qilib, Toshkent bolsheviklari va so'l eserlari shaharda bo'lib o'tgan qurolli qo'zg'olon kunlarida begunoh halok bo'lganlar qoni evaziga hokimiyat tepasiga keldilar.

Ma'lumotlarga ko'ra, 1917-yilning kuzida Turkistonning turli uyezd va shaharlarida hokimiyatning sovetlar qo'liga o'tishi haqidagi faol talablar sodir bo'lmagan. Aksincha, aholining aksariyati muvaqqat hukumatni qo'llab-quvvatlagan holda, mamlakat taqdirini hal qiladigan ta'sis Majlisini chaqirish g'oyasini ilgari surganlar.

Qurolli qo'zg'olon natijasida Muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasi ag'darildi, yangi hokimiyatning o'lka organi darhol tuzilmadi. Uning vazifasini dastlabki vaqtda Toshkent kengashi bajarib turdi. Hokimiyatning sovetlarga o'tishini o'lkadagi taniqli musulmon jamoat arboblari qattiq qoraladilar. Mahalliy aholi bolsheviklar ilgari surgan sinfiy kurash, proletar inqilobi va proletar diktaturasi, boylardan yer va boshqa mol-mulklarni tortib olish kabi g'oyalardan juda uzoq edi.

1917-yil 15 – 22-noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan o'lka ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining III s'ezdida 15 kishidan iborat hukumat – Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti tuzildi. Unda 8 o'rin so'l eserlarga, 7 o'rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga berildi. Hukumat faqat yevropaliklardan iborat bo'ldi. Turkiston XKS raisi lavozimini kasbi chizmakash bo'lgan bolshevik F.Kolesov egalladi, harbiy komissar qilib izvoshchi Perfil'ev, boshqa komissarliklarga ham shunga o'xshash kishilar tayinlandi. Bolsheviklar hokimiyat masalasini amalda mahalliy millat vakillari ishtirokisiz hal qildilar. Muhimi, hukumat tarkibiga birorta ham mahalliy millat vakillari kiritilmadi. Shuni aytib o'tish kerakki, se'zddagi ayrim fraktsiya vakillari o'lkaning rahbar organlari tarkibiga mahalliy aholi vakillarini ozroq miqdorda bo'lsada kiritish haqidagi fikr bildirib, o'lkaning yangi organida 18 ta o'rindan 3 tasini musulmon ishchi vakillariga berishni taklif qildilar. Lekin bu taklif inobatga olinmadi.

Se'zd bolsheviklarning tazyiqi bilan o'lkadagi yangi hokimiyatning rahbar organi tarkibiga ko'p millionli mahalliy aholining birorta ham vakilini kiritmasdan, bu aholiga nisbatan adolatsizlik qildi. Bundan tashqari bolsheviklar o'zlarining shovinistik siyosati bilan chorizm zamoniga nisbatan bir qadam orqaga qaytdilar. Chunki Rossiya imperiyasi zamonida Turkiston xalqlari vakillari Davlat Dumasiga saylangan edilar va muvaqqat hukumat mavjud bo'lib turgan qisqa vaqt davomida ular Turkiston qo'mitasi tarkibiga kirgan edilar.

Ushbu hukumat boshidanoq mohiyatan chorizm mustamlakachilik siyosatiga amal qildi. Turkistonda ham inqilobiy aqidalarga, avvalo sinfiylik tamoyillariga amal qilindi. Mulkdorlar – ekspluatatorlar, ezuvchilar, milliy ziyolilar, o'qimishli xalq vakillari – milliy burjuaziya korchalonlari va malaylari, islom dini rahnamolari – reaksion oqim deb, ularga qarshi ayovsiz kurash boshlandi.

Turkistondagi dastlabki sovet hukumati mintaqada yevropalik aholi hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan edi. Yo'qotilishi intizorlik bilan kutilgan

mustamlakachilik yangi ko'rinishda boshlanib ketdi. Mahalliy millatlarning siyosiy jarayonga aralashtirilmaganligi o'lka xalqlarining sovet hokimiyatiga bo'lgan ishonchsizligini yanada kuchaytirdi. Hatto Turkistondagi yevropalik aholining demokratik qatlamlari ham bol'sheviklar va so'l eserlarning bunday makkorona siyosatiga qarshi chiqdi.

2. Turkiston muxtoriyati hukumatining tarkibi va uning faoliyati.

Hokimiyat bolsheviklar qo'liga o'tishi bilan o'lkada Muvaqqat hukumatning barcha bo'g'inlari tugatilib, o'rniga avvalo jazo organlari va sovet boshqaruv tizimi o'rnatildi. Turkiston XKS 1917-yil 28-noyabrda o'lkada qizil gvardiya bo'linmalari tuzish haqida qaror qabul qildi. Bu bo'linmalar sovet rejimi va bolsheviklarga qarshi ko'tarilgan dastlabki stixiyali chiqishlarni bostirishda faol ishtirok qildi.

Aholini ma'naviy-ruhiy kamsitish, diniy e'tiqodini, islomiy qadriyatlarini tahqirlash, muqaddas qadamjolarini haqoratlash, diniy kitoblarni gulxanda yondirish - bular sovet tuzumi zo'ravonlari uchun o'sha kezlarda odatiy tus bo'lib qolgandi. Aniq rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona vodiysida sovet hokimiyatini o'rnatish chog'ida Marg'ilonda 7 ming, Andijonda 6 ming, Namanganda 2 ming, Bozorqo'rg'on va Qo'qonqishloq (hozirgi Paxtaobod tumani) atroflarida 4,5 mingdan ziyod begunoh kishilar qirg'in qilingan. Bunday qirg'inlik Turkistonning boshqa shahar va qishloqlarida ham sovet hokimiyatini o'rnatish chog'ida sodir etildi.

Shunday qilib, dastavval Rossiya markazida qaror topgan sovet rejimi Turkiston o'lkasida ham o'rnatildi. Zo'rovonlik va xalqlarni ezishga qaratigan sovet rejimi o'zining ilk kunlaridan boshlab Turkistondagi tub xalqlarga nisbatan mustamlakachilik siyosatini yuritdi. Chor Rossiyasining mustamlakachilik tizimi sovet rejimi davrida yanada takomillashtirildi.

Turkistonda muxtoriyat tuzish g'oyasi 1917 -yil fevral burjua revolyusiyasidan keyinroq tug'ilgan edi. Bu haqda Butun Turkiston musulmonlari I o'lka s'ezdi (1917 -yil 16-21- aprel, Toshkent)da ta'kidlanadi. O'lka musulmonlarining keyingi II (1917 -yil 17-20 -sentyabr, Toshkent), III (1917- yil 12-15 -noyabr, Toshkent) s'ezdlarining kun tartibida ham Turkistonning kelajakdagi siyosiy tuzumi to'g'risidagi, Turkistonda hokimiyatni tashkil etish to'g'risidagi masala turar edi.

Ma'lumki, 1917 -yil 25 -oktyabrda Petrograd qo'zg'olon amalga oshirildi. O'sha kuni kech soat 5⁰⁰ da Toshsovet ijroqo'mitasining yashirin majlisida o'lkada qurolli chiqish rejasi muhokama etildi. 28 -oktyabr ertalab soat 6⁰⁰ da yangragan bosh temir yo'l ustaxonalari gudogi Toshkentda Oktyabr to'ntarishi boshlanganidan darak berdi. Shundan so'ng, butun hokimiyat Toshsovetga o'tdi.

Toshkentdagi Oktyabr voqealaridan so'ng, sovetlarning III o'lka s'ezdi (1917-yil 15-22- noyabr) chaqirildi. S'ezdning diqqat markazida o'lkada hokimiyat masalasi turardi. Sh.Lapin («Sho'roi Ulamo» rahbari) nutqi muhokama qilingach,

mensheviklar va o'ng eserlar vakillari o'lka Soveti tarkibiga musulmonlar vakillarini ham kiritishni taklif etishdi. Biroq bu takliflar, turli sabablarga ko'ra, qarshilikka uchradi. S'ezdda 15 kishidan iborat Xalq Komissarlari Soveti (XKS) saylandi. XKSning raisi etib bolshevik F.I.Kolesov saylandi. Xuddi o'sha kuni s'ezdda quyidagicha deklaratsiya qabul qilindi: «Hozirgi vaqtda musulmonlarni o'lka inqilobiy hokimiyatining oliy tashkilotiga kiritish maqsadga muvofiq emas, chunki mahalliy aholining soldat, ishchi va krestyanlar sovetlari hokimiyatiga munosabatlari noaniq, shuningdek, mahalliy aholi orasida proletar sinfiy tashkilotlari bo'lmaganligi tufayli, ular o'lkaning oliy hokimiyatida vakolat tashkil etib, fraksiyaning madadiga tayana olmaydilar».

Bu bolsheviklar tomonidan milliy masalada qilingan juda katta siyosiy xato edi. Bunda bolsheviklarning shovinistik kayfiyatlari namoyon bo'ldi. Bu esa o'lka aholisining sovetlarga bo'lgan ishonchini puchga chiqardi va muxtoriyatchilar atrofiga yanada jipslashtira boshladi. O'z navbatida, muxtoriyatchilar ham sovetlarning III s'ezdidan xulosa chiqarib, tezroq hukumatni tuzib, hokimiyatni qonuniy ravishda qo'lga olishga harakat qila boshladi.

1917 -yil 26 -noyabrda Qo'qon shahrida O'lka musulmonlarining IV favqulodda s'ezdi ish boshladi. Unda o'lkaning barcha mintaqalaridan va ko'pgina jamoat tashkilotlaridan 200 nafardan ortiq vakil qantashdi. S'ezdda viloyatlarlar vakillaridan tashqari, «Sho'roi Islomiya», «Sho'roi Ulamo», Musulmonlar harbiy sho'rosi, O'lka yahudiylar jamiyati (Paoley Sion), mahalliy yahudiy vakillari va boshqalar qatnashdilar.

Syezd kun tartibida quyidagi asosiy masala hal etildi:

1. Turkiston Muxtoriyati to'g'risida;
2. Turkistonning Janubiy-Sharqiy ittifoqqa qo'shilishi to'g'risida.

Bundan tashqari, Ijroiya qo'mitani saylash, unga beriladigan nakazlar, Turkiston Markaziy Musulmonlar sho'rosini qayta saylash, bugungi ahvol, Turkiston Ta'sis majlisi, militsiya, moliya va boshqa masalalar ham s'ezdning diqqat markazida bo'ldi. S'ezd demokratik va baynalmilallik kayfiyatida o'tdi. Isbot tariqasida quyidagilarni keltiramiz: “Behbudiy o'z chiqishida shunday degandi: «S'ezd qarorlari shuning uchun ham katta mavqega sazovorki, unda Turkistonning ovro'palik aholisi vakillari ham qatnashmoqda». M.Behbudiyning ta'kidlashicha hay'atni ham shunday tuzish kerakki, unda turli musulmon guruhlar bilan birga rus, yahudiy va boshqa xalqlar vakillari kiritilsin. Vakillar uni qo'llab-quvvatladi. Undan so'ng so'zga chiqqan qo'qonlik vakil O.Mahmudov ham «hay'atni saylashda viloyatlar bo'yicha emas, balki alohida diniy qarashlar va milliy guruhlarini hisobga olgan holda, ya'ni bilimdon, uquvli va g'ayratli kishilarni tanlab olish kerak», - deydi. Vaholanki, bu s'ezdga uzoq yillar davomida «millatchilar to'dasi» degan yorliq yopishtirib kelingan.

S'ezdning uch kunlik faoliyati mobaynida vakillar Turkistonning bo'lg'usi siyosiy tuzumi to'g'risida qat'iy bir qarorga keldilar. S'ezd tomonidan 1917 -yil 27 - noyabr kuni kechasi soat 12⁰⁰ da deyarli yakdillik bilan (ikki kishi qarshi) quyidagicha qaror qabul qilindi:

«Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi va'da etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta'sis majlisiga havola etadi».

Shundan keyin, s'ezd «Turkistonda yashab turgan ozchilik aholi huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e'lon qiladi».

28 -noyabr kuni yangi tarkib topayotgan davlat «Turkiston Muxtoriyati» deb ataladi. Ta'sis majlisi chaqirilib, hukumat aholi tomonidan rasmiy tan olinguncha, hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (milliy) majlisi qo'lida bo'lishi kerak edi.

Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolarining soni Butun Rossiya Ta'sis majlisiga yuborilgan deputatlar soniga qarab belgilandi (32 kishi). Buning tarkibidan 12 kishidan iborat Muvaqqat hukumat tuzildi. Xalq (milliy) majlisi (54 kishi belgilangan) tarkibiga shaharlarning mahalliy boshqaruv organlaridan 4 vakil kiritildi, 18 o'rin o'lkadagi turli ovro'palik millatlar vakillariga ajratildi, ya'ni 1/3 o'rin. Vaholanki, ovro'palik millat vakillari o'lkada 7%dan oshmasdi. Bu s'ezdning o'z davri uchun juda demokratik ruhda o'tganligini, uning qarorlarida demokratik g'oyalar ilgari surilganligini ko'rsatadi.

S'ezdning Muvaqqat hukumati tarkibi quyidagicha belgilandi:

1. Muhammadjon Tinishpayev - bosh vazir, ichki ishlar vaziri, II chaqiriq davlat dumasining a'zosi, Turkiston Muvaqqat hukumati komitetining a'zosi, yo'l muhandisi.

2. Ismoil Sulton Shoahmedov - bosh vazir o'rinbosari, Butun Rossiya Musulmonlari Kengashi Markaziy qo'mitasining a'zosi, huquqshunos.

3. Mustafo Cho'qayev - tashqi ishlar vaziri, Turkiston Musulmonlar Kengashi Markaziy qo'mitasining raisi, huquqshunos.

4. Ubaydulla Xo'jayev - harbiy vazir, Butun Rossiya Musulmonlar Kengashi Markaziy qo'mitasining a'zosi, huquqshunos.

5. Yurali Agaev - yer va suv boyliklari vaziri, agronom.

6. Obidjon Mahmudov - oziq-ovqat vaziri, Qo'qon shahar dumasining raisi o'rinbosari, tog'-kon sanoati muhandisi.

7. Abdurahmon O'razayev - ichki ishlar vaziri o'rinbosari, huquqshunos.

8. Solomon Abramovich Gersfeld - moliya vaziri, huquqshunos.

Qolgan 4 o'rin ovro'palik aholi vakillaridan nomzodlar ko'rsatilgach, qayd

etilishi koʻzda tutildi.

Bizning asosiy maqsadimiz «Turkiston Muxtoriyati» masalasining Sovet davri tarixshunosligida yoritilishini oʻsha davr adabiyotlari asosida tavsiflashdan iborat. Shundan kelib chiqib, Muxtoriyat tarixidagi 4 ta sʻezdlarning ish faoliyatiga batafsil toʻxtalib oʻtmadik. Bu haqda, umuman, muxtoriyatning tashkil etilishi va uning oqibatlari haqida soʻnggi yillarda matbuot va alohida nashrlarda toʻliq maʼlumotlar berilgan.

Siyosiy partiyalar tuzilishi, ular tomonidan dasturiy xujjatlar qabul qilinishi Turkistonda milliy harakatning keng quloch yoyganidan dalolat berardi. Biroq, yuqorida koʻrsatib oʻtilganidek Sank-Peterburgdagi oktyabr toʻntarishi oqibatida 1917 -yil oktyabr-noyabr oylarida Turkiston oʻlkasida, xususan, Toshkent va Qoʻqonda yuz bergan voqealar milliy ozodlik harakatini kuchayib ketishga majbur qildi.

1917- yil 26-28 -noyabrda (yangi hisob bilan 9-11- dekabrda) Qoʻqon shahrida Turkiston oʻlka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi boʻlib oʻtdi. Qurultoy ishining butun tafsilotlarini (jadidlar) oʻsha davr gazetalarida tarix uchun muhrlab qoʻydilar.

Mustafo Choʻqay qurultoyni ochar ekan, Rossiya va Turkistonning siyosiy va iqtisodiy ahvoli xususida qisqacha maʼlumot beradi. Uning aytishicha, «Markazda yuz berayotgan voqealar, chekka oʻlkalarda hokimiyat masalasini mustaqil muhokama etuvini taqozo qilur. Oktyabr xunrezligini boshdan kechirgan Rossiya va Turkiston oʻz taqdirlari haqida oʻzlari mulohaza yuritmoqlari lozim».

Maʼlumki, musulmonlarning ushbu nufuzli qurultoyi va unda qabul qilingan qarorlar oʻn yillar davomida millatchilar guruhining yigʻinidan eʼlon qilingan burjua muxtoriyati deb notoʻgʻri talqin qilib kelindi. Hujjatlar esa ushbu holning butunlay aksi boʻlganligini isbotlaydi. Masalan, Turkiston jadidlarining otasi sanalgan Behbudiy oʻz maʼruzasida qurultoyning Turkiston xalqlari tarixida ulkan ijobiy, tarixiy hodisa va burilish davri ekanligini taʼkidlab, “Qurultoyimiz qabul qilayotgan qarorlar shuning uchun ham ahamiyatliki, unda Turkiston aholisining evropalik vakillari ham ishtirok etmoqdalar”, deydi. Behbudiy va Obidjon Mahmudov qurultoy hayʼatida musulmonlar bilan bir qatorda boshqa milliy guruhlarining ham vakillari boʻlishini yoqlab chiqdilar.

Turkistonni boshqarish shakli uch kun davom etgan qurultoyning diqqat markazida turdi. Bu masala muhokamasida soʻzga chiqqanlarning koʻpchiligi Turkistonning muxtor respublika deb eʼlon qilinishi oʻlka aholisining ijtimoiy maqsadlaridan kelib chiqqan va unga mos tushishini uqtirdi. Muxtoriyat va mustaqillik eʼlon qilish fikrini hamma qoʻllab-quvvatladilar.

Qurultoyda 1917 -yil 27 -noyabr (yangi hisob bilan 10- dekabr) kuni kechqurun qabul qilingan qarorda shunday deyiladi: “Turkistonda yashab turgan turli millatga

mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi. Shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta'sis Majlisiga havola etadi". Qurultoy Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e'lon qildi.

28 -noyabr (yangi hisob bilan 11 -dekabr)da tarkib topayotgan mazkur davlatning nomi aniqlanib, TURKISTON MUXTORIYATI deb ataladigan bo'ldi. Qurultoy o'sha kuni yig'ilishda Butun Rossiya Ta'sis Majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Millat) Majlisi qo'lida bo'lishi kerak, deb qaror qabul qiladi.

Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolaridan 8 kishidan iborat tarkibda Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzildi. Hukumatning Bosh vaziri hamda ichki ishlar vaziri etib Muhammadjon Tinishboyev saylandi. Islom Sulton o'g'li Shoahmedov-Bosh vazir o'rinbosari, Mustafo Cho'qay-tashqi ishlar vaziri, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev (Ubaydulla Xo'jayev) - harbiy vazir, Hidoyatbek Yurg'uli Agaev yer va suv boyliklari vaziri, Obidjon Mahmudov oziq-ovqat vaziri, Abdurahmon O'rozaev-ichki ishlar vazirining o'rinbosari, Solomon Abramovich Gersfeld-moliya vaziri lavozimlarini egallashdi. Hukumat tarkibida keyinchalik ayrim o'zgarishlar yuz berdi. Muhammadjon Tinishboyev iste'foga chiqqach, Mustafo Cho'qay Bosh vazir lavozimini bajarishga kirishadi. Vazirlardan uch kishi oliy ma'lumotli huquqshunos, ikki kishi o'rtacha malakali huquqshunos ekanligi muxtoriyat hukumati a'zolari bilim darajasining naqadar yuqori ekanidan dalolat beradi.

Qurultoyda 28 -noyabr kuni Turkiston Millat Majlisi ochilishi to'g'risidagi qaror ham tasdiqlandi. Millat Majlisi 54 nafar a'zodan iborat bo'lib qurultoy qaroriga binoan "36 nafar musulmonlar va 18 nafar g'ayri musulmonlardan saylanadur. 36 musulmon vakillari Turkistonning 5 viloyatidan bo'lib: Farg'ona-10 nafar, Samarqand-5 nafar, Sirdaryo-9 nafar, Yettisuv-6 nafar, Zakaspiy-2 nafar; 4 nafar esa butun Turkiston shahar dumalari tarafidan tayin bo'lurlar". 18 nafar o'rin esa o'lkaning yevropalik tashkilot va fuqarolariga, jumladan, temir yo'lchilar ittifoqi, ishchi va soldat deputatlari soveti, sotsial demokratlar, dashnoqtsutyun, yerlik juhudlar, yahudiylar, eserlar, ukrayinlar, polyaklarning vakillari va boshqalarga berilishi ko'zda tutilgan edi. Demak, tashkil etilayotgan hukumat tarkibiga turli siyosiy va milliy guruhlar vakillarining qatnashuvi ko'zda tutildi. Demokratik ruhdagi milliy ziyolilar qurultoyda qabul qilingan dasturiy hujjatlarga o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan xalqchil va demokratik g'oyalarni kiritishdi.

Qurultoy jarayonida Turkiston Millat Majlisi 32 kishidan iborat qilib saylandi. "Sho'roi Ulamo"ning rahbari Sherali Lapin Millat Majlisi tarkibiga, uning raisi

sifatida kiritilgan bo'lsa ham, ammo uning o'zi bu taklifni rad etdi.

Qurultoy tugagach, 1-dekabrda Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati a'zolari (barcha 8 kishi) imzolagan maxsus murojaatnoma e'lon qilindi. Ushbu murojaatnomada Turkistondagi barcha aholi: irqi, millati, dini, jinsi, yoshi va siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar, ular yakdillik va hamjihatlikka da'vat etilgan edi. Oradan ko'p o'tmay Millat Majlisi tomonidan tasdiqlangan qonunlar e'lon qilindi, shuningdek, yangi hukumat mamlakat Konstitutsiyasini tayyorlash uchun taniqli huquqshunoslarni jalb qildi. "El bayrog'i", "Birlik tug'i", "Svobodno'y Turkestan", "Izvestiya Vremennogo Pravitelstva Avtonomnogo Turkestana" kabi hukumat gezatalari o'zbek, qozoq va rus tillarida nashr qilina boshlandi. Avval chiqayotgan "Ulug' Turkiston" gazetasi ham o'z sahifalarida muxtoriyat hukumati faoliyatiga alohida o'rin berdi. Nashr ishlarini yaxshilash uchun O.Mahmudovning bosmaxonasi hukumat ixtiyoriga o'tdi. Muxtoriyat hukumati milliy qo'shinni tashkil qilishga kirishdi. 1918 -yil boshida bu qo'shin saflarida bir mingdan ortiq askar bo'lgan. Harbiy vazir Ubaydulla Xo'jayev ishtirokida o'tkazilgan ko'rik-parad vaqtida askarlar soni 2000 kishiga yetgan. Bundan tashqari Qo'qonda taxminan shuncha mirshablar ham bor edi. Hukumat iqtisodiy sohada 30 million so'm miqdorida ichki zayom chiqarishni yo'lga qo'ydi. Chunki gazetalarni nashr qilish, muxtoriyat qo'shinlarining ta'minoti va hukumatning ichki xarajatlari uchun mablag' zarur edi. Shuningdek, hukumat a'zolari ochlik changalida qolgan Turkiston aholisiga Orenburg orqali g'alla keltirish muammosini hal qilish uchun ham amaliy qadamlar tashladi. Turkiston Muxtoriyati hukumati qisqa muddat ichida xalq o'rtasida katta e'tibor qozondi. Uning faoliyati faqat Qo'qonda yoxud Farg'ona vodiysida emas, balki butun Turkiston mintaqasida yashayotgan tub yerli xalqlar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi. Fitrat, Cho'lpon, Hamza muxtoriyat hukumatini alqab, o'tli she'rlar bitishdi. Fitrat muxtoriyat e'lon qilingan 27 -noyabr (10-dekabr) tunini "Milliy Laylatulqadrimiz" deb atadi.

3. Turkiston o'lkasida va istiqolol uchun harakatning boshlanishi, uning sabablari.

Istiqololchilik harakati "Turkiston Muxtoriyati hukumatining tor-mor qilinishi bilan boshlanganligi" deyarli barcha tarixchilarning asarlarida e'tirof qilinadi. Aslini olganda, muxtoriyat hukumati ag'darib tashlanmaganida ham yoki bu hukumat hatto mutlaqo bo'lmaganida ham istiqololchilik harakatining vujudga kelishi tabiiy bir hol edi. Zotan, bu davrda Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat istiqololchilik harakatining boshlanishini muqarrar qilib qo'ygan edi. Chunki u Turkistonda istiqololchilik harakatining boshlanishi uchun muxtoriyatning tor-mor qilinishi bilan birga boshqa bir qator jiddiy sabablar ham mavjud edi.

Birinchidan, 1917-yilda sodir bo'lgan oktyabr to'ntarishi va buning natijasida

hokimiyatni qoʻlga kiritgan bolsheviklar tomonidan ilgari surilgan kommunistik mafkura Turkiston xalqlari uchun mutlaqo yot tushuncha edi. Mahalliy aholi bu gʻoyani avval boshdanoq oʻziga singdira olmadi va unga qarshi turdi.

Ikkinchidan, sovet hukumati oʻrnatilgan dastlabki kundanoq hokimiyatni boshqarishga mahalliy xalq vakillari jalb qilinmadi, ularning milliy gʻururi, haq-huquqi inkor qilindi. Turkistonda oʻrnatilgan bolsheviklar tuzumi chor Rossiyasi mustamlakachiligining yangi shakli ekanligi oʻsha dastlabki kunlardanoq oshkor boʻlgan edi.

Uchinchidan, yangi tuzum oʻrnatilgan kundanoq mahalliy xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini toptaldi. Qozi sudlovi bekor qilindi, vaqf yerlari tortib olindi, mulkchilikning barcha shakliga chek qoʻyildi.

Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi istiklolchilik harakatining butun Fargʻona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga bir turtki vazifasini oʻtadi, xolos. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan fargʻonaliklar Turkistonda birinchi boʻlib bol'sheviklar rejimiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Shu tariqa, Turkistonda sovet hokimiyati va bol'shevikcha rejimiga qarshi istiqlolchilik harakati 1918-yil fevral oyining oxirlarida boshlangan edi. Istiqlolchilik harakatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar edi. Turkiston Respublikasi rahbarlaridan birining eʼtirof etishicha, istiqlolchilik harakatida “asosan dehqonlar va hunarmandlar qatnashdi”. Ularga shahar aholisining aksariyat qismi: oʻziga toʻq badavlat oilalarning vakillari, savdogarlar, islom dini arboblari hamda baʼzi boylar qoʻshiddi. Istiqlolchilar safida oq-qorani tushungan savodxon kishilar - ziyolilar ham koʻpchilikni tashkil qilardi va ular jadidlar orasidan ajralib chiqqan Turkiston munavvarlari va muborizlari edi. Bir soʻz bilan aytganda, istiqlolchilar safida xalqning barcha tabaqasiga mansub kishilar bor edi.

Turkistonda oktyabr toʻntarishidan keyin sodir boʻlgan voqealar jarayoni shuni koʻrsatdiki, bolsheviklar oʻrnatgan sovet rejimi oʻlka xalqlariga nafaqat mustaqillik, hatto milliy muxtoriyatni ham ravo koʻrmadi. Mustaqillik osonlikcha qoʻlga kiritilmasligini tushunib yetgan milliy vatanparvarlar qoʻliga qurol olib bolsheviklar va bosqinchi qizil armiyaga qarshi qurolli harakat boshladilar. Biroq sovet rejimi va kommunistik mafkura hukmronligi yillarida ularga “bosmachi” degan nohaq tamgʻa bosildi. Bu atama aynan bolsheviklar tomonidan oʻylab topilgan atama boʻlib, milliy istiqlolchilar oʻzlarini bu nom bilan atamaganlar. Bu harakat haqida soʻz yuritilgan 1918 – 1919-yillardagi arxiv hujjatlarida ham bosmachi degan soʻz uchramaydi. Bu hujjatlarda “qaroqchi”, “shayka” yoki “bosqinchi” degan iboralar ishlatilgan. 1919 -yilning oʻrtalaridan boshlab ayrim rasmiy hujjatlarda, keyinchalik esa sovet vaqtli matbuotida “bosmachi” iborasini

qo'llash boshlangan. "Bosmachi" va "bosmachilik" iboralari milliy ozodlik harakatining mohiyatini pasaytirish uchun milliy shovinistlar tomonidan o'ylab topildi va "banditlik", "qaroqchilik" so'zlari bilan bir qatarga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin "bosmachi" yorlig'i yopishtirilgan ota-bobolarimizning muborak nomlari qayta tiklandi va ularning haqiqiy qiyofalari milliy istiqlolchilar sifatida namoyon bo'ldi.

Sovetlarga qarshi qurolli harakat Turkiston muxtoriyati hukumatining tor-mor qilinishi bilan boshlandi. Zotan bu davrda Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat boshlanishini muqarrar qilib qo'ygandi. Shu bilan birga bu harakatning boshlanishi uchun muxtoriyatning tor-mor qilinishi bilan birga boshqa bir qator jiddiy sabablar ham bor edi.

Birinchidan, 1917-yilda sodir bo'lgan oktyabr to'ntarishi natijasida hokimiyatni qo'lga olgan bolsheviklar tomonidan ilgari surilgan kommunistik mafkura Turkiston xalqlari uchun mutlaqo yot tushuncha edi. Mahalliy aholi bu g'oyani avval boshdanoq o'ziga singdira olmadi va unga qarshi turdi.

Ikkinchidan, sovet hukumati o'rnatilgan dastlabki davrda hokimiyatni boshqarishga mahalliy xalq vakillari jalb qilinmadi, ularning milliy g'ururi, haq-huquqi inkor qilindi. Turkistonda bolsheviklar tomonidan o'rnatilgan sovet rejimi chor Rossiyasi mustamlakasiligining yangi shakli ekanligi o'sha dastlabki kunlardanoq oshkor bo'lgan edi.

Uchinchidan, yangi tuzum o'rnatilgan ilk kunlardanoq mahalliy aholining asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, milliy qadriyatlari toptaldi. Shariat asoslari va qozixonalar bekor qilindi, vaqf yerlari tortib olindi, mulkchilikning turli shakllariga chek qo'yildi.

Turkiston Muxtoriyati hukumatining tugatilishi bu harakatning butun Farg'ona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga bir turtki vazifasini o'tadi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan farg'onaliklar Turkistonda birinchi bo'lib bolsheviklar rejitmiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Shu tariqa Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha rejimga qarshi qurolli harakat (istiqlolchilik harakati) 1918-yil fevral oyining oxirlarida boshlangan edi.

Bu harakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar bo'lgan. Turkiston respublikasi rahbarlaridan birining e'tirof etishicha, unga asosan dehqonlar va hunarmandlar qatnashgan. Ularga shahar aholisining aksariyat qismi – o'ziga to'q badavlat oilalarning vakillari, savdogarlar, islom dini arboblari hamda ba'zi boylar ham qo'shildi. Harakat qatnashchilari safida oq-qorani tushungan savodxon kishilar – ziyolilar ham ko'pchilikni tashkil qilar edi va ular jadidlar orasidan yetishib chiqqan Turkiston munavvvarlari edi. Bir so'z bilan aytganda ular safida xalqning barcha tabaqasiga mansub kishilar bor edi.

Dastlabki qurolli guruhlarning tashkil topishi Kichik Ergash (taxminan 1885 – 1918) va Katta Ergash (taxminan 1880 – 1921) ning nomlari bilan bog'liq.

Turkiston Muxtoriyati hukumati qo'shiniga boshchilik qilgan Kichik Ergash qo'rboshi 1918-yil 19 – 21-fevralda Qo'qon shahrida qizil askarlarga qarshi bo'lgan ikki kunlik urush natijasida mag'lubiyatga uchradi, uning 2.000 kishilik armiyasidan omon qolgan ikki yuztacha kishi Kichik Ergash rahbarligida Qo'qon uyezdidagi Bachqir qishlog'iga (Qo'qondan 18 chaqirim shimoli-sharq tomonda) jang bilan chekinishdi. O'zining kindik qoni to'kilgan Bachqir qishlog'ida Kichik Ergash yigitlari bilan qal'a shaklida istehkom qurib, mustahkam o'rnamshib oldi. 26-fevral kuni Bachqirga 5 ta qizil gvardiyachilar otryadi va dashnoqlar drujinasi hujum qilishdi. 1918-yil 27-fevralda Qo'qon atrofidagi Bachqir qishlog'ida bo'lgan janglarning birida Kichik Ergash shahid bo'lgach, uning o'rniga Katta Ergash Farg'ona vodiysida bolsheviklar rejimiga qarshi ozodlik bayrog'ini ko'taradi. Qo'qon uyezdidagi harakatning dastlabki tayanch nuqtasi Bachqir edi. 1918-yil mart oyining oxiriga kelib Katta Ergashning nomi Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida juda mashhur bo'lib ketadi. Istiqlolchilik harakatining rahbarlari sovet tarixchilari ta'riflaganidek, “johil”, “ilmsiz” kishilar emas edilar. Ularning ko'plari madrasalarni tamomlagan, siyosiy-ma'rifiy jihatdan yetuk shaxslar edilar. Masalan, Katta Ergash - Farg'ona vodiysidagi istiqolchilik harakatining dastlabki taniqli namoyandasi. U Qo'qon yaqinidagi Bachqir qishlog'ida tug'ilgan. Qo'qonning eng mashhur mullalaridan biri bo'lgan, shuning uchun uni Mulla Ergash ham deyishgan. Katta Ergash chor Rossiyasining Turkistonga qilgan bosqinchiligini kechira olmadi, ularga qarshi kurashdi. U Turkiston Muxtoriyatining tarafdori, uning himoyachilaridan biri edi.

Ko'p o'tmay Mulla Ergash qo'rboshi yigitlari safiga Farg'onadagi sovetlar tuzumidan norozi bo'lgan yuzlarcha va minglarcha kishilar kelib qo'shildilar. Markazi Bachqir qishlog'i bo'lgan Qo'qon uyezdi istiqolchilik harakatining dastlabki tayanch nuqtasi bo'lib qolgan edi. 1918-yil mart oyining oxiriga kelib Katta Ergashning nomi Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida juda mashhur bo'lib ketdi. Sovet ayg'oqchilaridan birining ma'lumotiga ko'ra, “Ergash qo'rboshining musulmon va rus aholisi o'rtasida paydo bo'lishi olqishlarga sazovor bo'ldi, unga eng yuksak tilaklar tilandi hamda uning qiyofasida Andijon va Qo'qonda o'rnamshgan sovet qo'shinlaridan, hukumat vakillaridan va har qanday zo'ravonlikdan xalos qiluvchi insonni ko'rdilar”. U 1921-yil 19-dekabrda o'z qarorgohi Xonobodda qizil askarlarga qarshi bo'lgan jangda halok bo'lgan.

Marg'ilonda esa militsiyaning sobiq boshlig'i Muhammad Aminbek Ahmadbek o'g'li Madaminbek (1892 – 1920) kurash boshladi. U o'z oldiga sovet hokimiyatini ag'darish va Farg'ona muxtoriyatini tiklash vazifasini qo'ygan edi. Madaminbek usta siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega bo'lgani

hatto bolshevik rahbariyati tomonidan ham tan olingan edi.

1918-yil mart oyiga kelib Farg'ona vodiysida bir-biridan mustaqil ravishda 40 dan ortiq qo'rboshi dastalari faoliyat ko'rsatardi. Madaminbek Skobelev uyezdida, Shermuhammadbek va Nurmuhammadbek Marg'ilon atroflarida, Omon Pahlavon, Qobul, Sotiboldi qozi va Rahmonqul Namangan uyezdida, Parpi qo'rboshi Andijon shahri atrofida, Eshmat qo'rboshi Qo'qonning Buvayda qishlog'ida, Umar-Choli Urganji qishlog'ida, Jonibek qozi O'zgan tomonda, Muhiddinbek Novqatda harakat qilmoqda edi.

1918-yil kuziga kelib uning qo'l ostida har birida 20 tadan 1800 nafargacha yigiti bo'lgan 70 ta qo'rboshi dastalari harakat qilayotgandi. Ulardagi jangchilarning umumiy soni 15 mingga, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 20 mingdan to 24 mingtaga yetardi. Xuddi shu davrda Madaminbekning 5 ming, Shermuhammadbekning 6 ming, Xolxo'janing 3 mingdan ziyod, Parpi qo'rboshining 3,6 ming, Jonibekning 5,7 ming, Muhiddinbekning 4,5 ming jangovar yigitlari ozodlik kurashiga otlangan edilar.

Bu tarqoq holda bo'lgan istiqloлчаilik harakatini yagona qo'mondonlikka bo'ysundirish va birgalikda harakat qilish maqsadida "Sho'roi Islom" va "Sho'roi Ulamo" tashkilotlari a'zolarining tashabbusi bilan 1918-yil mart oyining oxirida Bachqir qishlog'ida Farg'onadagi butun qo'rboshilarning birinchi qurultoyi chaqirildi. Unda 40 dan ortiq yirik qo'rboshilar qatnashdi. Farg'ona vodiysidagi istiqloлчаilik harakatining boshlig'i qilib Katta Mulla Ergash saylandi va unga butun musulmon qo'shinlarining Oliy Bosh Qo'mondoni – "Amir al-muslimin" unvoni berildi. Ergash qo'rboshining o'rinbosarlari qilib Madaminbek va Shermuhammadbek tayinlandi.

Umuman olganda, Farg'ona vodiysida 1918-yilning o'rtalariga kelib, taxminan yuzga yaqin qo'rboshi o'z dastalari bilan qizil armiya qismlariga qarshi kurash olib bormoqda edi.

Turkistondagi istiqloлчаilik harakatining muhim xususiyati shundaki, bu harakatda maqsadlar, vazifalar qanday bo'lishidan qat'i nazar, boshdan oxirigacha bir ustuvor g'oya – Turkistonning milliy istiqlochi va mustaqilligi yotadi. Istiqloлчаilik harakati goh kuchayib, goh pasayib turishi, unda ishtirok etuvchilarning tarkibi o'zgarib borishi va ikkilamchi manfaatlar o'rtada turganligi hamda ob'yektiv va sub'yektiv omillar kuchlar muvozanatiga salbiy ta'sir qilishiga qaramay, harakatning asosiy mohiyati Turkiston mustaqilligi uchun kurash bo'lib qolaverdi.

Sovet hokimiyati organlarining mahalliy aholiga nisbatan yuritgan o'ta millatchilik, shovinistik va bosqinchilik siyosati uni oqibatda bu tuzum dushmaniga aylantirdi va o'z erki, huquqi, ozodligini himoya qilib kurashga chorladi. Farg'ona fronti qo'mondoni M. Frunze ham: "...Bu yerdagi sovet hokimiyati ilk tuzilish

davrida rus va yerli ishchi, dehqon ommalarini o'ziga tortish o'rniga mehnatkash xalqni o'zidan uzoqlashtirish uchun qo'lidan kelgancha harakat qildi. Ishlab chiqarishning natsionalizatsiya qilinishida faqat burjuaziyaning mulki emas, balki o'rta hol dehqonlarniki ham tortib olindi... Bu yerda harakat qilgan qizil askar qismlari, inqilobni himoya qilgan ba'zi rahbarlar yerli mehnatkash xalqning tub manfaatlari bilan hisoblashmadi, uning arzu-dodiga quloq solmadi. Bosmachilik harakati shu asosda vujudga keldi. Bosmachilik - oddiy qaroqchilar emas. Shunda ularni tez yo'q qilish mumkin bo'lardi", deb e'tirof qilgan edi.

TASSR XKK raisi Q. Otaboyev 1922-yil iyulida Turkiston MIK 4-plenumida so'zlagan nutqida bu harakatni xalq qo'zg'oloni sifatida baholagan edi: "Biz 4 yil davomida bu harakatga hatto to'g'ri baho berishni ham bihnadik, u xalq qo'zg'oloni bolgani holda bosmachilik deb atadik. Bosmachilik mohiyatan talon-chilik degan ma'noni anglatadi, bizning ushbu harakatga bergan noto'g'ri ta'rifimiz masalani hal etishda noto'g'ri yondashuvlarga olib keldi. Va alaloqibat 4 yil davomida biz bu harakatning biron-bir jihatini tugata olmadik".

Nazorat savollari:

1. Rossiyada fevral inqilobi va uning Turkistonga ta'siri?
2. Mahalliy ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar bu?
3. "Turiston muxtoriyatining" qachon tashkil etildi?
4. Turkiston muxtoriyati hukumatining tarkibi?
5. Turkiston muxtoriyatini sovet hukumati qanday tor-mor etdi?
6. Nega Turkiston o'lkasida va istiqloq uchun harakatning boshlandi?
7. Turkistonda sovet hukumatiga qarshi qurolli harakatlarning bostirilishi?

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қаҳрамон Ражабов. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Тошкент. Маънавият. 2002
2. Azamat Ziyoy. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T.: Sharq. 2000.
3. Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
4. Sagdullayev A.S., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. -T., 2006.
5. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. 1-jild. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.

6. Istoriya Uzbekistana. Tashkent: Fan, 2012.
7. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-2-3-kitoblar. Toshkent: Sharq, 2000.
8. Sagdullaev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent, 2000.
9. Leonid Levitin. Uzbekistan on a historical Threshold. England: Cambridge, 2001.
10. Mingnorov A. Turkistonda 1917-1918 yillardagi milliy-siyosiy tashkilotlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
11. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar). Davriy to'plam. №1. Toshkent: Universitet, 1999.
12. O'zbekiston tarixi. Toshkent, 2003.
13. Qahramon Rajabov. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash. Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
14. Dono Ziyoeva. Bosmachilik: haqiqat va uydirma. Toshkent: O'zbekiston, 2000.
15. Qahramon Rajabov. Mustaqil Turkiston fikri uchun mushohodalar. Toshkent: O'zbekiston, 2000.

IV. Internet saytlar

16. <http://natlib.uz>-Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
17. <http://yedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
18. <http://lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
19. <http://lib.bimm.uz>- Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
20. <http://ziyonet.uz>- Ta'lim portali Ziyonet
21. <https://tarixinstituti.uz/uzb/>Bo'limlar
22. <http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti
23. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.

2-MAVZU: O‘zbekiston SSRning tashkil topishi. Mustabid tuzumning mustahkamlanishi. (2 soat)

REJA:

- 1. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi.**
- 2. O‘zbekistonda boshqaruvning ma‘muriy-buyruqbozlik tizimining qaror topishi.**
- 3. Respublikada iqtisodiy o‘zgarishlar sanoat qurilishi va sanoat**

***Tayanch iboralar:* O‘zbekiston SSR, milliy-hududiy chegaralanish, hududlar bo‘yicha o‘ziga xosligi. yangi Konstitutsiyasini qabul qilinishi, iqtisodiy o‘zgarishlar, qishloq xo‘jaligini isloh qilishdagi ziddiyatli holatlar, jamoalashtirish siyosati.**

1. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi.

XX asrning 20-yillari boshlariga kelganda o‘lka hayoti, yerli aholining maishiy turmush tarzi nochor ahvolda edi. Birinchi jahon urushining og‘ir asoratlari, yangi sovet tuzumini o‘rnatishda bolshevik hukmdorlarning mahalliy aholiga nisbatan qo‘llagan zo‘rlilik, bedodlik siyosati har qadamda ko‘zga tashlanib turardi. Sanoat izdan chiqqan, transport va aloqa vositalari ishlamayotgan, son-sanoqsiz ekin maydonlari payhon bo‘lib ketgandi. Eng yomoni, o‘lkada ochlik, qashshoqlik, ommaviy ishsizlik hukm surardi.

Buning ustiga sovet rejimi tomonidan ishlab chiqilib, hayotga zo‘rlilik va zudlik bilan joriy etilgan oziq-ovqat razvyorstkasi va u bilan uyg‘unlashgan harbiy kommunizm siyosati o‘lka xalqlari hayotini yana ham mushkul ahvolga solib qo‘ydi. Sovet hokimiyatini saqlab qolish maqsadida amalga oshirilgan bu favqulodda siyosat aholining bor-budini tortib olib, uning erki, tashabbusi, mustaqilligini qafiyancheklab, savdo, bozor munosabatlariga izn bermay, oqibatda bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatning yana ham murakkablashib borishiga sabab bo‘ldi.

Vaziyat sovet hokimiyati yo‘lboshchilari oldiga ahvolni o‘nglash, tang vaziyatdan chiqish va xo‘jalik siyosatining yangi vazifalarini belgilashni ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Modomiki, sovet hokimiyati butun mamlakatdagi vaziyatni o‘z

tasarrufiga olib, nisbatan tinch xo'jalik yuritish pallasiga kirgan ekan, bunda iqtisodiy siyosatning davr talabiga javob beradigan yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishi hayotiy zaruriyat bo'lib qolgandi. Bu vazifalar 1921-yil mart oyida bo'lib o'tgan RKP(b) X s'ezdi belgilab bergan yangi iqtisodiy siyosat (YalC) da o'z ifodasini topdi. Bu siyosatning muhim bo'g'inlari oziq-ovqat razvyorstkasini oziq-ovqat solig'i bilan almashtirish, savdo-sotiqni erkinlashtirish, sanoatda, xizmat ko'rsatish va mayda hunarmandchilik sohalarida xususiy tadbirkorlikka ruxsat etish, bozorni tartibga solish mexanizmlaridan foydalanish, ijaraga olish va yollanma mehnatning cheklanishini bekor qilishdan iborat bo'ldi.

Yangi iqtisodiy siyosat Turkiston uchun bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Birinchidan, Turkiston chekka, asosan qishloq xo'jaligi o'lkasi edi. Demak, bu yerda zamonaviy qishloq xo'jaligi va sanoatni yangidan barpo etish kerak edi. Ikkinchidan, o'lkada milliy ishchilar sinfini shakllantirish zarur edi. Uchinchidan, Turkiston ko'p millatli o'lka bo'lib, yangi iqtisodiy siyosatga o'tishda yerli xalqlarning qadriyatlari, an'analari, urf-odatlarini xususiyatlarini hisobga olish kerak bo'lardi. Ammo RKP(b) va sovet hukumati Turkistonda yangi iqtisodiy siyosatni joriy etishda o'z manfaatlaridan kelib chiqib ish yuritdilar.

Bundan tashqari, sovet hukumati o'lkada birinchi navbatda o'zi uchun zarur, bo'lgan tarmoqlarni, chunonchi, paxta, qand lavlagi, tamaki va boshqa texnik ekinlarni rivojlantirishga alohida e'tiborni qaratdi. Yordam ko'rsatish bahonasida 300.000 dan ortiq ishchi va dehqon oilalari Rossiya markaziy rayonlaridan Turkistonga keltirilib joylashtirildi. Buning ustiga o'lkada ahvol og'ir bo'lishiga qaramasdan 1921 -yil kuzida bu yerdan Moskva va boshqa shaharlarga 300 ming puddan ko'proq g'alla mahsulotlari olib ketildi. Shunga qaramay, o'lka mehnatkashlari fidokorona mehnat qildilar. Ularning, biroz bo'lsa-da, hayotga ishonchi uyg'ona boshladi. Chunki, sovet hokimiyati cheklangan holda bo'lsa-da, o'lkada xususiy mulkchilik va xususiy tadbirkorlikka erkinlik bergan edi.

Yangi iqtisodiy siyosat asosida sanoatni xo'jalik hisobiga o'tkazish jarayoni amalga oshirib borildi. Bu esa sanoat korxonalari ishlab chiqarishining biroz bo'lsada jonlanishiga olib keldi. Mayda va O'rta sanoat korxonalari, yirik kooperativ tashkilotlar va ularning birlashmalari tadbirkorlarga ijaraga berildi, o'lkada yangi sanoat korxonalari, temir yo'llar qurildi. Xilkovo sement zavodi, Farg'ona pillakashlik fabrikasi, Qizilqiya, Xilkovo temir yo'l shoxobchalari shular jumlasidandir. Bu hol asta-sekinlik bilan o'lkada yangi iqtisodiy siyosat yo'lidan chekinishga olib keldi. Dehqonga berilgan imtiyozlar qaytarib olindi. Ular qishloq xo'jalik artellariga birlashtirila boshlandi. Sanoatni milliyalashtirish jarayoni avj oldirildi. Ayniqsa, 20-yillarning oxirlariga kelib Ittifoqning, shu jumladan, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayotida ma'muriy-

buyruqbozlik boshqaruvi tizimining kuchayishi natijasida yangi iqtisodiy siyosat o'z mazmuni va mohiyatini tobora yo'qota bordi.

Azaldan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati maskani hisoblangan hamda aholisining mutloq ko'pchiligi qishloq xo'jaligida band bo'lgan Turkiston xalqlari uchun yer-suv, undan foydalanish masalasi favqulodda ahamiyat kasb etardi. Negaki, o'lka aholisining anchagina qismi yersiz edi. Bir parcha yerga muhtoj bo'lganlar boylar, yirik zamindorlarning mulkida chorakorlik bilan nochor hayot kechirib, oila tebratib kelardi. Buning ustiga chor Rossiyasi bosqinidan so'ng ko'plab serhosil, unumdor yerlar Rossiyadan ko'chirib kelingan kelgindi rus oilalari foydasiga majburan olib berilgan edi. Chorizmning Turkiston qishlog'idagi bu zo'ravonlik, mustamlakachilik siyosati yersiz, batrak dehqonlarning ahvolini tanglashtirib yuborgan edi. Shu bois ham mahalliy yerli aholi yangi sovet hokimiyatining "Yer-dehqonlarga" degan balandparvoz va'dalari, da'vatlariga umid bog'lab, uning yer to'g'risidagi dekretining amalga oshuviga ko'z tikib kelayotgandi. Darhaqiqat, sovet hokimiyatining 1917-yil 25-oktabrda qabul qilgan "Yer to'g'risida"gi dekretida butun mamlakatda kambag'al, batrak, yersiz dehqonlarni yer bilan ta'minlash, yirik yer-mulklarni musodara qilish va undan so'ng milliylashtirish vazifalari e'lon qilingan edi.

Turkiston Sovetlarining XI s'ezdida (1920-yil sentabr) o'lkada yer-suv islohoti masalasi ko'rib chiqildi, bu sohadagi asosiy vazifalar belgilandi. Bunga ko'ra aholining boy qismi qo'lidagi katta yerlarni musodara qilish, ovrupalik kelgindi aholi bilan yerli xalqlar o'rtasida yer-suv masalasida vujudga kelgan tengsizlik muno-sabatlariga barham berish, mehnatkash aholini sovetlar tevaragiga jipslashtirish zarur deb topildi. Yer ishlari xalq komissarligi rejasiga ko'ra tortib olingan yerlar kam yerli va yersiz mahalliy batrak va dehqonlarga bo'lib berilishi aytilgandi. Bu jarayon kelgindi va mahalliy boy xo'jaliklarga ma'muriy choralar va tazyiq o'tkazish yo'li bilan olib borildi. Bu xil tadbirlarga batrak-dehqonlar ommasi ham keng jalb etildi. Shu maqsadda joylarda qishloq va ovullar mahalliy aholisining yersiz, kambag'al qismini birlashtiruvchi "Qo'shchi" uyushmalari tuzila boshladi. "Qo'shchi" uyushmalari kommunistlarning dehqonlar orasidagi tayanchiga aylanib, yer-suv islohotini o'tkazishda partiyaga katta yordam ko'rsatib bordi. Turkiston ASSR hududida 1921-yil davomida tuzilgan "Qo'shchi" uyushmalari 160 ming a'zolari birlashtirgan edi. 1921-yil dekabrda Toshkentda "Qo'shchi" uyushmalarining birinchi respublika qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy qarorida, jumladan, "bu uyushmalar mehnatkashlar ommasini sovetlar yordamida xo'jalik qurilishiga tortish vositasidir" – deb uqtirilgan edi.

Xulosa qilib aytganda, yer-suv islohotining birinchi bosqichi yakunida dehqon xo'jaliklarini jamoalashtirish uchun zamin yaratildi. Endilikda mehnatkash xalqni birdanbir yagona yo'l - jamoa xo'jaliklariga majburan birlashish masalasi

ko'ndalang bo'lib turardi. Ammo, bu aslida oddiy xalqni aldashdan boshqa narsa emas edi. Chunki, yer dehqonga berilmadi, balki bir mulk shaklidan, ikkinchi mulk shakliga aylantirildi xolos. Gap shundaki, garchi yerga xususiy mulkchilik tugatilgan bo'lsa-da, u jamoa (amalda davlat) mulki bo'lib qoldi.

O'zbekistonning asosiy paxtakor viloyat va tumanlarida yerning katta qismi yangi iqtisodiy siyosat asosida xo'jalik yuritayotgan o'rtahol dehqonlar qo'lida to'plangan edi. Ular respublikada yetishtirilayotgan paxta, g'alla va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismini yetkazib berar edi. Kambag'al dehqonlar esa yerni ulardan ijaraga olib ishlashardi. O'zbekiston Kompartiyasining II s'ezdida (1925-yil noyabr) bu hol feodal munosabatlarning qoldig'i deb baholandi va xususiy mulkchilik munosabatlari sotsialistik iqtisodiyot ta'siriga bo'ysundirilishi kerakligi ta'kidlandi. Shundan so'ng O'ZKP(b) Markaziy Qo'mitasi Ijroiya byurosida, viloyat, shahar, tuman partiya va sovet tashkilotlarida yer-suv islohotining ikkinchi bosqichini o'tkazish masalasi bir necha bor muhokama qilindi va uning nihoyatda dolzarbligiga e'tibor qaratildi. Joylarda yer-mulklarni qaytadan ro'yxatdan o'tkazish boshlab yuborildi. Bu ish birinchi navbatda asosiy dehqonchilik muzofotlari hisoblangan Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida boshlandi. Yer-suv islohotining mazmuni dastavval quyidagi muammolarni hal etishga qaratildi:

1. Qishloqda ishlab chiqaruvchi kuchlarni yanada rivojlantirishga bo'lgan barcha to'siqlarni olib tashlash.

2. Yer va suv manbalarini tezroq milliyalashtirish.

3. Mehnat qilmay boshqalar hisobiga yashaydiganlarning yerlarini tortib olish.

4. Yangi tashkil etilayotgan xo'jaliklarga yordam berish va hokazo.

Bu aslida qishloqda yangi iqtisodiy siyosatdan chekinish edi. Shuning uchun ham mahalliy rahbarlar yer-suv islohoti jarayoniga o'ziga xos tarzda baho berdilar. Masalan, O'zbekiston SSR Yer ishlari xalq komissari Inomjon Xidiraliyev va boshqa mas'ul xodimlar O'ZKP(b) Markaziy Qo'mitasi va O'rta Osiyo byurosiga ariza bilan murojaat qilib, yer-suv islohoti mahalliy xalqning xohish-irodasiga, turmush tarziga zid, deb islohotga oshkora e'tiroz bildirdilar. Biroq ular Markaz vakillari qudrati oldida yakkalanib qoldilar.

1925-yil dekabrda bo'lgan O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining Favqulodda sessiyasi "Yer va suvni milliyalashtirish to'g'risida" dekret qabul qildi.

2. O'zbekistonda boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimining qaror topishi.

O'zbekistonda sanoatlashtirish ishini amalga oshirish orqali sovetlar ko'p narsaga umid bog'lagandilar. Eng asosiysi, ular bu o'lkada ko'plab sanoat korxonalari va tarmoqlarini yaratish yo'li bilan uning bitmas-tuganmas boy tabiiy va mineral resurslarini ishga solish, arzon mahalliy ishchi kuchidan foydalanish va oxir oqibatda Markaz uchun ko'proq foyda undirib olishni ko'zlaganlar.

Ularning nazarida bu narsa O'zbekistonda sotsializm qurish yo'lida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qtlishi kerak edi. So'ngra sanoatlashtirish jarayoni O'zbekistonning Markaz ta'sirida batamom qolib ketishi uchun qulay imkoniyatlar yaratardi. Gap shundaki, zamonaviy sanoat tarmoqlarini vujudga keltirish va ishga tushirish respublikaning iqtisodiy taraqqiyoti uchun g'oyatda katta ahamiyat kasb etardi. Biroq bu jarayon juda ko'p miqdordagi moliyaviy resurslar, pul mablag'lari, xilma-xil texnika jihozlari, ilmiy-texnika salohiyati, ko'p sonli yuqori ma'lumotli muhandis-texnik xodimlar, malakali ishchi kadrlar va hokazo omillar bilan bog'liq edi.

O'zbekistonda bunyod etilgan sanoat korxonalarining ko'pchiligi xomashyo yoki yarim mahsulot turlarini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan edi. Ularni boshqa hududlardagi korxonalarda tayyor mahsulotlarga aylantirar edi. Bu esa Ittifoq hukumati xazinasiga mo'may valyuta daromadlarining kelib tushishini taxmin etardi. Markaz amri bilan respublikaning xomashyo, tabiiy resurslari ayovsiz ekspluatatsiya qilingani holda uning o'ziga xos iqtisodiy manfaatdorligi hech qanday nazar-pisand qilinmasdi. Yana shunisi ajablanarliki, O'zbekistonda qurilgan sanoat korxonalarining asosiy qismi uning bevosita tasarrufida bo'lmay, ular tolig'icha Ittifoq ixtiyoriga bo'ysunardi

Respublikada industrlashtirishning yana bir xarakterli tomoni shundaki, bu jarayon davomida malakali ishchi kuchi yetishmaganiigidan RSFSR hududidan bu yerga juda ko'plab odamlar oqimi kirib keldi. Ular hisobiga respublikaning ishchilar sinfi saflari to'ldirilib borildi. Jumladan, 1926-yildan to 1940-yilga qadar O'zbekiston aholisi yangi kelganlar hisobiga 750 ming kishiga yoki 10% dan ortiqroqqa ko'paydi. SSSRning markaziy tumanlaridan aholining sun'iy tarzda ommaviy olib kelinishi ko'p jihatdan xalq xo'jalik- mulohazalari bilan emas, balki ko'proq siyosiy mulohazalar taqozosi bilan amalga oshirilgan edi. Agar joylarda o'zining malakali ishchi kadrlarini keng miqyosda tayyorlash tashkil etilganda edi, bu hol ancha oqilona va ijobiy bo'lishi va eng muhimi ko'plab mahalliy navqiron yoshlarni foydali ishga jalb etish hamda ularni yaxshi ishchi kadrlar qilib tarbiyalashga sezilarli ta'sir ko'rsatishi shubhasiz edi. Biroq sovet tuzumi davrida siyosat va mafkuraning iqtisodiyotdan ustun qo'yilib kelinishi bu masala bobida ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmagandi. Negaki, totalitar tuzum sharoitida barcha aholi tabaqalarida bo'lgani singari respublikaning ishchi va xizmatchilariga nisbatan ham g'oyaviy va ma'muriy tazyiq ko'rsatib borishga alohida urg'u berilgan edi. Shuningdek, bu tuzum mutasaddilari aholining moddiy, ma'naviy manfaati, shaxsiy qiziqishi, tashabbuskorligi masalalariga mumkin qadar panja ortidan qarar, bularni ikkinchi darajali ish deb hisoblardi.

Shunday qilib, sanoatlashtirish yillarida partiya va sovet hukumatining so'zi bilan amaliy ishi o'rtasida yakdillik va uyg'unlik bo'lmadi. Sotsializmning kapita-

iizmdan afzalligi, ustuvorligi, mehnatkashlar turmush farovonligini tubdan yaxshilash, ularning hayoti mazmun-mohiyatini chuqur o'zgartirish to'g'risidagi g'oyalar amaliyotda puch bo'lib chiqdi. Xalq ommasining o'n yillar davomida to'kkan peshona teri, amalga oshirgan tinimsiz mehnati, chekkan zahmati, fidokorligi unga yengillik, baxt-u farovonlik keltirmadi. Buning aksicha xalqning mehnat jasorati va bunyodkorlik faoliyati samarasi 30-yillarga kelib mamlakatda bo'y ko'rsatgan "kazarma sotsializmi" o'p'qonini to'ldirishga, uning g'arazli manfaatlarini qondirishga xizmat qildi. Bu esa tariximizning fojeali sahifasi bo'lib totalitar tizimning SSSR hududida qaror topib, chuqur ildiz otib borishiga asosiy sabab bo'ldi.

1929-yil tarixga qora belgi ostidagi "Buyuk burulish yili" deb nom olgan yil bo'lib kirib keldi. Bu dehqonlar sinfini ijtimoiy qatlam va mehnatkash omma sifatida maqsadli yo'q qilishning boshlang'ich davri edi. Bunda "quloqlar" va "boyalar" toifasiga asosan yangi iqtisodiy siyosat sharoitida o'z xo'jaliklarini oyoqqa turg'azib olgan o'rtahol dehqonlar kiritildi. Chunki birmuncha badavlatroq qatlamlar oldingi yillarda tugatilgan edi.

1929-yilning yozida "quloqlar" ni jamoa xo'jaliklariga (kolxoz) kiritilishini ta'qiqlovchi qaror qabul qilinadi. O'sha yilning 7-noyabrida "xalqlar otasi" Stalinning matbuotda bosilib chiqqan "Buyuk burulish yili" nomli maqolasi hamda 27-dekabrda qishloq xo'jalik xodimlarining ilmiy konferensiyasida so'zlagan nutqi quloqlarni sinf sifatida tugatish va jadal jamoalashtirish siyosatini boshlab berdi.

Yoppasiga jamoalashtirish bu boy va o'rtahol dehqonlarga tegishli ishlab chiqarish vositalari, mollar, uy-joy, qishloq xo'jalik mahsulotlari va urug' zaxiralarini tortib olish hisobiga kolxozlar tuzish degani edi. Ommaviy jamoalashtirish g'oyasi, umuman olganda, "Lenincha kooperativ reja" da o'z ifodasini topgan bo'lib unda dehqonlarni bosqichma - bosqich kooperatsiyalash yo'li taklif qilingan edi, u dehqonlarning eng oddiy shakllar orqali yuqori va murakkab shakl bo'lgan jamoa xo'jaliklariga birlashuvini nazarda tutardi.

1929-yilning kuzidan e'tiboran sovet davlati kooperativlashtirishning xilma-xil shakllarini tugatish, mavjud bo'lgan bir qancha kooperativ tizimlarini davlatlashtirish yo'lga o'tdi. Kooperatsiyani barcha turlari va sohalari bo'yicha rivojlantirish siyosatini yoppasiga jamoalashtirish yo'li bilan almashtirdi. Bu yo'l esa ixtiyoriylik prinsplari asosida emas, balki "yuqoridan belgilash" yo'li bilan amalga oshiriladi. O'zbekistonda jamoalashtirish O'z KP MK ning 1930-yil fevralda qabul qilingan "Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish" to'g'risidagi qarori e'lon qilingandan so'ng boshlab yuborildi. O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekistonning sovet davri tarixidagi yaxshi o'rganilmagan mavzulardan biri jamoalashtirish va u bilan bog'liq quloqlashtirish, surgun qilish davri tarixi masalasidir. Zo'rlik bilan, kuch bilan o'tkazilgan jamoalashtirish

jarayoni qanday kechgan bo'lsa, shundayligicha ochib berish va qatag'on etilib surgun qilingan dehqonlarning ayanchli, fojeali ahvoli, taqdirini tadqiq etish hozirgi O'rta Osiyo tarixshunosligida dolzarb muammolardan biridir.

Komfirqa va sovetlar hukmronligi davrida “quloq”, “mushtumzo'r”, “qishloq burjuaziyasi”, “aksilinqilobchilar”, “xalq dushmanlari”, “sotsializm dushmanlari”, “kolxoz dushmanlari”, “yot unsurlar”, “kapitalistik unsurlar”, “eng so'nggi ekspulatatolar” kabi nomlar atalib kelingan milliy qishloq aholisining haqiqiy tarixini yaratish imkoni bo'lmadi va bu mavzu ommadan sir saqlanib kelindi.

Stalinning 1929-yil 7-noyabrda bosilib chiqqan “Buyuk burulish yili” nomli maqolasi jadal jamoalashtirishni “nazariy” jihatdan asoslab berdi. Unda, keng qishloq ommasi kolxozlarga kirish uchun yetildi, deb yozilgan edi. VKP (b) MQ ning 1929-yilgi noyabr plenumi “dohiy” fikrini partiya direktivasiga aylantirdi. Plenum jamoalashtirish sur'atlarini haddan tashqari kuchaytirish, unga ommaviy tus berishdan iborat aniq vazifani qo'ydi. 1929-yil 27-dekabrda agrar markschilar konfrensiyasida so'zga chiqqan Stalin “yoppasiga jamoalashtirish asosida quloqlarni sinf sifatida tugatish” shiorini e'lon qildi.

Hokimiyat organlari “dohiy”ning ko'rsatmasini bajarish uchun jadal jamoalashtirishning boshida turib asosan zo'ravonlik usullariga e'tiborni kuchaytirdilar. Qishloqda an'anaviy iqtisodiy munosabatlarni yoppasiga buzish avj oldirildi. Davlat qishloq mehnatkashlariga qancha va nima ekishni, yetishtirilgan mahsulotni qanday narx bilan topshirishni aytib turadigan bo'ldi. Qishloq aholisining badavlat qatlamlariga qarshi mislsiz quvg'inlar uyushtirildi, qishloqda aholini zo'rlik bilan kolxozlarga kiritish boshlandi. Agrar siyosatdagi yangi yo'l O'zbekistonda og'ir oqibatlarni keltirib chiqardi. VKP (b) MQ ning 1930-yil 5-yanvardagi “Jamoalashtirish sur'atlari va davlatning kolxoz qurilishiga yordam ko'rsatish choralari to'g'risida” gi qarorining dastlabki tahririda O'zbekiston SSSR hududida jamoalashtirishni ikkinchi besh yillik mobaynida tugallash mo'ljallangan bo'lishiga qaramay, bu harakat ertaroq tugallanishi mumkin degan fikrni o'rta tashladi. Shuni ham aytib o'tish joizki, respublikamizning ayrim rahbarlari (xususan, F. Xo'jayev va A. Akromov) valyuntaristik usullarga qarshi turishga intildilar va raqamlarga va muddatiga tuzatish kiritish fikrini bildirdilar. Biroq ularning takliflariga umuman e'tibor berilmagan. Natijada VKP (b) MQ O'rta Osiyo byurosining qarori bilan 1932-yilning boshlariga kelib dehqon xo'jaliklarining 68% ni kolxozlarga birlashtirish rejasi qabul qilindi. Jamoalashtirishni sun'iy tezlashtirish va bu borada “sotsialistik musobaqa” ning kim o'zdi “poygasini” avj oldirishda VKP (b)MQ ning 1930-yil 5-yanvardagi “Jamoalashtirish sur'ati va kolxoz qurilishida davlat yordami berish tadbirlari to'g'risida” gi qarori hal qiluvchi o'rin tutdi.

Mazkur qarorda sobiq SSSR hududi uch guruh rayonlarga bo`lindi va qaysi hudud qachon jamoalashtirishni tugallashi rejalashtirildi va u jamoalashtirishni 1933-yil bahorida tugallashi kerak edi. Yoppasiga jamoalashtirishga rahbarlik qilish uchun respublika va viloyat shtablari tuzildi. Hamma joyda ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlari harakatga keltirildi. Qishloq aholisini kolxozlarga “g`ayratlantirish” uchun ishchilar sinfi ham jalb qilindi. VKP (b) MQ 1929-yil noyabr plenumi qarori bilan “yakka xo`jalik” qishloqlariga kamida 25 ming ishchini yuborish taklif etildi, ular joylarda “agrar inqilobni avj oldirishni ta`minlashlari” lozim edi. Xususan, O`zbekistonga Rossiyaning markaziy rayonlaridan 437 ishchi yuborildi.

Ular bilan birgalikda mahalliy ishchilar sinfi o`z saflaridan 263 kishini jalb qildi. “Yigirma besh mingchi” ishchilar partiya tashkilotlariga kolxozlar tuzishda yordam ko`rsatdilar, kambag`al faollarni “quloqlar”ga qarshi birlashtirdilar, qishloq xo`jaligi va mahalliy sharoit haqida umuman tasavvurga ega bo`lmasada, “yigirma besh mingchi” ishchilar yangi tashkil etilgan qishloq xo`jalik artellariga boshchilik qildilar. Oqibatda, shoshma-shosharlik bilan dastlab tashkil qilingan kolxozlarning ko`pchiligi ishni eplay olmay tarqalib ketdi. Jamoa xo`jaliklariga birlashtirish uchun dehqon xo`jaliklariga bevosita hujum qilish amaliy jihatdan buzg`unchilik harakatiga aylanib ketdi. Raqamlar ortidan quvish boshlandi. Sovet davlatining hamma joyida bo`lgani kabi O`zbekistondagi jamoalashtirish ham “harbiy kommunizm” yillarida sinovdan o`tgan kompaniyabozlik, “hujum va tazyiq” usullari bilan amalga oshirildi. Dehqonlar zo`rlilik bilan kolxozlarga kirishga majbur edilar. Qarshilik ko`rsatganlar ijtimoiy mansubligidan qat`iy nazar “quloq qilindi”. Ko`pincha qishloqlarning aholisini bu yerdan ko`chirib yuboramiz, oziq-ovqat ta`minotidan, suvdan mahrum etamiz, deb qo`rqitib kolxozlarga yozilishga majbur qildilar. Shunday hollar ham bo`lar ediki, kolxozlarni tashkil etish u yoki bu qishloqdagi deyarli dehqon xo`jaliklarining kolxozga kirish-kirmaslik istagidan qat`i nazar sun`iy ravishda varaqa to`ldirishdan iborat bo`lardi. Kolxozlar tuzilishi uch shaklda olib boriladigan bo`ldi. Birinchisi qishloq xo`jalik ishlab chiqarish shirkati bo`lib, unda butun qishloq xo`jalik inventarlari, ot-ulov, tortuv kuchlari va yerni birgalashib ishlovchilar umumlashtirilgan. Ikkinchisi qishloq xo`jaligi arteli bo`lib bunda barcha ishlab chiqarish vositalari, yer va butun ishlab chiqarish jarayoni umumlashtirilgan. Uchinchisi qishloq xo`jalik kommunasi bo`lib, u ijtimoiy ishlab chiqarish va dala taqsimotdan iborat bo`lgan. Dala ishlari boshlangunga qadar kolxozlar tuzish masalasi bilan bog`liq barcha tadbirlar tuzilajak kolxozlar hududlarida amalga oshirilishi kerak edi. VKP (b) Markaziy Komiteti O`rta Osiyo byurosi 1930-yil 28-yanvarda quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog`liq tadbirlar to`g`risida qaror qabul qiladi. Qarorda kolxozchilik harakati ko`p jihatdan qishloq xo`jaligini tez sur`atlar bilan texnikaviy (traktorlarni, murakkab qishloq xo`jalik

mashinalarini joriy etish) jihatdan qayta qurollantirishga asoslanishi, dehqonlarning ommaviy harakati asosida bir qator rayonlarda yoppasiga jamoalashtirish uchun qulay shart-sharoit yetildi, degan g'oya ham qayd etildi. O'rta Osiyo byurosi Markazning ko'rsatmasiga xilof ravishda jamoalashtirish uchun yuqoridan majburan, buyruqbozlik bilan yuzaga keltirilgan "ommaviy harakat" degan aqida asosida yoppasiga jamoalashtirish rayonlarini ham aniqlab berdi. Unga ko'ra bunday rayonlar O'zbekiston bo'yicha yangi Buxoro, Sariosiyo, Konimex, Shahrixon, Asaka, Marhamat, Jalolquduq, Chust, Buvayda, Bag'dod, Rishton, Quva, Yangiyo'l, Pskent, Mirzacho'l, Oqdaryo, Pstdarg'om, Yangiqo'rg'on, Turkmaniston bo'yicha Qiziloyoq, Karki, Farob, Sayat, Denov, Kaaxka, Semenik, Seraxs, Qirg'isizton bo'yicha Bozorqo'rg'on, Arovnobura, Priozerniy, Beloved, Rikov, Kalinin, Tojikiston bo'yicha Saroyqoratog', Kabodiyon, Parkar, Orol, Cheptura rayonlari edi. O'rta Osiyo byurosi bu rayonlarni mustahkamlash uchun milliy kompartiyalar Markazkomlari zimmasiga yoppasiga jamoalashtiriladigan rayonlarda partiyaviy rahbarlikni kuchaytirish vazifasini qo'ydi. 1930-yil 28-yanvardagi qarorning VI bo'limda quloqlarni sinf sifatida tugatish uchun amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan. Bu ishni amalga oshirishda batrak va kambag'allar keng ommasi bevosita ishtirok etishlari, juda faol bo'lishlari lozimligi ko'rsatilgan. Kolxozchilik harakati va quloqlarni sinf sifatida tugatish sari olib borilayotgan partiya va sovet hukumatining bunday siyosati quloq unsurlarning dushmaniki, qo'poruvchilik faoliyatini avj oldirishlari e'tiborga olinib, holatning oldini olish uchun respublikalar hukumatlari qarorlari qabul qilib quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari ko'rsatilgan: 1) quloqlarning ishlatilmay yotgan yerlarini tortib olib, kolxozlar yoki kambag'allarga berish; 2) jonli va jonsiz inventarlarni hisobga olib inventar egasiga ularni saqlash mas'uliyatini yuklash; 3) joriy ekish mavsumidan boshlab tugatilmagan quloq xo'jaliklarining jonli va jonsiz qishloq xo'jalik inventarlaridan kolxoz yoki kambag'allar dalalarida hashar yo'li bilan foydalanishga erishish, yagona qishloq xo'jaligi solig'i bo'yicha quloq xo'jaliklariga texnikaviy ekinlar uchun berilayotgan barcha imtiyozlarni bekor qilish va boshqalar.

Joriy ekish mavsumida jamoalashtirish 70-75% bajarilgan rayonlar yoppasiga jamoalashtirish rayonlari deb hisoblangan.

Yoppasiga jamoalashtirish va quloqlarni sinf sifatida tugatishni mislsiz avj oldirish qishloq kambag'al-batraklar qatlami faolligining nihoyatda yuksalishiga olib kelishi mumkin deb hisoblab O'rta Osiyo byurosi mahalliy partiya tashkilotlariga bundan foydalanib qishloqdagi kambag'al-batraklarning eng yaxshi vakillarini partiyaga yollashni maslahat beradi. Ayollar ommasini ham bu ishga keng miqyosda jalb etish qarorda ko'rsatildi. Qishloq sovetlari, partiya yacheykalari va kolxozlar tarkibida xotin-qizlar salmog'ini muttasil oshirib borish vazifa qilib qo'yildi. Jamoalashtirish va quloqlarni tugatish ishida komsomol tashkilotlarining

ham o`rni va ro`li o`sha qarorda ko`rsatib berildi. Jamoalashtirishning “jadal sur`atlari” natijasida respublika bo`yicha 1930-yil martda dehqon xo`jaliklarining 47% jamoalashtirildi, holbuki, 1929-yil 10-dekabrda qadar kolxozlar dehqon xo`jaliklarining bor - yo`g`i 34% ni qamrab olgan edi, xolos. Shu bilan birga ishlab chiqarish vositalarini umumiyashtirish masalasidagi noaniqlik tufayli yakka xo`jalikdan birdaniga jamoa xo`jaligining oliy shakli bo`lgan kommunalarga sakrab o`tish hollari sodir bo`ldi. Kommunal tashkil etilgan joylarda darhol turar-joylarni, mayda hayvonlarni, parrandalarni va hokazolarni umumlashtirish ko`zda tutilgan edi. Qishloq xo`jalik artellarini tashkil etish vaqtida ham joylarda chorva mollari va parrandalarni umumiyashtirishga intilish sodir bo`ldi. Shunday qilib jamoalashtirish dehqonlarga zo`ravonlik qilish yo`li bilan amalga oshirildi. Badavlat xo`jaliklarning mol-mulkini to`liq musodara qilish “boy quloqlar” oilalarini o`zga yurtlarga surgun qilish ommaviy qonunsizliklar asosida amalga oshirildi.

Jadal jamoalashtirishga, quloq qilishga o`rtahol qatlamlarga shubha bilan qarashga, qishloq aholisining boshqa qatlamlari insoniy huquqlarining poymol etilishiga qaratilgan yo`l qishloqda siyosiy vaziyat keskin tus olishiga sabab bo`ldi. Qishloq aholisi o`rtasidagi bu ijtimoiy norozilik qudratli portlashni keltirib chiqardi. 1930-yil 15-iyunda Iskavot qishloq soveti hududidan qo`llarida ketmon, bolta ko`targan 2 ming kishilik qishloq odamlari yo`lga chiqib tuman markazida shikoyat bilan yurish qildilar. Bir necha batraklar yarador bo`ldi, 20 dan ortiq xotin-qizlar hibsga olindi. Bu xildagi chiqishlar Farg`ona, Bag`dod tumanlarida, Oyimda, Chustda, Xatirchida ham ro`y berdi. Kolxozlarga qarshi chiqish hollari OGPU ning ma`lumotlariga qaraganda, respublikada bu davrda 240 marta sodir bo`lgan. Umuman olganda, SSSR bo`yicha 1930-yil martining o`rtalariga kelib 2 mingdan ortiq qurolli chiqishlar qayd etilgan.

Moskvaning tazyiqi bilan 1931-yilning bahoridan e`tiboran O`zbekistonda yoppasiga jamoalashgan tumanlar tashkil etish tajribasi qayta tiklandi. Ittifoqning g`allakor tumanlarini jamoalashtirish sur`atlari bo`yicha “quvib yetish va o`zib ketish” shiori yana ilgari surildi. Bu vazifani ta`minlash ilgari ishlab chiqilgan amalga oshirildi. Natijada, agar 1930-yil iyunda respublikada 6124 ta kolxoz mavjud bo`lib, ularga jalb qilingan dehqon xo`jaliklarining 27,1% ni tashkil etgan bo`lsa, yilning oxiriga borib, u 37,7% ga, 1931-yilning mayida 56,7 % ga yetdi. 1 dekabrda esa 68,2 % bo`ldi.

Shuningdek jamoalashtirishni jadallashtirishning “iqtisodiy” usullaridan o`ziga xos tarzda foydalanildi. Ma`muriy tazyiq, oshkora zo`ravonlik, qishloq mehnatkashlarini kolxozlarga “haydash” ning iqtisodiy terror usullari rasmiy belgilangan kolxoz qurilishi rejalarini sezilarli ravishda oshirib bajarish imkonini berdi. 1932-yilning oxirlariga kelib umuman respublikada ijtimoiy sektor barcha dehqon xonadonlarining 81,7% ni birlashtirgan edi. 800 ming dehqon xo`jaliklari

negizida 9734 ta kolxoz va 94 ta sovxoz tashkil etildi. Shunday qilib, kolxoz qurilishi sur'atlarini sun'iy ravishda avj oldirish, kolxozlarni "sotsialistik asosda mustahkamlash", ko'p sonli odamlarning qurbon bo'lishiga, ularning begunoh qoni to'kilishiga sabab bo'ldi. Oqibatda respublikada faqat bir xil shakldagi kolxoz tuzumi qaror topdi.

Yakka dehqon xo'jaliklarining to'la-to'kis tugatilishi va kolxozlar yirik umumlashgan ishlab chiqarishning yagona shakli sifatida qaror topishi sovet hokimiyatining "kolxozlardan oldingi qishloq" ni sotsialistik o'zgartirish borasidagi siyosatning tantanasi, deb baholanadi. Aslida esa sovet davlatining bu siyosati qishloqdagi bozor munosabatlarining barbod bo'lishiga, mulkchilikning xilma-xil shakllari tugatilishga, oxir oqibatda agrar ishlab chiqarishning izdan chiqishiga olib keldi. Umuman jamoalashtirish o'zbek qishlog'i tarixiy rivojlanishning sog'lom jarayonlariga to'sqinlik qildi. U dehqonlarning davlat tomonidan asoratga solinishiga olib keldi. Kolxozlarga zo'rlik bilan haydab kirilgan dehqonlar barcha asosiy fuqarolik huquqlaridan va avvalo ko'chib yurish erkinligi, kasb faoliyatini tanlash huquqlaridan mahrum qilindilar. "Baxtli kolxozchilar" "badavlat turmush" dan qochib ketishlaridan xavfsirab, Stalin ularning pasportlarini olib qo'yishni buyurdi.

Kolxozchilarning kolxozdan ko'ngilli ravishda chiqishlari taqiqlandi. Ularning noroziligini bosish uchun 1932-yil 7-avgustdagi farmon bilan kimda kim dehqonlarni kolxozlardan chiqarishga "majbur" qilar ekan, 5 yildan 10 yilgacha muddat bilan "konsentratsion lagerlar" ga tashlanishga hukm qilinadi, deb ko'rsatma berdi. Jamoalashtirish qishloq xo'jaligiga juda og'ir zarar bo'lib tushdi. Respublikada ocharchilik boshlandi (1933-yil). G'alla yetishtirish keskin qisqardi. Chorvachilikka haddan tashqari zarar yetdi. Bu siyosat yomon, xunuk, fojiali oqibatlarga olib keldi. "Uning ijtimoiy oqibati shu bo'ldiki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va qishloq infrastrukturasidagi kattadan-katta mablag' boshqa sohaga behuda sarflandi, qishloqda Stalinch diktaturaning ijtimoiy bazasi mustahkamlandi. Dehqonlar o'z mulki va mehnati natijalaridan begonalashdi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy rag'batlari tugatildi, qishloqda malakali ishchi kuchi taqchil bo'lib qoldi".

Jamoalashtirish to's-to'palonlari paxtachilikka ham ta'sir ko'rsatdi, paxta yakka hokimligining yalpi ommalashuviga olib keldi. 1930-yilning bahoridan boshlab sredaz EKOSO respublika hukumatidan yoppasiga jamoalashgan tumanlarda "to'rtidan uch qismga chigit ekish" ni talab qildi.

Respublika rahbariyati imkoni boricha yalpi paxtachilikni avj oldirishdan iborat halokatli jarayonni to'htatib qolishga urunib ko'rdi. Ular paxta bilan bir qatorda g'alla ekish, sabzavot yetishtirish, chorvachilikni yuksaltirish uchun mustahkam yem-hashak bazasini yaratish kabi oqilona takliflarni qo'ydi. Biroq Kremlidagi

siyosiy rahbariyat “joylar” dan boʻlgan takliflarga quloq solishni istamadi. Stalin paxta mustaqilligiga erishish shiori ostida respublikamizni paxta yakka hokimligiga faollik bilan majbur etdi. Uning tazyiqi bilan 1933-yildayoq paxta respublika tayyorlab beradigan mahsulotlarni umumiy hajmining 81,5% ni tashkil etdi. 1937-yilga kelib bu koʻrsatkich 93,4 % ga yetdi. Shuningdek 30 yillarda sovxozlar qurilishi ham tez surʼatlar bilan amalga oshirildi. U koʻp jihatdan “SSR ning paxta mustaqilligini qoʻlga kiritish” vazifalarini taʼminlashga boʻysundirilgan edi. 1940-yilga kelib sovxozlarning umumiy soni respublikada 85 taga yetdi. Biroq ularning kolxozlar singari jadallik bilan qurilishi qishloq xoʻjaligi taraqqiyotini tezlashtirishga yordam berolmadi. Sovxozlar siyosiy rahbariyat “orzu qilganidek” samarali agrar ishlab chiqarish namunasi boʻla olmadi. “Jamoalashtirish” natijasida majburan tashkil qilingan “kolxoz-sovxoz tuzumi” yerdan foydalanishning yaroqsiz shakli boʻlib, oxir-oqibatda agrar ishlab chiqarishni tanazzulga olib kelishiga, olib keldi. Davlatning qishloqdagi azaliy anʼanaviy xoʻjalik aloqalari tizimiga yoppasiga aralashuvi, qishloq xoʻjaligi uchun mutlaqo zararli boʻlgan sotsialistik munosabatlarni majburan tiqishtirilishi mustaqil rivojlanishning ichki imkoniyatlarini barbod qildi, qishloq mehnatkashlarining ongi esa buzilib bordi. Dehqonlar yerga va ishlab chiqarishga egalik tuygʻusini, ming yillardan buyon singib ketgan mehnatsevarlik fazilatlarini yoʻqotib bordilar, ulardagi mehnatga, kasb mahoratiga boʻlgan mehr-muhabbat sovib bordi. Bu buzulish jarayonlarining taʼsiri hali-hanuz barham topgan emas.

Garchi partiya Markazqoʻmining 1930-yil 5-yanvardagi qaroriga binoan Oʻzbekistonda dehqon xoʻjaliklarini yoppasiga jamoalashtirish ishlarini 1933-yil boshlariga qadar tugallash muddati belgilangan boʻlsa-da, mahalliy rahbarlar uni muddatidan avval bajarish uchun shiddat koʻrsatdilar. Buni quyidagi raqamlar koʻrsatkichida ham yaqqol koʻrish mumkin. Agar 1930-yil iyunida respublikada 6124 ta kolxoz tuzilgan, ularga jalb qilinganlar dehqon xoʻjaliklarining 27,1 foizini tashkil etgan boʻlsa, shu yilning oxiriga borib 37 foizga, 1931-yil dekabrda esa 68,2 foizga yetdi. Bu davrga kelib paxtachilik tumanlarida jamoalashtirish asosan tugallangan, ularning ekin maydonlari 1929-yildagi 530 ming gektardan 1932-yilga kelib 928 ming gektarga koʻpaygan edi. Shu tariqa, “SSSRning paxta mustaqilligini taʼminlash”da Oʻzbekiston oʻz salmoqli ulushini qoʻshib bormoqda edi. Masalan, 1935-yilda Oʻzbekistonda 1 mln. tonna paxta tayyorlangan bolsa, bu koʻrsatkich 1939-yilda 1,5 mln. tonnani, 1941-yilga kelib esa 165620 tonnani tashkil etdi. Bu SSSR boʻyicha tayyorlangan paxtaning 60 foizidan ziyodrogʻini tashkil qilardi. 30-yillar davomida respublika qishloq xoʻjaligi tizimida paxta yakkahokimligi mustahkam oʻrin egallab bordi. Jumladan, agar 1933-yilda paxta mahsuloti respublika yetishtirib tayyorlab beradigan qishloq xoʻjalik mahsulotlari umumiy hajmining 81,5 foizini tashkil etgan boʻlsa, 1937-yilga kelib bu raqam koʻrsatkichi

93,4 foizga yetdi. Qishloqni jamoalashtirish jarayoni ham o'zining yakunlovchi pallasiga kirib bordi. Chunonchi, 1937-yilda dehqon xo'jaliklarining jamoalashtirish darajasi 95 foizga yetgan bo'lsa, 1939-yilda u 99,2 foizni tashkil etdi.

3. Respublikada iqtisodiy o'zgarishlar sanoat qurilishi va sanoat.

Sovet mustamlakachilari O'zbekistonda 20-yillar oxiri va 30-yillar boshlarida keng ko'lamda jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosatni olib bordilar. Lekin bu siyosatga sovetlar davrida xolisona baho berilmadi. O'rta Osiyoda shu jumladan O'zbekistonda o'tkazilgan "quloqlashtirish" kompaniyasi yaqin-yaqingacha tarixiy adabiyotlarda sovet davlat tuzumining, jamoalashtirish siyosatining qishloq rayonlardagi ulkan g'alabasi tarzida talqin etib kelindi. Binobarin, shu g'ayriinsoniy kompaniyaning qurboni bo'lgan kishilar va ularning farzandlariga yaqin-yaqingacha yot unsurlari sifatida qoralab ularning insoniy haq-huquqlari payhon etib kelindi.

Ammo XX asrning so'nggi yillarida, ayniqsa, SSSR ning davlat sifatida halokatga uchrashi bilan sovet davri tarixining qayta o'rganilishi va shu davrda ro'y bergan siyosiy-ijtimoiy voqealarning qayta baholanishi natijasida "quloqlashtirish" sovet davlati amalga oshirgan eng sharmandali kompaniyalardan biri ekanligi ma'lum bo'ldi.

O'zbekistonning sovetlar davri tarixidagi deyarli mutlaqo o'rganilmagan mavzulardan biri "quloqlar" bilan bog'liq bo'lib, u qatag'on etilib surgun qilingan dehqonlarimizning ayanchli hayoti, taqdiridir. Sovetlar davrida bu mavzu o'rganish uchun man etilgan edi. Quloqlar "qishloq burjuaziyasi", "aksilinqilobchilar", "xalq dushmanlari", "sotsializm dushmanlari", "kolxoz dushmanlari" degan nomlar bilan atalib kelindi.

Tariximizning yana shu achinarli, alamli sahifasini yoritish hozirgi davrda tarixchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Zero prezidentimiz Islom Karimov so'zi bilan aytganda, o'sha mustabid sovetlar tuzumi "qattol zamon" taqozosi bilan o'z davrida biri "qizil askar", biri "bosmachi", biri "quloq", biri "komisar" yana biri "mushtumzo'r" yana qay biri "yo'qsil" deb guruhlariga ajratib tashlandi. "Bo'lib tashlab hukmronlik qilish" uchun eng makkor usullar ishga solinib, bir millat vakillarini bir-biriga qayrash, adovat va nizo urug'ini sochish amalga oshirildi. "Shu bois, -deb ko'rsatadi yo'lboshchimiz ota-bobolarimizga ana shunday ranglar bilan ajratib baho bermasligimiz, balki ularning hayotini, ular yashagan davr mohiyatini to'g'ri tushunishga harakat qilishimiz lozim".

Jamoalashtirish va quloq qilish uning fojiali oqibatlarining eng birinchi aybdori mustabid sovet tuzumi, Komfirqa, qolaversa ularning arboblaridir. Qishloq, dehqon taqdirining fojiali, dahshatli yakun topishining bosh "qahramonlari" ayni o'sha arboblar edi. Dehqonlarga qilingan bu tajovuz "bolshevizm" ning ajdodlaridan ekan, uning ildizi ham Komfirqa va uning shtabiga borib taqaladi. Ayni shu joydan turib millionlab dehqonlar taqdirini hal etish boshqarildi. Qishloq fojiasining yuzaga

kelishida “dohiy Lenin” gʻoyalari dasturilamal ahamiyatga ega boʻlib nazariy-siyosiy reja yoʻlini oʻtadi. “Quloqlar”ga birinchi boʻlib oʻt ochgan ham Leninning oʻzi boʻldi. Lenin ishchilarning dasturi va siyosati “quloqlarni yanchib tashlash” dan iborat deb bildi. Lenindan keyingi ikkinchi siyosiy shaxs Trotskiy edi. “Quloq” tushunchasi 20-yillar davomida asta-sekin kengaya bordi, avval boshda kim batraklarni oʻzi yollab olgan, yani yollanma mehnatdan foydalangan boʻlsa, u quloq hisoblandi. Keyinchalik esa, barcha oʻziga toʻq dehqonlarni quloq deb hisoblash keng tus oldi. “Quloqlar” ni sinf sifatida tugatish sari mudhish siyosat 1929-yilning 7-noyabrida “Pravda” gazetasida Stalinning “Buyuk burulish yili” maqolasi eʼlon qilingach amalga oshirila boshlandi. Oʻsha vaqtda “dohiy” ning oʻng qoʻli hisoblangan Molotov quloqlarni kolxozga kiritish yoki kiritmaslik masalasida oʻz fikrlarini bildirdi. U har qanday holatda ham kolxozda boʻlmasligi kerak, chunki u bu ishni nafaqat izdan chiqaradi, hatto uni barbod etadi. Quloq hali qoʻlga olinmagan eng xavfli dushmanidir, - deb aytadi. Quloqni har jihatdan aksilinqilobiy zararkuranda deb bilgan Molotov quloqqa qarshi beayov jang ochish kerak deb chiqdi. Stalin, Lenin nomini niqob etib, dehqonlarni sotsialistik geneotsid qilish uchun yangi iqtisodiy siyosatni yigʻishtirib qoʻydi. Uning oʻrniga “Buyuk burulish yili” dan Stalin shaxsiga sigʻinish ham avj oldi.

21-dekabrda mamlakat Stalinning 50-yilligini nishonladi. Shunda Stalin birinchi bor “buyuk dohiy, inqilob tashkilotchisi, qizil armiya bunyodkori, oq gvardiyachilar va interventlarni tor-mor etgan ulugʻ sarkarda, proletariat dohiysi besh yillik ulugʻ strategii” tarzida taʼriflandi. 27-dekabrda markscha agrarshunoslar konfrensiyasi Stalin boshchiligida yangi inqilob boshlanganligini maʼlum etdi. Shu kuni Stalin yangi iqtisodiy siyosat tugab, yangi era boshlanganini eʼlon qildi. Bir vaqtning oʻzida kolxozlar tuzish va quloqlarni tugatishdan iborat ikki jarayon yuz berib, u koʻplab iplar bilan oʻzaro bogʻlanib ketdi. “Quloqlarni tugatish” jamoa lashtirish uchun moddiy baza boʻldi. 1929-yil oxiridan 1930-yil oʻrtalarigacha 320 mingdan ziyod quloq xoʻjaliklari tugatildi. Ularning 175 mln soʻm qimmatga ega boʻlgan mulki, buyumlari kolxozlarning boʻlinmas fondiga topshirildi. Shu mablagʻ batrak va kambagʻallarning kolxozga kirishlari uchun badal sifatida rasmiylashtirildi va u kolxozlar boʻlinmas mulkining 34% ni tashkil qildi. “Quloqlar” ni tugatish oqibatida qishloq eng tadbirkor, epchil, oʻziga toʻq, mustaqil ish koʻruvchi, xoʻjalik yurutuvchi dehqonlardan mahrum boʻldi. Qishloqda jamolashtirishga qarshilik koʻrsatgan qishloq aholisining ruhi tushib ketdi. Ayniqsa, “quloq” qilinib Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Qozogʻiston va Oʻzbekistonning choʻl-dasht tumanlariga badargʻa qilinganlar va ularning ayanchli, fojiali taqdiri dehqonlarda kolxozga kirmaslik ana shunday yomon oqibatlarga olib kelishiga ishonch hosil qildi, natijada ular qoʻrqib kolxozga kirish hayotiy zaruratga, jon saqlab qolish kafolatiga aylandi. Ustiga-ustak, dehqonlarni kolxozga zoʻrma-zoʻraki haydab kiritish uchun qishloqqa

kommunistlar, 25 mingchilar safarbar etildi. Kolxozlar tuzish sun'iy tarzda tezlashdi. 1928-yil 1- iyulda kolxozlarda 1,7 % dehqonlar bo'lsa, bu raqam 1929-yil noyabrida 7,6% ni, 1930-yil martida 58 % ni tashkil etdi. Ma'lumki, O'zbekiston dehqonchiligida paxtachilik yuqori mavqega ega bo'lgan asosiy tarmoq hisoblangan. Shu bois, bu yerda dehqonlar, hatto kambag'al dehqon ham yollanma mehnatdan foydalangan va yetishtirilgan hosilning bir qismini sotib tirikchilik o'tkazgan. Bunday milliy o'ziga xos xususiyat quloq qilish siyosatini o'tkazish chog'ida inobatga olinmadi, markazda neki bo'lsa, shuni ko'r-ko'rona tadbiiq qilish amalga oshirildi. Jamoalashtirish, quloqlarni sinf sifatida tugatish siyosati amalga oshirilgan vaqtda kommunistlar yo'l qo'ygan jiddiy hatolardan biri ularning diniy omilga e'tibor bermasligi, hatto diniy hissiyotlar, qarashlarga qarshi hujum olib borgan bo'ldi. Dindorligi, xudojo'yligi, islomshunosligi, taqvodorligi uchun, totalitar rejimdan noroziligi uchun ko'plab begunoh kishilar sun'iy ravishda quloq qilindilar. Shaxsiy adovatlar uchun ham o'ch olish quloq qilish siyosatini qurol va qalqon qilib olgandi.

Kambag'al dehqonlar, mayda kosib - hunarmandlar quloq bo'lib qolmasligi uchun o'z xo'jaliklari faoliyatini kengaytirish o'rniga qisqartirdi va kamaytirdilar. Dindorlar esa uydagi noyob qo'lyozma va kitoblarni kuydirishga, ariqda oqizishga, qabristonlarga ko'mib, turli yo'llar bilan o'zlarining ruhoniy emasligini isbotlab, quloq bo'lmaslik yo'llarini axtarishga majbur bo'lgandilar. Quloq qilish siyosati mudhish siyosat bo'lib, jamoalashtirish bilan bir vaqtda bu siyosat bilan qo'shib olib borildi. Bu siyosat boshdan oxirigacha zo'ravonlik, jabr-zulm holatida olib borildi. Quloqni aniqlash, uni ijtimoiy jihatdan asoslash, zo'rma-zo'rakichilik, shoshma-shosharlik asosida o'tkazildi. Bu hatto quloq qilish kopmaniyasi ishtirokchilari ham e'tirof etganlar. Masalan, Yangiyo'l tuman moliya bo'limi mudiri Xaritonov shunday axborot bergan: "Kechasi meni chaqirishib quloqlarni tugatishga borishimni aytishdi. Guvohnoma berishdi, nima va qanday qilish haqida biror narsa aytishmadi". O'sh, Zangiota qishlog'i bo'yicha 42 ta xo'jalik tugatildi, jumladan qishloq xo'jalik solig'i bor-yo'g'i 158 so'm bo'lgan dehqon Abdulla Qozoqboyev, 238 so'm solig'i bo'lgan Ashraf Ibrohimov, 214 so'm solig'i bo'lgan Mulla Toshxo'jayev, 93 so'm solig'i bo'lgan Usmonxo'jayevlar xo'jaliklari ham tugatilgan, o'rta hol va kambag'al xo'jaliklari miqdori haqida aniq ma'lumotlar bo'lmagan. Shuningdek, tugatilgan quloq xo'jaliklari miqdori to'g'risida ma'lumotlar ham yo'q. Ularning ozroq qismi tugatilishdan saqlanib qolganlar.

Ko'p hollarda o'rtahol dehqonlar ro'yhatga olinib quloq qilindilar. Ro'yhatni moliya bo'limlari tuzganlar. 1930-yil 10-noyabrda Toshqishloq qishloq sovetidan Tojiboy Isomberdiyev, Katta Aravon qishlog'idan Rahmatqul Isamatullayev, Qorg'ova qishlog'idan Boqiboy Toshmatov, Bekobod qishlog'idan Saidakbar Sulaymonqulov, Toshqishloq qishloq sovetidan Saidakbar Hasanboyev, Pishqaron

qishloq sovetidan Hamraql Bozorboyevlar ayni o'sha o'rtahol dehqonlar ro'yxati bo'yicha quloq qilinganlar. 1930-yil 30-noyabrda Qo'qon tumani va shahri bo'yicha 246 kishi quloq qilgan. Quloq qilinganlar har birining daromadi pul hisobida ko'rsatildi, ularni quloq deb atash uchun mezon qilib olingan. Har bir quloq qilinganning daromad puli eng oziniki 210 so'm, eng ko'piniki 4503 so'mgacha bo'lgan. Ular hunarmandchilikda bir xodimi bo'lgani uchun, 1919-yilda 2 ta quroli bo'lgani uchun, 1929-yili 310 kun yollanma mehnatdan foydalangani uchun, imomlik qilgani uchun, 2 ta tegirmoni va 1 qaroli bo'lgani uchun, 1929-1930 yillarda qassoblik qilgani uchun, qo'y sotgani uchun, kerosin sotgani uchun, savdogarlik qilgani uchun, qandolatchilik qilgani uchun, hayvon sotish bilan shug'ullangani uchun, shayx bo'lgani uchun, savdogarligi va binoni ijaraga bergani uchun, dallollik qilgani uchun, makarka sotgani uchun, choyxonachi bo'lgani uchun, o'tin sotgani uchun, eshonligi uchun quloq qilinganlar. Shu 246 kishidan aksariyat ko'pchiligi quloq, chorikor, mardikorga ega bo'lgani uchun, imomlik qilgani uchun (23 kishi), shayxligi uchun (17 kishi), mayda savdo bilan mashg'ul bo'lgani uchun quloq qilinganlar. Ularning ro'yhati qishloq sovetida kambag'allar faollari yig'inida tasdiqlangan va bunda tuman soliq komissiyasi qatnashgan. Quloq qilish chog'ida ko'proq o'ziga to'q dehqonlar ro'yhatga olingan. Har bir quloq xo'jaligi uchun hisob varaqasi ochilib, paxta punkti bilan shartnoma tuzilib, unga muvofiq paxta yetishtirib, davlatga topshirilgan. Bolsheviklar bosh bo'lgan sovetlarning dehqonlarga, umuman xalqqa qarshi yangi dahshatli hammasi, tajovuzi VKB (b) MK siyosiy byurosining "Yalpi jamoalashtirish tumanlarida quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida" gi mudhish qaroridan so'ng yanada kuchaydi. Qarorda quloq sifatida hibsga olinib, badarg'a qilinadigan kishilar mamlakat umumiy dehqon xo'jaliklarining 5 % dan oshmasligi ko'rsatilganiga qaramay, amalda 15-20 % xo'jalik quloq qilindi. Quloq qilish jamoalashtirish ishlariga aksariyat chalasavod, yuqoridan berilgan topshiriqqa yetmaydigan, qishloq xo'jaligi arteli Nizomini bilmaydigan, saviyasi past kishilar rahbarlik qilishdi. Oqibatda zo'ravonlik, zug'um, o'ch olish, o'rtahol, hatto kambag'al dehqonlarni quloqlar ro'yhatiga tikib yuborish hollari ko'p bo'ldi. Yuqorining ko'rsatmasiga muvofiq quloqlashtirish, jamoalashtirishning natijasi bo'lishi, ya'ni avval ixtiyoriy ravishda kolxoz tuzish, keyin quloqlarni sinf sifatida tugatish ishlari amalga oshirilishi kerak edi. Bu masala qishloq sovetlari qoshidagi kambag'al-batraklar kengashida muhokama qilindi. Joyda esa aksincha avval dehqonlar quloq qilindi keyin kolxozlar tuzildi. Odamlarga agar kolxozga kirmasang hibsga oilinib, quloq qilinib, badarg'a qilinasan, yersuvdan g'alladan, sanoat mollaridan, saylash va saylanish huquqidan mahrum qilinasan kabi do'q -qo'rqituvlar bilan jamoalashtirish o'tkazildi. Stalin va uning atrofida gilar kolxoz qurilishini tezlashtirish to'g'risida ko'rsatma beradilar. Jamoalashtirish va quloqlashtirishni sun'iy tezlashtirish maqsadida VKB(b) MK

1930-yil 5-yanvarda “Jamoalashtirish sur’ati va kolxoz qurilishiga davlat yordami berish tadbirlari to’g’risida” qaror qabul qildi. Qarorning VI bo’limida quloqlarni sinf sifatida tugatish uchun amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, quloq - boy ekspulatatator unsurlarni yer mehnat qurollari va ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilish vazifa qilib qo’yildi, qarorga binoan quloqlarni sinf sifatida tugatish quyidagi tadbirlar orqali amalga oshiriladigan bo’ldi. Birinchidan, barcha quloq xo’jaliklari, yakka soliq to’lovchilar, ekspulatatatorlar xo’jalik belgisi bo’yicha saylov huquqidan mahrum qilinganlar tugatilishi ko’zda tutildi. Ikkinchidan, quloqlardan sug’orma yerlari, hovli-joyi, dalalardagi dov-daraxtlari, ishchi hayvonlari, oziq-ovqat murakkab qishloq xo’jalik inventari, qayta ishlovchi ishlab chiqarish korxonalari tortib olinib, kolxozlarning bo’linmas fondiga berilishi, chorikorlik bilan bog’liq barcha bitimlar, qarz majburiyatlari bekor qilinishi ham ko’zda tutilgan. Uchinchidan, chek yerlardan va ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilingan xo’jaliklari yoppasiga jamoalashtirish rayonlaridan, ko’chirib yuborilishi, kolxozlashtirishga qarshi faol kurash olib boruvchi ashaddiy quloqlar jinoiy javobgarlikka tortiladigan bo’ldi. Tugatilgan quloq xo’jaliklarga yerdan foydalanish huquqi berilgan bo’lsada, ularning yollanma mehnatdan foydalanishi mutlaqo man qilib qo’yilishi ham ko’rsatilgan.

1930-yilda O’zbekistonda 750 ming dehqon xo’jaligi bo’lib, shundan 40 minggi (qariyb 6%) quloq sifatida hibsga olinib sud qilingan yoki Ukraina va Shimoliy Kavkazga, O’rta Osiyoning yangi o’zlashtirilgan cho’l tumanlariga badarg’a etilgan.

VKP (b) Markaziy Komiteti siyosiy Byurosining 1930-yil 20-fevraldagi “Jamoalashtirish va iqtisodiy jihatdan orqada qolgan milliy rayonlarda quloqlarga qarshi kurash to’g’risida” gi maxfiy qarorida jamoalashtirish, kolxozlashtirish va quloq qilish jarayonida O’rta Osiyodan 400 dan ko’p bo’lmagan miqdorda oilalarni surgun qilish, 1930-yil 15-martga qadar O’rta Osiyodan 1500, jumladan, O’zbekistondan 1000 kishini birinchi toifali faol quloqlar sifatida konslagerga qamoqqa olish kerak ekanligi ko’rsatildi. Qarangki, o’sh mudhish, mash’um qaror chiqqandan so’ng bir oy o’tar - o’tmas O’zbekistondagi rahbarlar, ayniqsa, GPU chilar markazning ana shu topshirig’ini ortig’i bilan qoyilmaqom qilib bajarib, bu haqda 1930-yil 19-martda Moskvaga shoshilinch hisobot yuborgan. Unda O’zbekiston bo’yicha jami 1195 kishi boy quloq sifatida qamoqqa olingani aytilgan.

Jamoalashtirish va “quloq” qilish avjiga mingan paytlarda bu mudhish siyosatga qarshilik bildirgan, kolxozga kirishni istamagan ko’plab insonlar jazo organlari tomonidan asossiz otuvga, konslagerlar, qamoqxonalarga hukm qilingan. Bu vaqtda OGPU ning O’rta Osiyodagi vakillari, mintaqa respublikalari, okrug rayonlaridagi OGPU organlari qoshida tuzilgan noqonuniy “uchlik” lar dehqonlarni qatag’on qilish borasida mislsiz dahshatli ishlarni amalga oshirdilar. OGPU ning O’rta Osiyodagi

vakili L. N. Bel'skiy (rais), OGPU vakolatli vakilligi o`rinbosari U. A. Karustkiy, OGPU harbiy okrug qo`shinlari boshlig'i Bobkevich a`zolidagi "uchlik" tomonidan OGPU ning O`zbekistondagi organlari ustidan nazorat olib boruvchi prokuror Sarichev ishtirokida minglab hukmlarga imzo chekilgan. Vaqti-vaqti bilan bu jazo organlari va ularning "uchlik" lari tarkiblari o`zgarib turgan. Hukmlarni imzolaganlarning o`zlari ham vaqti kelib qatag`on qilingan. SSSR Markaziy Ijroiya Komitetining 1927-yil 9 -iyuldagi 17-63 -sonli qarori ostida 1930-1933-yillar mobaynida OGPU ning O`rta Osiyo doimiy vakilligi huzuridagi "uchlik" ning qarorlari bilan ko`pdan ko`p yurtdoshlar har xil ayblar bilan otuvga, konslagerlarda, mehnat tuzatish lagerida, maxsus posyolkalarda jazoni o`tash uchun hukm etilganlar.

1931-yilning avgustidagi quloqqa tortish va surgun qilish operatsiyasi natijasida O`rta Osiyodan 6 ming, jumladan, O`zbekistondan 3795 ta xo`jalik (17839 kishi) Ukraina va Shimoliy Kavkazga surgun qilingan. Biroq ularning O`zbekistonning qaysi viloyatlaridan surgun etilgani ma`lum emasdi.

O`zKompartiya Markazqo`mita 1931-yil 15-sentabrda "Yoppasiga jamoalashtirish rayonlarida quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog`liq tadbirlar o`tkazish to`g`risida"gi yo`riqnomani tasdiqlab, uni joylarga maxfiy tamg`a bilan yo`lladi. Yo`riqnoma "Umumiy ko`rsatmalar", " O`zbekiston SSSR dan tashqarida surgun qilish tartibi", "O`zbekiston hududidagi quloq posyolkalariga surgun qilish tartibi", "Rayon hududi bo`yicha quloqlarni surgun qilish tartibi va tarkibi", "Buyumlarni konsifikatsiya qilish tartiblari" kabi qismlardan iborat bo`lgan. Unga ko`ra "Quloqlashtirish" uch toifaga bo`lib amalga oshirildi. Birinchi toifaga mansub kishilar sovetlar va jamoa xo`jaliklariga qarshi yig`inlarning qatnashchilari bo`lib, ularning o`zlari qamoqqa olinishi, oilalari esa olis joylarga badarg`a etilishi zarur edi. Ikkinchi toifani tashkil etgan yirik "mushtumzo`rlar" va jamoalashtirishga qarshi faollik ko`rsatgan oilalari bilan olis joylarga jo`natilishi rejalashtirilgan edi. Nihoyat, "mushtumzo`rlar" ning qolgan qismi uchinchi toifani vujudga keltirgan bo`lib, ular yashash joylariga yaqin manzillarga ko`chirilishi lozim edi. Bolsheviklar uchinchi toifadagi "mushtumzo`r" larni ikkinchi toifaga o`tkaza boshladilar.

1931-yil oktabrdan "mushtumzo`rlar" ga mansub xo`jaliklarni yo`qotishning yangi to`lqini boshlandi. "Quloq" larning asosiy qismi 1931-yil badarg`a etildi. Ularning bir qismi 1932-yilda ko`chirildi. O`rta Osiyo byurosi 1932-yil yanvaridagi Farg`ona vodiysi paxtakor rayonlarida 1000 xo`jalikni ixtiyoriylik tamoyili asosida Tojikiston SSSR ga ko`chirishga qaror qiladi. 1932-yil mayida esa ommaviy ravishda quloqqa tortish ularni ko`chirish operatsiyasi o`tkazildi. Buning natijasida respublikaning 54 ta rayonlaridan 4865 ta xo`jalik (22505 kishi) ya`ni 6877 nafar erkak, 5086 nafari ayol, 9055 nafar bola qatag`on etilgan.

1932-yilda o'tkazilgan "tozalash" kompaniyasi jarayonida respublika kolxozlaridan 3550 "quloq" haydab chiqarildi, ulardan 306 nafari kolxozlarning raislari, 756 nafari boshqaruv a'zolari, 425 nafari boshqaruv kotiblari edi.

VKP (b) MK va SSSR XKS 1933-yil 8-mayda "Dehqonlarni ommaviy ko'chirishni to'htatish, qamoqqa olish va qamoqxona joylarini kamaytirish to'g'risida" maxfiy direktiv yo'riqnoma qabul qildi. Bu hujjat matbuot uchun man etilgan edi. O'sha yo'riqnomada mamlakatning 14 mintaqasidan 12 ming xo'jalik surgun qilinishi ko'rsatilgan. Jumladan, O'rta Osiyodan 500 xo'jalik surgun qilinishi kerak edi. O'sha ko'rsatma asosida O'rta Osiyoda quloq qilish surgun etish 1933-yilda ham davom etdi. SSSR XKS 1934-yil 23-aprelda "Quloq qilingan xo'jaliklar uchun davlatga qishloq xo'jalik mahsulotlarini majburiy ravishda topshirish normalari to'g'risida" qaror qabul qiladi. Unga ko'ra yashirin daromadlar, kapitallar va mulklari bo'lmagan quloq qilingan xo'jaliklar ham yakka xo'jaliklar kabi davlatga majburiy ravishda qishloq xo'jalik mahsulotlarini belgilangan normalar bo'yicha topshirishlari shart qilib qo'yiladi va bu xo'jaliklar hech qanday imtiyozlarga ega emasligi ham ko'rsatiladi. Sovetlar tomonidan 1933-1937-yillarda ham ko'plab dehqonlar quloq tamg'asi bilan qatag'on qilingan. Sovet tuzumi davridagi lenincha-stalincha siyosiy qatag'on aholining barcha qatlamlarini, turli kasb egalarini, ijtimoiy guruhlarni, ishchilar, dehqonlar, ziyolilar, ruhoniylar, yoshlar, qariyalarni, erkak va ayollarni o'z domiga tortgan edi. SSSR ichki ishlar xalq komissarligining 1937-yil 30-iyuldagi 00447 -sonli buyrug'i asosida 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvarigacha O'zbekiston SSR bo'yicha sobiq quloqlardan 5924 kishi, jinoyatchilardan 1679 kishi, boshqa "antisovet unsurlar" dan 3097 kishi, jami 10700 kishi hibsga olinib, ularning barchasi qamoq jazosiga hukm etilgan. Otishga mahkum qilinganlarning 1376 nafari sobiq quloqlar, 952 nafari jinoyatchilar va 1285 nafari boshqa "antisovet unsurlar" hisoblangan. Ular orasida O'zbekiston SSSR hududida surgun muddatini o'tayotgan mehnat ko'chkindilari ham bor edi. Quloqlar surgundagi mehnat ko'chkindilarining sohasidagi yutuqlari, ular yashash sharoitlarining yaxshilanishi GULAG mehnat qishloqlari bo'limi xodimlarini tashvishga solgan. Natijada mehnat ko'chkindilarining bir qismi xo'jalik jihatidan quloq xo'jaligi darajasiga o'sib chiqmoqda, degan ma'lumotlar yuqoriga yetkazilib, turilgan. 1937-1938-yillardagi qatag'on NKVD ning yirik xodimlarini ham o'z domiga tortdi, mehnat ko'chkindilarni boyib ketishinining asosiy aybdorlari qilib o'sha xodimlar ko'rsatildi. Bu davrda davlat tomonidan yangitdan quloqlarni yuzaga keltirish siyosati olib borildi. Pirovardida mehnat surgunidagilar ham qatag'on obyekti bo'lib qoldi. O'zbekiston mehnat posyolkalaridagi ko'chkindilardan 1935-1936-yillarda 101 kishi, 1937-1938-yillarda 156 kishi qatag'on etildi. 1937-yilda 14758 mehnat ko'chkindisidan 46 kishi (0,31%), 1938-yilda 14271 mehnat ko'chkindisidan 110 kishi (0,77%) surgun

qilindi. Ikkinchi jahon urushi davrida ham mehnat posyolkalaridagi ko'chkindilarning ma'lum qismi turli xil bo'hton, ma'lumotlar, noto'g'ri ma'lumot, to'qima ayblar asosida qatag'onga uchradi. Shu tariqa 1941-1942- yillarda O'zbekiston hududidagi mehnat posyolkalarida 283 kishi sobiq "bosmachi", 279 kishi esa sovetlarga qarshi va aksilinqilobchi shaxslar sifatida NKVD ning operativ ro'yxatiga olingan va qatag'on domiga tortilgan. Ommaviy jamoalashtirish jarayonida O'zbekiston bo'yicha 60 mingdan ortiqroq kishi quloqlarga mansublikda ayblanib qatag'on qilindi. Shunday qilib, "quloqlarni sinf sifatida tugatish" masalasi uzil-kesil hal qilindi.

Quloq surgunidagilarga nisbatan urushdan keyin ham turli ko'rinishda qatag'on siyosati qo'llanildi. Bu jarayon 1955-yilgacha davom etdi. Ular 50-yillarning o'rtalarida ozod bo'lganlaridan so'nggina qatag'on balosidan qutilishdi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi azal-azaldan suniy sug'orish tizimiga asoslanib kelganligidan bu sohani rivojlantirib borish asosiy vazifalar sirasiga kiradi. Respublikaning asosiy ekin turi hisoblangan paxtachilikni o'stirish ham ko'p jihatdan shunga bog'liq edi. Bu esa o'lka hududlarida sug'orish inshootlari, chunonchi, kanallar, kollektorlar, suv havzalari, suv omborlarini ko'plab barpo etishni taqozo etardi.

Bu ishlar O'zbekiston SSR tuzilgach, yanada avj oldirib yuborildi. Urushgacha bo'lgan davrda respublikada Darg'om, Narpay, Savay, Dalvarzin, Log'on, Katta Farg'ona kanallari, Kattaqo'rg'on suv ombori kabi ko'plab suv inshootlari qurildi. Chirchiq-Ohangaron vodiylarida, Zarafshon daryosi havzasida, shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryoda irrigatsiya tarmoqlari ancha yaxshilandi. 1929-1933-yillarda bu sohaga 234,9 mln. rubl sarflandi.

1939-yilda O'zbekiston KP(b) Markaziy Qo'mitasi va respublika hukumati hashar yo'li bilan Katta Farg'ona kanalini qurish to'g'risida qaror qabul qildi. O'sha yilning 1 -avgustidan 160 ming kolxozchi kanal qurilishini boshlab yubordi. Ularning 70 mingdan ziyodrog'ini yoshlar tashkil etardi. Uzunligi 270 kilometr bo'lgan bu kanal asosan qo'l mehnati bilan 45 kun ichida qurildi. Unda 46 ta yirik, 274 ta kichik gidrotexnik inshootlar, 5 ta temir yo'l va 40 ta avtomobil ko'priklari barpo etildi. Holbuki, bunday kanalni barpo etish uchun chorizm davrida 6-8 yil, sovet davrida esa 6-8 oy kerak bo'ladi, deyilgan edi. Amalda esa u xalq qudrati, azm-u qarori bilan atigi 1,5 oyda bunyod etildi. Bu o'zbek xalqiga xos bo'lgan hashar usulidagi shonli, fidokor mehnatning samaralari edi.

Hatto Markaz matbuotining bosh organi – "Pravda"ning 1939-yil 13-dekabrda bosh maqolasida shunday satrlar bitilgan edi: "Shu yilning yoz faslida uzoq Farg'onada qilingan ish, o'n minglab o'zbek va tojik kolxozchilarining bir yarim oy mobaynida kanal qaziganligi butun xalqni juda quvontirdi. Ijodkor xalq, yaratuvchi xalq farg'onalik kolxozchilarning tajribasida mehnatdagi shunday bir yangilikni

ko'rib oldiki, bu yangilik kelajak sari qilinayotgan harakat sur'atlarini jadallashtiradi".

Katta Farg'ona kanal Farg'ona vodiysining asosiy qon tomiri bo'lib qoldi. Vodiya 60 ming gektar bo'z, cho'lli yerlar o'zlashtirilib, 500 ming gektar yerni suv bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi. Shuningdek, Ikkinchi jahon urushidan oldingi yillarda Shimoliy va Janubiy Farg'ona kanallari, Toshkent kanali, Kampirrovot suv to'g'oni, Qoraqalpog'istonda Qizketgan kanali, sig'imi 1 mln. kub metr bo'lgan Kattaqo'rg'on suv ombori va ko'plab boshqa suv inshootlari barpo etildi hamda foydalanishga topshirildi. Buning natijasida 1937-1940-yillarda respublikada sug'oriladigan yer maydonlari qo'shimcha ravishda 200 ming gektarga ko'paydi. Respublikada yangi paxtachilik tumanlari va ko'plab jamoa xo'jaliklari tashkil etildi. Ularning ekin maydonlarining hosildorligi yil sayin ortib bordi.

Shunday qilib, sovet hokimiyati va kommunistik partiya qishloqda jamoalashtirish siyosatini olib borishda qishloq ahliga nisbatan nechog'lik zulm va zug'um o'tkazmasin hamda ne-ne og'ir sinovlarga duchor etmasin, biroq ular xalq irodasini, uning shiddat-u, azm-u qarorini so'ndira olmadi, o'zbek xalqi fidoyilik bilan mehnat qildi.

Stalincha ma'muriy-buyruqbozlik tizimi ko'zga ko'rinmas ming xil qizil iplar bilan O'zbekistonni o'z domiga kiritib, uning amaldagi rasmiy mustaqilligini ham yo'qqa chiqargan edi. Uning mahalliy rahbariyati respublikaning iqtisodiy, xo'jalik, madaniy-ma'naviy hayotiga oid biror bir masala, muammoni mustaqil tarzda hal etishga haqli, huquqli emas edi.

Buning yorqin ifodasini sovet mafkurachilari tomonidan to'qib chiqarilgan va o'zbek milliy kadrlari sha'nini bulg'ashga qaratilgan "18 lar guruhi", "inog'omovchilik", "qosimovchilik" degan siyosiy ishlar misolida ko'rish mumkin. Mazkur guruhlar faoliyatiga oid tarixiy hujjatlarni ko'zdan kechirib, tahlil etar ekanmiz, bu insonlar xatti-harakatida, faoliyatida ularni ayblashga bois bo'ladigan hech bir asosli ashyo-dalillar bo'lmaganligiga to'la amin bo'lamiz. Ularning yagona "gunohi"- bu o'z millati dardi, tashvishi va manfaatini ko'zlab, ayrim muhim muammolarni ko'targanligi va ularni hal etishga yuqorining e'tiborini jalb etganligi xolos.

Xo'sh, "18 lar guruhi" tarkibi kimlardan iborat bo'lgan? Ular sovet mutasaddilari oldida qanday gunoh qilgan edilar? Respublikaning taniqli arboblardan tashkil topgan bu guruh (I. Xidiraliyev, M. Saidjonov, U. Ashurov, R. Rahimboboyev, R. Rafiqov va b.)ga tirkalgan asossiz aybga, uyushtirilgan tuhmat-u bo'htonga ko'ra, go'yo uning a'zolari ko'p masalalarda noto'g'ri yo'l tutganlar. Aslida esa ular hukmron Markazning ulug' davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydlik yo'lga qarshi chiqib, adolat va haqqoniylik tamoyillarini himoya qilib chiqqandilar. Shu bois rasmiy partiya

organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralandi va uning a'zolari o'z lavozimlaridan olinib, turli partiyaviy jazolarga giriftor etildilar.

“Inog'omovchilik” guruhi to'g'risida gap borganda ham unga qo'yilgan barcha ayblarning to'liq tarzda to'qib chiqarilganligi ayon bo'ladi. Ma'lumki, Rahim Inog'omov O'ZKP(b) MQ Matbuot bo'limi mudiri va O'zSSR Maorif xalq komissari vazifasida faoliyat yuritib kelgan.

“Qosimovchilik” guruhi ham 1929-1930-yillarda sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag'on qilish, jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma bo'lgan.

O'zSSR Oliy Sudining raisi lavozimida ishlab kelgan Sa'dulla Qosimov va uning yaqin maslakdoshlari deb topilgan N.Alimov, B.Sharipov kabi 7 kishi 1929-yilning ikkinchi yarmida qamoqqa olinadilar. Ularning atayin to'qib chiqarilgan “ayblov ishi”ga siyosiy tus beriladi. Bunga ko'ra, ular respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog'laganlikda ayblandilar.

Mustabid tuzum hukmdorlari va ular gumashtalarining yeng shimarib qilgan “sa'y-harakatlari” natijasida 1937 – 1938-yillarda go'yo O'zbekistonda bir qator yirik aksi inqilobiy tuzilmalar borligi to'qib chiqarildi.

Bular: respublika rahbarlari A.Ikromov va F.Xo'jayev boshchiligidagi “Burjua-millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti markazi”, Abdurauf Qoriyev rahbar bo'lgan “Musulmon ruhoniylarning millatchi-isyonchilar tashkiloti”, “Aksilinqilobiy o'ng trotskiychi josuslar tashkiloti markazi”, “Buxoro va Turkiston baxt-saodati” nomli aksilinqilobiy tashkilot, I.Ortiqov boshliq “Yoshlarning aksilinqilobiy burjua-millatchilik tashkiloti”, “Ingliz josuslik rezidenturasi”, “Yapon” josuslik-qo'poruvchilik rezidenturash va boshqalar edi. Eng so'nggi ma'lumotlar, tarixiy hujjatlarni har tomonlama o'rganish, tahlil qilishlar, surishtirishlar bunday tashkilotlarning respublika hududida butunlay bo'lmaganligini tasdiqlamoqda. Demak, bunday aksil-inqilobiy tashkilotlar qatag'onlik tuzumi buyurtmasi asosida Markaz jallodlari va jazo organlari tomonidan atayin to'qib chiqarilgan. Buning orqasida ming-minglab begunoh, aybsiz insonlar shafqatsiz jazolangan, aziz umrlari xazon bo'lgan.

Ular yurtimizda iymoni but, qalbi, dili jonajon Vatan, ona zamin mehri bilan limmo-lim to'la, vijdonli, diyonatli ziyolilarni topib, jazolashdan o'zgacha zavq olardilar. Shuning uchun Markazning o'tkir shamshiri va po'lat qalqoni hisoblangan Davlat siyosiy boshqarmasi (GPU), Ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD) kabi jazo organlari va ularning jallodlari uchun ilg'or, taraqqiyparvar ziyolilarni hibsga olish, ularning faoliyati uchun yo'q ayblarni to'qib chiqarish, uydirmalarni “yasash” hech gap emasdi. Qatag'onlik davrida tuzilgan “uchlik” har qanday vallomat, pokdomon zotni ham bir lahzada “gunohi azim”ga g'arq qilib, uni og'ir jazoga mahkum eta olardi. Eng achinarlisi shuki, o'z elini jon-u dildan sevgan, uni kuylagan, boy tarixi,

betakror madaniyatiga murojaat qilib undan asar bitgan, buyuk ajdodlar nomini tilga olgan vatanparvar ijodkorlar, ilm-fan ahli birinchilar qatorida qatli omga duchor bo'ldi. Masalan, butun hayotini, barakali ijodini millat baxt-saodati, yurt istiqboli uchun bag'ishlagan Munavvar Qori Abdurashidxonov mana shu davrda avj olgan sovetlar ig'vosi va bo'htonining aybsiz qurboni bo'ldi

O'z zamonasining qomusiy bilim sohibi Said Rizo Alizoda qalamiga mansub bo'lgan yetuk asarlar uning hayotlik davridayoq dunyoga mashhur bo'lgan. Faqat 1923 – 1934-yillar davomida Lahor shahrida olimning 10 dan ziyod asari, shu jumladan, yirik “Axborot” kitobi chop etilgan. Uning 1919-yildan boshlab nashr etila borgan “Inqilob shu'lasi” haftalik jurnali faqat Turkiston o'lkasi xalqlari o'rtasida mashhur bo'lib qolmay, balki shu bilan birga qo'shni Eron, Turkiya, Afg'oniston, Hindiston mamlakatlariga ham keng tarqalgan. Shunday inson ham 30-yillar qatag'onligi domiga uchrab, Vladimir turmasida azob tortib, olamdan bevaqt ko'z yumib ketdi. Qatag'onlik ajal mashinasi aqli raso, oq-qorani yaxshi biladigan, sog'lom fikrlaydigan hech bir insonni ayab o'tirmasdi. 60 yoshli mo'ysafid Xudoyberdi Devonovning 1938-yilda mutlaqo asossiz ayb bilan oliy jazoga mahkum qilinib, otib yuborilganligi faktini qanday izohlash mumkin. Bu tinib-tinchimas inson o'zbeklardan chiqqan dastlabki fotograf va kinomatograf sifatida butun umri davomida halol-u pok xizmat qilib kelgan. Uning turli yillarda tasvirga olgan rang-barang suratlari, kinoxronikalari xalqimizning katta ma'naviy mulki hisoblangan. Qarangki, 1936-yilda “Pravda Vostoka” gazetasi tahririyati tomonidan moddiy rag'batlantirish maqsadida taqdim etilgan “Leyka” fotoapparati uning boshiga balo bo'ldi. Negaki, qatag'on posbonlarining taxminicha, bu apparat go'yo X. Devonovga “xalq dushmani” deb topilgan Fayzulla Xo'jayev tomonidan berilgan. Binobarin, bu shaxs F.Xo'jayevning “dumi” deb ko'rsatilib, uni otuvga hukm qilganlar.

XX asrning 20 – 40-yillarda Cho'lpon, Fitrat, Botu, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Otajon Hoshim, Abdulla Alvoni, Elbek, Rafiq Mo'min singari bir-biridan iste'dodli adiblar ma'rifat targ'ibotchilarini ham qatag'on to'lqini o'ziga tortdi. Shuningdek, o'zbek romanchilarining otasi Abdulla Qodiriy, talantli yozuvchi Oybek, Shuhrat, Mirzakalon Ismoil, Said Ahmad, Shukurullo «Xalq dushmani» deb e'lon qilindi. Ularning asarlari man qilinib o'zlari qamoqqa olinib stalincha lagerlarga jo'natildi.

Bundan tashqari chet elda bo'lib kelgan bir qancha ziyolilarimiz Sattor Jabbor, Solih Muhammad, Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova va boshqalar ham asossiz qatag'on siyosatining qurboni bo'ldilar. Ularning ko'plari shu siyosatdan bezib, chet ellarda Vatandan yiroqda qolib ketdilar. Inson taqdiri bilan bu qadar o'ynashish, uni chuqur surishtirmay eng og'ir jazoga mahkum etish - bu totalitar tuzum qonunbuzarligi va qonxo'rligining tipik namunasidir.

Bu insonlar kommunistik siyosat va mafkura yolg'onlariga ishonib, porloq kelajakka umid bog'lab, jonlarini jabborga berib, ter to'kib mehnat qilsalar, o'zlarini sotsializm ishiga bag'ishlasalar-da, biroq buning evaziga undan beadam zulm-sitam ko'rsalar! Respublikada sanoatlashtirish, qishloqda jamoalashtirish, quloqlashtirish yoxud madaniy inqilobni amalga oshirish jarayonida yuz bergan jiddiy xatolar, buzilish va chekinishlardan qattiq aziyat chekkan aholi tabaqalarini hokimiyat organlari ommaviy tarzda quvg'in va ta'qib qilishganligi va turli xil jazolarga tortganligi ham buning asosli isbotidir. Buning oqibatida XX asr boshidan 40-yillarigacha 450 ming vatandoshimizga nisbatan jinoiy ish ochilganligi, ularning hayoti ostin-ustun bo'lib ketganligi faktdir.

Yana 30-yillar voqealariga qaytar ekanmiz, bunda shu narsa kishini benihoya ajablantiradiki, u davrda insonni qoralash, uning peshonasiga xalq dushmani tamg'asini bosish tuzum zolimlari uchun xuddi xamirdan qil sug'urganday gap bo'lgan. Hatto shunday hollarga duch kelindiki, respublikalardagi masalan, Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi Begovul qishlog'ida ilmi, yaxshi fazilatlar bilan elda hurmat qozongan, ayollarni o'qitib, savodli qilgan tabarruk onaxon Bibijon Ismoilova bo'lgan. Bu 80 yoshli inson diniy kitob o'qishda ayblanib, qamoqqa olingan. Momo qiynoqlar oqibatida qamoqda olamdan o'tgan. Holbuki, u kishining uyiga qora quzg'unlar bostirib kirgan paytda Bibijon momo hamisha o'qib yuradigan "Axloqi Muhsinin" (Yaxshi xulqlar) kitobini o'qib o'tirar va bu asar go'zal insoniy fazilatlar ta'rifidan hikoya qilardi. U davrda nohaq ayblanib, mushtipar momo singari fojiali qismatga duchor bo'lganlar ko'plab topilardi. Bunday noxush hollardan sarosimaga tushgan, zada bolgan odamlar avvalgidek kitobxonlik qilish ham tursin, hatto eski kitoblarni qo'lga olishdan hadiksirardilar.

Shunday qilib, mustabid sovet rejimining qatag'onlari respublikamiz hayotining barcha sohalari uchun qonli fojialar, beadam yo'qotishlar, mahrumliklar bilan to'lib-toshgan davr bo'ldi. U millionlab odamlarning taqdir-qismatida asoratli iz qoldirdi va mislsiz xunuk oqibatlarni yuzaga keltirdi. Shunga qaramay xalqimiz o'z bukilmas irodasini, matonatini namoyon etib, yorug' kunlar kelishiga intiqib, kurashib yashadi, u qatliomning har qanday shiddatiga dosh berib, o'z asriy qadriyatlari udumlari, rasm-rusumlari, imon-e'tiqodiga sodiq qola bildi va hamisha milliy istiqlol sari dadil harakatlanishda davom etdi.

5. 20-yillar boshlariga kelib O'zbekiston hududida madaniy qurilishning eng dolzarb vazifalaridan sanalgan sovet ta'lim tizimini shakllantirish ishlari faol boshlab yuborildi. Sovetlar O'zbekistonda yangi ta'lim tizimini yaratishga yo'l tutar ekan, bundan ko'zlagan asosiy maqsadlari o'lkada xalq ta'limi bo'g'inlarini ravnaq toptirish, yalpisiga xalq savodxonligiga erishish, ilm-ma'rifat chashmalaridan hammani to'la bahramand etish emas, balki eng avvalo, yurt farzandlari ongiga, shuuriga kommunistik g'oyalar va ideallarni chuqur singdirish va shu yo'l bilan

o'zlariga quloq qoqmay xizmat qiladigan "mo'min-qobil" avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish edi. Sovetlar avval boshda O'zbekistondagi murakkab vaziyatni, mahalliy xalq kayfiyati va ruhiyatini, uning o'ziga xos milliy an'analari, islomiy qadriyatlarini bir qadar hisobga olib, bu yerda eski va jadid usulidagi maktablar yoki madrasalarning ham bir vaqtning o'zida faoliyat yuritishiga monelik ko'rsatmadi. Buning orqasida bu o'quv dargohlari navqiron avlodga ta'lim berish, ulug' bobokalonlar merosi va sharqona odob, axloq ruhida tarbiyalashda o'z ulushini qo'shib bordi. Lekin sovet arboblari va mafkurachilarining bu vaqtinchalik taktikasi uzoqqa bormadi.

Sovet hukumati mahalliy avom xalq ishonchini qozonish, eng avvalo, kambag'allar, yo'qsillar farzandlarini o'qitish, ularni savodli, bilimli qilish uchun o'zining dasturiy maqsadiga javob beradigan sovetcha ta'limni rivojlantirishga asosiy e'tibor berdi. 20-yillarda O'zbekiston hayotidan muhim o'rin olgan birinchi va ikkinchi bosqich maktablari shunday ta'lim berishga mo'ljallangan bilim dargohlari edi. Masalan, 1921-yilda Turkistonda 165645 o'quvchisi bo'lgan 1-bosqich (boshlang'ich) va 6500 o'quvchisi bo'lgan 58 ta 2-bosqich (o'rta) sovet maktablari faoliyat ko'rsatgandi.

1920-yil 17-sentabrda Turkiston ASSR hukumati o'lkada 8 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan kishilarni o'qitish va savodxon qilish to'g'risida dekret qabul qildi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad mahalliy xalqni tobora sovetlar siyosati va mafkurasi ta'siriga olish, uning yangi tuzumga xayrixohligini kuchaytirish edi. Shularni hisobga olib respublikaning turli hududlarida son-sanoqsiz savodsizlikni tugatish kurslari tashkil etilib faoliyat ko'rsatdi. Ularga turli yoshdagi kishilar, erkaklar va ayollar jalb qilinib, o'z savodlarini chiqardilar. Jumladan, 1928 – 1932-yillarda O'zbekistonda jami 700 ming nafar kishi savodsizlik kurslarini tugatgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1933 – 1937-yillarda 1,4 mln. kishini tashkil qildi.

30-yillarga kelib respublikada malakali o'qituvchi kadrlar tayyorlaydigan ko'plab pedagogika institutlari va O'rta maxsus pedagogik bilim yurtlari tashkil qilindi. Bu esa xalq ta'limi tizimi faoliyatini ancha yaxshilashga turtki berdi. Agar raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 1928/29 -o'quv yilida respublikamizda o'qituvchilar soni 5,5 ming kishiga teng bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1932/33 -o'quv yilida 19 ming kishini, 1941-yilda esa 42 ming kishini tashkil etdi. Garchand bu raqamlar xalq ta'limi tizimida yuz berib borgan muayyan ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatsa-da, biroq bu sohada xuddi shu davrlarda ko'plab jiddiy xato, nuqsonlar, yo'qotishlar sodir etilganligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Sovet hukumati ta'lim tizimini, yangi avlod tarbiyasini to'liq ravishda o'z izmiga bo'ysundirish maqsadida arab alfavitiga asoslangan eski o'zbek yozuvini ham tubdan isloh qilishga kirishdi. Shu maqsadda 1929-yilda arab imlosi asosidagi o'zbek yozuvi tugatilib, undan lotin grafikasiga o'tildi. Bundan ko'p vaqt o'tar-

o'tmasdan, 1940-yilga kelib sovetlarning birdan bir yagona orzusi bo'lgan kirillitsa – rus alfaviti negiziga qurilgan yozuvga o'tildi. Birgina o'zbek yozuvini o'zgartirish borasida qo'llanilgan bunday xatti-harakatlar respublika xalq ta'limining keyingi taqdiri, istiqboli uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqardi. Eng achinarlisi, buning natijasida necha asrlar davomida xalq dahosi, buyuk bobokalonlarimiz aql-zakovati tomonidan yaratilgan bebaho ma'naviy manbalar, asarlar, risolalarni o'rganish mushkul muammoga aylanib qoldi. Negaki, ular arab yozuvida bitilgan edi-da!

Ular tomonidan tayyorlanib nashr etilgan milliy ruhdagi ko'plab o'quv adabiyotlari ham ayni shu yillarda taqiqlab qo'yildi. Yana shuni aytish joizki, shu davrda ommaviy tarzda “sovet ta'limi”ni olib, turli maktab va savodsizlik kurslarini bitirib, zo'rg'a savodini chiqarib endigina hayotga qadam qo'yanlar “ishonchli shaxslar” sifatida topilib, mafkuraviy saralash asosida o'z vazifalaridan chetlatilgan tajribali, bilimdon, professional ziyolilar o'rnini egallab borganlar.

Xullas, sovetlar O'zbekistonda o'z ta'lim siyosatini yuritish ekanlar, bunda birinchi navbatda uning sinfiy mohiyatiga e'tibor berdilar. Binobarin, ular rahnamoligida shakllantirilib, rivojlantirilib borilgan xalq ta'limi tizimi va uning barcha bo'g'in-u yo'nalishlari ham shu ruh va mazmun bilan sug'orilgan edi.

Sovetlarning xalq ta'limi oliy va o'rta maxsus sohasida yuritgan siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri, bu oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini shakllantirish hamda rivojlantirish edi. Har qanday tuzumda bo'lgani singari, sovet hokimiyati ham yangi tuzum g'oyalari va ideallari ruhida tarbiyalangan, unga sadoqat bilan xizmat qiladigan ko'plab yuqori malakali, o'qimishli, ziyoli kadrlarga o'tkir ehtiyoj sezardi. 1920-yil sentabrida Toshkentda tashkil etilgan Turkiston davlat universiteti shu maqsadga yo'naltirilgan edi. Keyinchalik O'rta Osiyo universiteti maqomini olgan bu oliygoh o'lkada oliy ta'limni rivojlantirish, yuqori mutaxassis kadrlar tayyorlash o'chog'i bo'ldi. Biroq bu o'quv dargohi professor-o'qituvchilarining mutloq tarkibi yevropalik millat vakillaridan tashkil topganligidan, undagi o'qitish tizimi birinchi kundanoq faqat rus tilida olib borildi. Bu esa mahalliy millat yoshlari uchun unga kirib talim olishda jiddiy qiyinchiliklar tug'dirardi. Shuning uchun ham universitet talabalari safida ularning salmog'i juda ozchilikni tashkil etardi. Jumladan, 1923/24-o'quv yilida O'rta Osiyo davlat universitetida ta'lim olayotgan 2047 nafar talabadan faqat 51 nafari mahalliy millat yoshlari edi, xolos. 1924/25-o'quv yilida bu universitetda 2440 talaba va ishchilar fakultetida 889 yoshlar ta'lim oldi. Keyinroq 30-yillar boshlariga kelib bu bosh oliy o'quv yurti negizida respublikamizda juda ko'plab turli xil yo'nalishlardagi institutlar tashkil etildi va faoliyat ko'rsata boshladi. O'rta Osiyo politexnika (hozirgi Texnika universiteti), Moliya-iqtisod, Tibbiyot, Qishloq xo'jalik, To'qimachilik institutlari, Samarqand davlat universiteti va boshqalar shular jumlasidandir.

Ayni paytda mahalliy aholi yoshlari orasidan maxsus tanlab olinib, partiya, sovet va xo'jalik organlarida ishlash, sotsialistik qurilish jabhalarida aktiv faoliyat ko'rsatishga da'vat etilgan rahbariy kadrlar tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratildi. Negaki, hukmron partiyaning "oltin fondi" hisoblangan bunday kadrlarni ko'plab tarbiyalab voyaga yetkazish O'zbekiston sovetlar siyosatini to'laqonli o'tkazishda muhim kafolat bo'lib xizmat qilardi-da. Shu maqsadlarni ko'zda tutib 1923-yilda Turkiston kommunistik universiteti ochildi. Unda o'lkaning bo'lg'usi sovet kadrlari "markscha-lenincha" talimot negizlarini qunt bilan egallab bordilar. Shuningdek, bu davrda Turkistonda 2 ta markaziy, 5 ta viloyat va 5 ta uyezd partiya sovet maktablari faoliyat ko'rsatmoqda edi. Ularda o'qiyotgan 1312 nafar tinglovchining 10 foizini xotin-qizlar tashkil etardi.

Moskvadagi Sharq mehnatkashlari kommunistik universitetida esa 1923-yilda 77 nafar turkistonlik yoshlar ta'lim oldi. Ulardan o'zbeklar 24, turkmanlar 24, qozoq-qirg'izlar 29 kishi edi. Shu bilan birlikda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi oldida ham hali ko'plab jiddiy muammolar ko'ndalang bo'lib turardi. Oliy ta'lim tizimidagi o'qish jarayoni asosan rus tilida olib borilardi. Maxsus o'quv qo'llanmalari, darsliklar, boshqa o'quv-uslubiy jihozlar milliylik, yurtning o'ziga xoslik jihatlaridan nihoyatda uzoq bo'lib, ular asosan Markazdan tayyorlab yuborilardi. Mahalliy professor-o'qituvchilar tarkibi nihoyatda kam bo'lganligi bois ko'pchilik fanlar va predmetlarning o'qitilishi asosan yevropalik olimlar tasarrufida edi. Buning ustiga 30-yillarda avjiga mingan stalincha qatag'onlik shamshiri ko'proq milliy kadrlar boshida sindiki, bundan respublika ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari katta ziyon-zahmat chekdi, ancha mahrumliklarga duchor bo'ldi.

Garchand O'zbekistonning sovetlar hukmronligi davri ilm-fani ahvoli, uning o'sishi, o'zgarishi ko'plab murakkab, ziddiyatli jarayonlar silsilasida kechgan bo'lsada, biroq bu hol bir qator o'z xususiyatlari va asosli omillariga egadir. Avvalo, ilm-fanga, ma'rifatga intilish millatimizga xos azaliy ota meros an'anadir. Jahonga tengi yo'q allomalarni bergan xalq har qanday og'ir, mushkul vaziyatlarda ham ilm mash'alini qo'lda mahkam tutib, uni rivojlantirishga intilib kelgan. Binobarin, sovetlar davri, qatag'onlik yillari ham bundan mustasno emas, albatta. Shu bois sovetlarning madaniy qurilishi doirasida bo'lsa ham respublikaning ilmiy salohiyati o'sish va rivojlanishda davom etdi.

1940-yil 9-yanvarda O'zbekiston XKS (hukumati) huzuridagi Fan qo'mitasi negizida SSSR FAning O'zbekiston filiali ta'sis etildi. O'sha kezlarda uning tarkibida 75 ta ilmiy-tadqiqot institutlari va muassasalari mavjud edi. Ular 3024 nafar ilmiy xodimlarni o'z safiga o'zlashtirgandi. Bularning 109 nafari fan doktorlari, 510 nafari fan nomzodlari edilar.

1927-yil 8-mart kuni bolgan ko'plab mitinglarda minglab xotin-qizlar paranjilarini tashlashdi. Bularning orasida kommunistlarning ham xotinlari bor edi. Lekin, ular ertasiga yana paranjini yopinishga majbur qilindi.

Shunga qaramay "Hujum" harakati dastlab ancha sezilarli yutuqlarga erishib bordi. 1927-yil bahoriga kelib 100 ming ayol paranji tashladi. Ming-minglab ayollar korxonalarga, qishloq, tuman kengashlariga, sud tizimiga ishga tortildi. Ular orasidan ko'plab traktorchilar, brigadirlar, kolxoz raislari, klub va kutubxona mudirlari tayyorlandi. Jumladan, 1927 – 1929-yillarda sudlarning xalq maslahatchilari orasida o'zbek ayollari 563 kishiga yetdi. 1926-yilda birgina Toshkent va Farg'ona viloyatlari "Qo'shchi" uyushmalarining 4900 ayol a'zolari bor edi. 1927-yil davomida 7169 ayol kasaba uyushmalariga a'zo bolib kirdi. 5916 ayol matlubot kooperatsiyalariga a'zo boldi, 2343 xotin-qizlar davlat organlariga saylandi.

1927 – 1928-yillarda "Hujum" harakati yanada keng quloch yozdi. Xotin-qizlarni savodsizlikni tugatish kurslariga jalb etish, ularning farzandlari uchun yasli va bog'chalar ochish tadbirlari ko'paydi. Paranji tashlagan ayollar uchun 32 ta savodsizlikni tugatish maktablari tashkil qilindi.

Biroq bu sohadagi ishlar partiya organlari tomonidan bo'rttirib ko'rsatildi. Amalda esa bu jarayon ko'p hollarda joylarda to'xtab qoldi. Bu borada qollanilgan zo'rlash, majburlash yo'li va usullari o'zining salbiy natijalarini bermasdan qolmadi. Natijada hatto 10-15 yashar qizlarni ham erga berib yuborish hollari ro'y berdi.

Joylarda xotin-qizlarni oldirish hollari ko'plab ro'y berdi. 1927 – 1928-yillarda 2,5 mingdan ortiq faol ayollar yovuz kuchlar qurboni boldi.

"Hujum" harakatining o'sib borishi davomida 1937-yilga kelib 273637 nafar o'zbek xotin-qizlari savodsizlikni tugatish kurslarini muvaffaqiyatli bitirdilar. Ayol ishchilar va xizmatchilar soni 1940-yilda 232 ming kishiga yetdi. Bu esa butun respublikadagi ishchilarning 40,7 foiziga teng edi. Ular tikuvchilikda 82,3 qandolatchilikda 65,5 to'qimachilikda 8 foizni tashkil etardi.

Shu bilan birlikda bu mavsumiy harakat ko'pgina salbiy oqibatlarining yuz berishiga ham sabab bo'ldi. Bu jarayonni o'tkazishda yo'l qo'yilgan jiddiy xato va kamchiliklar, xalqning asriy udumlari, o'zbek ayollariga xos sharqona odob, axloq tamoyillarining buzilishi, bu nozik sohada odamlarning or-nomusini mensimaslik hollari real hayotda ko'plab fojiali voqealarni keltirib chiqardi.

Eng achinarlisi shuki, "Hujum" harakatida faol ishtirok etib, unda tashabbuskor bo'lgan, butun borlig'ini, ongli hayoti, faoliyatini sotsializm ishiga, partiyaning yolg'on, soxta g'oyalarining chinligiga ishongan qanchalab ilg'or xotin-qizlar keyinchalik stalincha qatag'onlik qurboni bo'ldilar. Bunga o'zbek xotin-qizlari ozodligi kurashining otashin namoyandalari – Tojixon Shodiyeva, Sobira

Xoldorova, Xosiyat Tillaxonova, Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova singarilarning fojiali va tahlikali kechgan nochor qismatlari to'la misol bo'la oladi.

Odamlar ongiga kommunistik g'oyalarni singdirishdan iborat maqsadga erishishda joylarda "Xudosizlar jamiyatlari" tuzilib, ular orqali diniy e'tiqod va tasavvurlarga qarshi, uning pokdomon peshvolariga qarshi hujumkor ateistik kurash, tashviqot va targ'ibot avj oldirildi. Buning oqibatida yurtning ilg'or ziyolilari bo'lgan qancha-qanchalab ruhoniylar, eshon-u mullalar, ulamo-yu fuzalolar ayovsiz ta'qib-u quvg'inlarga duchor etildi yoxud qirg'in qilindi. Ularning ko'plari jonlarini hovuchlab, oila, bola-chaqasi bilan ne azob-u uqubatlarni boshdan kechirib, uzoq xorijiy yurtlarga bosh olib ketishga majbur bo'ldilar.

O'zbek xalqining ko'plab yurtparvar ziyolilari fidoyilik namunalarini ko'rsatib, barcha qiyinchiliklarga bardosh berib respublikaning madaniy hayotida faol qatnashdilar.

1937-yilda Moskvada o'tkazilgan birinchi o'zbek san'ati va adabiyoti dekadasi xalqimiz madaniyatining yorqin ko'rigi bo'ldi. Unda "Gulsara", "Layli va Majnun" operalari, "Farhod va Shirin" musiqali dramasi va boshqa sahna asarlari katta mahorat bilan namoyish etildi.

30-yillarda O'zbekistonda yangidan kino san'ati shakllanib bordi. Uning yorqin ifodasi sifatida shu davrda yaratilib ekranlarga chiqarilgan "Asal", "Qasam", "Ravot qashqirlari", "Azamat" singari filmlarni tilga olib o'tish joizdir. Bu davrda o'zbek adabiyoti ham jiddiy hayotiy sinovlar jarayonini boshdan kechirdi. O'zining boy tarixiy an'alariga ega bo'lgan bu adabiyot xalq ruhining ko'zgusi sifatida uning ma'naviy hayotini tashkil qilishda, zamon muammolarini idrok etish hamda hal etishda o'z hissasini qo'shib bordi. Sovetlar insonlarning ongi, shuuriga ta'sir etish, ularni ma'nan va ruhan tarbiyalashda adabiyot va san'atning o'rni va ruh beqiyosligini hisobga olib, uni yangi sotsialistik qurilish xizmatiga faol jalb etishga intildilar. Ularning nazarida adabiyot kuchli mafkuraviy qurol sifatida yangi tuzumni mustahkamlashga xizmat qilishi, millionlar ommasini shunga da'vat etmog'i kerak edi. VKP(b) MKning 1925-yil 18-iyunda qabul qilgan "Partiyaning adabiyot sohasidagi siyosati to'g'risida nomli qarorida shu ruh, g'oya aks ettirilgan.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston SSRning tashkil topishi qanday vazifalarni qo'ydi?
2. O'zbekistonda boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi haqida gapirib bering?
3. Respublikada iqtisodiy o'zgarishlar sanoat qurilishi va sanoat korxonalarining faoliyati?
4. O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligini isloh qilishdagi qanday muammolar bor deb o'ylaysiz?

5. Jamoalashtirish siyosati va uning oqibatlarini qanday bo'ldi?

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қаҳрамон Ражабов. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Тошкент. Маънавият. 2002
2. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T.: Sharq. 2000.
3. Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
4. Sagdullayev A.S., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. -T., 2006.
5. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. 1-jild. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
6. Istoriya Uzbekistana. Tashkent: Fan, 2012.
7. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-2-3-kitoblar. Toshkent: Sharq, 2000.
8. Sagdullaev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent, 2000.
9. Leonid Levitin. Uzbekistan on a historical Threshold. England: Cambridge, 2001.
10. Mingnorov A. Turkistonda 1917-1918 yillardagi milliy-siyosiy tashkilotlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2002.

Internet saytlar

16. <http://natlib.uz>-Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
17. <http://yedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
18. <http://lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
19. <http://lib.bimm.uz>- Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
20. <http://ziyonet.uz>- Ta'lim portali ZiyonET
21. <https://tarixinstituti.uz/uzb/>Bo'limlar
22. <http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti
23. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.

IV.AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG‘ULOT: O‘ZBEKISTON IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA (1941-1945 YILLAR). (2 soat)

REJA:

1. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi, umumiy harbiy safarbarlik.
2. O‘zbekiston sanoati va qishloq xo‘jaligi.
3. O‘zbekistonliklarning urush jangohlarida ko‘rsatgan jasoratlari.
4. Urush yillarida fan va madaniyat.

Tayanch iboralar: Ikkinchi jahon urushi, umumiy harbiy safarbarlik, O‘zbekiston SSR sanoati va qishloq xo‘jaligi, O‘zbekistonliklarning urush jangohlarida ko‘rsatgan jasoratlari, Urush yillarida fan va madaniyat, O‘zbekistonga evakuatsiya qilingan aholiga hamda jangchilar oilalariga g‘amxo‘rlik va mehribonlik.

1. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi, umumiy harbiy safarbarlik.

Ikkinchi jahon urushi jahon tarixida misli ko‘rilmagan darajada katta va dahshatli, butun insoniyat boshiga og‘ir kulfatlarni solgan urush bo‘ldi. 1939-yil 1-sentabr kuni fashistlar Germaniyasi qo‘shinlarining Polshaga bostirib kirishi bilan boshlangan bu urush 61 mamlakatni, Yer shari aholisining 80 foizini, ya‘ni 1,7 milliard kishini o‘z girdobiga tortdi. Ikkinchi jahon urushini yirik davlatlar O‘rtasidagi ixtiloflar, agressiv kuchlarning dunyoga hukmron bo‘lish uchun intilishlari keltirib chiqardi. Urushni asosiy agressiv davlatlar-fashistlar Germaniyasi va Italiyasi hamda Yaponiya boshladi. Ular orasida Germaniya uyushtiruvchi, yetakchi rol o‘ynadi. Fashistlar bloki mamlakatlarining hukmron doiralari o‘zlarini “nasibasiz” qoldirilgan deb hisoblardilar. Ular Birinchi jahon urushidagi mag‘lubiyatdan, uning natijalaridan norozi edilar. Ular mavjud xalqaro munosabatlarni o‘zgartirish, dunyoni qurolli kuch bilan qaytadan bo‘lish maqsadida urushga tayyorlandilar.

Ikkinchi jahon urushining 1-davrida 1939-yil 1-sentabrdan 1941-yil 22-iyungacha bo'lgan davrda fashistlar Germaniyasi G'arbiy va Markaziy Yevropada hukmronlikni qo'lga kiritdi. Germaniya va Italiya Yevropadagi 10 davlatni Polsha, Chexoslovakiya, Yugoslaviya, Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburg, Daniya, Norvegiya, Avstriya, Fransiya bosib oldi. Millatlar ligasi harakatdan to'xtadi.

Germaniya G'arbiy Yevropaning harbiy, iqtisodiy resurslarini qo'lga kiritgach, 1941-yil 22-iyun kuni hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomani buzib, urush e'lon qilmasdan SSSRga hujum boshladi. Fashistlarning maqsadi SSSRni bosib olish, boyligini talash, millionlab kishilarni qirish va qolganlarini qul qilish edi. Germaniyaning SSSRga qarshi olib borgan urushi xarakter jihatidan bosqinchilik, adolatsiz urush edi. Germaniya bilan hamkorlikda uning ittifoqchilari - Italiya, Finlyandiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya ham SSSRga qarshi urushga kirdilar.

Sovet hukumati 22-iyun kuni urushning boshlanishi munosabati bilan mamlakat xalqiga murojaatnoma ishlab chiqdi va u o'sha kuni radio orqali e'lon qilindi. Bu murojaatnoma xalqni g'alabaga erishish uchun mustahkam jipslashishga, uyushqoqlik va fidokorlik ko'rsatishga chaqirdi. "Bizning ishimiz haq ish! Dushman tor-mor keltirilajak! Biz g'alaba qilamiz!" deyilgan edi murojaatnomada.

Urushning boshlanganligi to'g'risidagi xabar yetib kelgan kuniyoq O'zbekistonning barcha shaharlari va tumanlarida, korxona va muassasalarida mitinglar va yig'ilishlar bo'lib o'tdi. Ishchilar, xizmatchilar, dehqonlar, ziyolilar, talaba yoshlar o'z Vatanlarini himoya qilishga, yuzma-yuz janglarda bosqinchilarni tor-mor etish uchun urushga borishga, g'alabani ta'minlash uchun front orqasida fidokorona mehnat qilishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

Vaziyat butun mamlakat hayotini urush davri talablariga moslab qayta qurishni, butun kuch va vositalarni safarbar etishni talab qilardi. 23-iyun kuni VKP (b) MQ Siyosiy byurosi partiya va sovet organlarini urush sharoitiga moslab qayta qurish to'g'risida qaror qabul qildi. Partiya va sovet hukumatining harbiy holat to'g'risida, harbiy xizmatga majbur bo'lgan kishilarni qizil armiyaga safarbar etish to'g'risida, qurol-aslaha ishlab chiqarish bo'yicha safarbarlik rejasini joriy etish to'g'risida qarorlari e'lon qilindi.

SSSR Xalq Komissarlari Soveti va VKP(b) MQ 1941-yil 29-iyunda mamlakat hayotini urush talablariga moslab qayta qurish dasturini front yoni viloyatlarining partiya va sovet tashkilotlariga yo'l-yo'riqlarini tasdiqladi va tegishli tashkilotlarga yubordi.

Mamlakatda hokimiyat, iqtisodiyot, siyosiy va harbiy hayotga rahbarlik qilish 1941-yil 30-iyunda Stalin boshchiligida tuzilgan Davlat Mudofaa Qo'mitasi (DMQ) qo'lida to'la ravishda to'plandi. Uning qarorlari, ko'rsatmalarini bajarish hamma tashkilotlar uchun majburiy edi. Harbiy harakatlarni boshqaruvchi Oliy Bosh

Qo'mondonlik qarorgohi tuzildi va Stalin SSSR Qurolli kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni va SSSR Mudofaa xalq komissari qilib tayinlandi. Sovet rahbariyati tomonidan ko'rilgan bu tadbirlarning ijrosi hayotning barcha sohalarini harbiy izga tushirdi, mamlakatni yagona harbiy lagerga aylantirdi.

O'rta Osiyo harbiy okrugi front uchun jangchilar va zobitlar tayyorlaydigan o'choqqa aylantirildi. Bu okrug 1941-yil iyunidan 1942-yil oxirigacha bo'lgan muddatda harbiy safarbarlik asosida 109 ta harbiy qo'shilma tuzdi, harakatdagi armiyaga va Oliy Bosh Qo'mondonlik qarorgohi zaxirasiga 86 diviziya va brigada jo'natdi.

O'zbekiston hukumati va vatanparvar kuchlar milliy harbiy qo'shilmalar tuzish tashabbusi bilan chiqdilar. 1941-yil 13-noyabrdan 1942-yil martigacha bo'lgan davrda 14 ta milliy harbiy qo'shilmalar, jumladan, 9 ta o'qchi brigada, 5 ta otliq askarlar diviziyasi tuzilib frontga jo'natildi. Milliy qo'shilma askarlari va zobitlariga yaxshi harbiy ta'lim berishda, ular bilan frontni mustahkamlashda O'zbekistonda tuzilgan zahiradagi 24-o'qchi diviziya katta rol o'ynadi. Diviziyaning boshliqlari va zobitlari tarkibida 178 o'zbek o'g'loni faol xizmat qildi. Bu diviziya urush yillarida 390 ming kishidan ziyod jangovar kuchlar tayyorladi va frontga jo'natdi.

VKP(b) MQ va Davlat Mudofaa Qo'mitasi topshirig'iga binoan ishlab chiqilgan va 16-avgustda tasdiqlangan 1941-yil 4-kvartali va 1942-yil uchun harbiy xo'jalik ishlar rejasida mamlakatning sharqiy mintaqalarida, jumladan, O'zbekistonda yangi zavodlar, shaxtalar, konlar qurish hamda qurol-aslaha, o'q-dori, ayniqsa ko'plab tank, samolyot, to'p va zambaraklar ishlab chiqarishning keng dasturi belgilab berilgan edi. Dasturda transport ishini qayta qurish, dushman ishg'ol qilishi xavfi ostida qolgan joylardagi sanoat korxonalarini, kolxoz va sov-xozlarning mol-mulklarini, ilmiy muassasalarni sharqqa ko'chirish va ularni joylashtirish, yangidan ishga tushirish tartiblari ham belgilangan edi. Bu tadbirlarni amalga oshirishga 1941-yil 25-avgustda tashkil etilgan U.Yusupov boshliq maxsus respublika hukumat komissiyasi rahbarlik qildi. O'zbekistonning iqtisodiy va mehnat resurslari frontga safarbar etildi. Butun SSSR hududida, jumladan, O'zbekistonda yangi mehnat rejimi joriy qilindi, ya'ni ish kuni uzaytirildi, dam olish kunlari va mehnat ta'tillari bekor qilindi.

O'zbekiston sanoatchilari 1941-yil oxirigacha 300 ga yaqin korxonani jangovar texnika, qurollar, o'q-dori ishlab chiqarishga moslashtirib qayta qurdilar. Bu korxonalarda frontga safarbar etilgan erkaklar o'rnini keksalar, xotin-qizlar egalladilar.

Urush bo'layotgan va dushman yaqinlashib kelayotgan hududlardan muhim sanoat korxonalarini, kolxoz,sovxoz va MTSlarning mulklarini, madaniy boyliklar vao'quv maskanlarini Sharqqa, jumladan, O'zbekistonga zudlik bilan ko'chirib

keltirish, joylashtirish ishlari boshlanib ketdi. Fashistlar tomonidan yondirilgan, vayron qilingan shaharlar va qishloqlarning aholisi, otalari urushning dastlabki kunlarida halok bo'lgan bolalar, million-million kishilar ulkan yurtimizga oqib kela boshladi. Kishilik tarixida ko'lam jihatidan bunday katta voqea birinchi marta sodir bo'ldi. O'zbekistonga 100 ga yaqin sanoat korxonasi, jumladan, 48 ta mashinasozlik, metall shlash, ximiya va boshqa harbiy texnika va mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik zavodlarning asbob-uskunalar ko'chirib keltirildi. O'zbekiston shaharlarida shoshilinch bo'shatib berilgan yoki yangidan qurilgan binolarga ko'chirib keltirilgan asbob-uskunalar zudlik bilan joylashtirildi va montaj qilindi. Ular ishchi kuchi, xom ashyo, instrumentlar bilan ta'minlandi va front uchun mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Aholi tomonidan issiq kiyimlar to'plash va tayyorlash keng avj oldi. Respublika aholisi urushning dastlabki olti oyi mobaynida frontga 421,5 mingta turli issiq kiyimlar yubordi. Jangchilar uchun to'plangan buyumlar, oziq-ovqatlarni O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi Y. Oxunboboyev (1885 – 1943) rahbarligidagi delegatsiya frontning oldingi marralariga yetkazib berdi.

Urushning dastlabki kunlaridan boshlab butun mamlakatda bo'lgani kabi O'zbekistonda xam oziq-ovqat va sanoat mollari kamayib ketdi. Aholining ahvoli keskin yomonlashdi. Shahar aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash "chiptalar" bo'yicha amalga oshirila boshlandi. Ishchilar va xizmatchilar kuniga faqat 400-500 gr. past navli non olardi, qaramog'idagilar esa yuqoridagi mikdordan 1,5 barobar kamroq olishardi, mehnatkashlari mehnat kunlariga oladigan natura (mahsulot bilan) to'lovi va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari hisobiga oziq-ovqat bilan ta'minlanishlari lozim edi. Lekin bu mahsulotlar juda cheklangan miqdorda edi. 4 yil urush mobaynida kolxozlar dehqonlarga amalda pul to'lamaganlar va mehnat kunlariga nihoyatla kam miqdorda mahsulot berganlar. Urush tufayli qiyin va og'ir sharoitda qolganiga qaramasdan ko'chirib keltirilganlarga, yarador va nogironlarga, frontga ketganlarning xotinlari va bolalariga ko'rsatgan g'amxo'rliги o'zbek xalqining birlik va qardoshlarcha do'stlikka insonparvarlik bilan intilishining yorqin timsoli, ulkan axloqiy kuch-qudrati va haqiqiy samimiy olijanobligining chin ma'nodagi isboti bo'ldi.

O'zbekiston urush yillarida Rossiyaning bosib olingan rayonlaridan – Ukrainadan, Belorussiyadan hammasi bo'lib bir milliondan ortiq kishini qabul qildi. Ulardan 200 ming nafari bolalar edi. Aholi ularga turar joy berib, o'zi siqilib yashadi, ko'chib kelganlarni to'ydirish uchun oxirgi bo'lak nonini ham bo'lib berdi, ularga poyabzal, kiyim-bosh to'pladi. Ularga 135 ming kv. metr turar joy maydoni ajratib berildi. Ko'chirib keltirilganlarni ishga joylashtirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi. Faqat Toshkent shahrining o'zida 1941 – 1942-yillarda qariyb 240 ming kishi joylashtirildi va ish bilan ta'minlandi.

Ko'chirib keltirilgan bolalarni qabul qilishni tartibli yo'sinda tashkil etish maqsadida respublika hukumatining qarori bilan 1941-yil oktyabrda evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilish uchun markaziy punkt tashkil etilib, joylashtirish bo'yicha respublika, viloyat, shahar va tuman komissiyalari tuzildi. Faqat 1941- yil 25-noyabrdan 1942-yil oktyabrga qadar respublikaning evakuatsiya punktlari orqali 15649 nafar bola o'tdi. Ko'pgina oilalar ikki va undan ortiq etim bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. Toshkentlik Shomahmudovlar turli millat farzandlaridan 14 bolani o'z oilalariga tarbiyaga oldilar. Kattaqo'rg'onlik Hamid Samadov oilasi 12 bolani asrab oldi. F. Qosimova 10, M. Jo'rayeva va Ashurxo'jayevalar 8 bolani o'z oilalariga oldilar. 1943-yilning oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa 870 bola o'zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olingan edi. Urush arafasida respublikada 106 ta bolalar uyida 12 ming bola tarbiyalanayotgan bo'lsa, 1945-yilga kelib, ularning soni O'zbekiston viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda 263 ta bolalar uyida 31300 bolaga yetdi. 1943-yilda bolalar bog'chalarida tarbiyalanayotgan 53072 boladan 15108 nafari evakuatsiya qilingan bolalar edi. Yuqoridagi aniq dalillar xalqimizning boshqa millatlarga bo'lgan mehr-muhabbatini, bag'rikenglik fazilatlarini aks ettiradi.

O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti qoshida bolalarga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus komissiya tuzildi, uning ishida 30 ta xotin-qizlar faoliyat ko'rsatdi.

O'qituvchilar kechayu-kunduz navbatchilik qildilar. Militsiya bo'limlari qoshida 30 dan ortiq bolalar xonalari tashkil etildi.

Ko'chirib keltirilgan bolalar turlicha yoshda edilar. 15 yoshgacha bo'lgan bolalar-bolalar uylari, maktab-internatlarga joylashtirilib, ularda o'quv-tarbiya ishlari yo'lga qo'yildi. Fabrika-zavod ta'limi maktablari, hunar va temir yo'l bilim yurtlarining sobiq talabalari o'qishni davom ettirishi uchun respublika zavod-fabrika ta'limi maktablarida o'qishga jalb etildi. 15 yoshdan katta bo'lgan bolalar esa ishlab chiqarishga ishga joylashtirildi.

1942-yil 2-yanvarda Toshkent shahrida xotin-qizlarning yig'ilishi bo'lib, unda respublikamizdagi barcha ayollarga qarata murojaat qabul qilindi. Murojaatda yetim bolalarni o'z tarbiyasiga olishga da'vat etiladi. Ko'plab oilalar boqimsiz qolgan bolalarni o'zlariga farzandlikka oldilar, topgan-tutganlarini ular bilan baham ko'rdilar. O'zbekiston rahbarlaridan Usmon Yusupov va Yo'ldosh Oxunboboyevlar oilasi ham yetim bolalarni o'z tarbiyasiga oldilar.

Ularni qabul qilib olish, gospitalga joylashtirish, salomatligini tiklash ishlariga alohida mehribonlik qilindi, respublikamiz sog'lomlashtirish markazlaridan biriga aylandi. 1941-yil 1-oktabrgacha O'zbekiston sog'liqni saqlash xalq komissarligi tizimida 14950 o'ringa ega bo'lgan 47 gospital barpo etildi va zarur uskunalar bilan jihozlandi. Ayni paytda Moskvadan, Kalinin, Rostov va

boshqa viloyatlardan 15900 o'rin-krovatga ega bo'lgan 48 hospital ko'chirib keltirilib, joylashtirildi va ishga tushirildi. Harbiy kasalxonalar qurish keyingi yillarda ham davom etdi. Urush yillarida O'zbekistonga frontda yarador bo'lgan jangchilar ko'plab keltirildi. Urush yillarida bu hospitallarga 164382 yarador keltirilgan bo'lib, ulardan 87 foizi davolanib chiqdi. Davolanayotgan jangchilarning to'laqonli ovqatlanishini tashkil qilish uchun 750 dan ortiq korxona, tashkilot, kolxoz va sovxozlar hospitallarni otaliqqa oldi va butun o'zbek xalqi yaradorlarga g'amxo'rlik qildi.

Ishchilar, kolxozchilar va ziyolilar shaxsiy jamg'armalarini, qimmatbaho buyumlarini mudofaa fondlariga topshirdilar. Faqat 1941-yilning ikkinchi yarmida O'zbekiston kolxoz va sovxozlari front uchun 59 ming ot va ularga kerakli yem-xashak to'plab berdilar. Mashhur o'zbek raqqosasi Tamaraxonim mudofaa fondiga 50 ming so'm topshirdi. Bu jamg'arma hisobiga respublikamizda tank kolon-nalari, aviatsiya eskadrilyalari, bronepoyezdlar qurilib frontga jo'natildi. O'zbekistonliklar jangchilarga eshelonlab issiq kiyimlar, mevalar jo'natib turdilar. Davlat harbiy zayomlariga yozilish yo'li bilan anchagina mablag'lar to'plandi. Aholidan issiq kiyimlar tayyorlash uchun jun, qo'y terilari yig'ib olindi. Aholiga davlat zayomi, pul-buyum lotoreyasi sotish hisobiga 4,2 milliard so'm mablag' yig'ilib g'alaba manfaatlari yo'lida foydalanildi.

2. O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi.

Yashin tezligida urush olib borish rejasiga ega bo'lgan nemis-fashist qo'shinlari shiddat bilan Sharqqa qarab xarakat qilar edi. Front yaqinidagi shahar va qishloqlardan yuz minglab aholi, sanoat korxonalari, o'quv yurtlari, ilmiy tashkilotlar va boshqa moddiy boyliklarni mamlakat ichkarisiga - Sharqqa ko'chirish boshlandi. O'rta Osiyo respublikalariga evakuatsiya qilingan 308 korxonaning 104 tasi (Leningrad to'qimachilik mashinalari zavodi, "Qizil Oqsoy", "Rossel'mash", Sumsk kompressor va Dnepropetrovsk karborund zavodlari, Moskvadagi "Elektrokabel'" va "Pod'yomnik" zavodlari, Temir yo'llar xalq komissarligining mashinasozlik zavodi, Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, "Krasniy put" zavodi, Kiyevdagi "Transsignal" zavodi, Stalingrad kimyo kombinati va boshqalar) O'zbekistonga; ulardan 55 ta korxona Toshkent va Toshkent viloyatiga, 14 ta zavod va fabrika Samarqandga, 22 tasi Farg'ona vodiysiga, ikkitasi Buxoro viloyatiga joylashtirildi. Bu korxonalarni joylashtirish, montaj qilish va g'oyat qisqa muddatlarda ishga tushirish vazifasini tashkiliy jihatdan ta'minlash ishi bilan maxsus komissiya shug'ullandi.

Evakuatsiya qilingan zavod va fabrikalarni tiklashda talabalar, o'quvchi, uy bekalari, fan va madaniyat xodimlari, xizmatchilar va kolxozchilar katta kuch-g'ayrat bilan tinim bilmay mehnat qildilar va qisqa kunlarda, ya'ni "Rossel'mash" 25 kunda, "Qizil Oqsoy" zavodi bu yerga yetib kelganidan keyin oradan 29 kun

o'tganda ishga tushirilib, mahsulot bera boshladi. 1941 yil dekabrga kelib evakuatsiya qilingan korxonalarning qariyb 50 tasi ishga tushirildi. 1942 yil birinchi yarmida esa barcha keltirilgan sanoat korxonalari mahsulot chiqara boshladi.

Sanoat korxonalari qisqa vaqt ichida harbiy izga solinib, minomyot va avtomatlar, samolyot va tanklar uchun ehtiyot qismlari va boshqa harbiy qurollar ishlab chiqara boshladilar. Qishloq xo'jalik mashinalari ishlab chiqarayotgan Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi harbiy qurollar ishlab chiqara boshladi. Andijondagi "Kommunar", "Stroy mashina" zavodlarida samolyot va tanklarga kerakli mahsulotlar, Qo'qon shahridagi Oxunboboyev nomli tikuvchilik fabrikasi harbiy kiyimlar ishlab chiqaradigan bo'ldi. Toshkentlik sanoatchilar harbiy mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda fidokorona mehnat qildilar. 1941-yil dekabrigacha shahardagi 137 sanoat korxonalarining 64 tasi qurol-yarog'lar, front uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga kirishdi.

Toshkentda zudlik bilan joylashtirilgan "Rostselmash" zavodi "Katyusha" va minomyot snaryadlari, aviatsiya zavodi jangovar samolyotlar, Kolchuginskdan keltirilgan kabel zavodi harbiy aloqa mahsulotlari yetkazib bera boshladi.

Yuk ko'taruvchi kranlar yo'q edi, maxsus asbob-uskunalar, elektr quvvatlari, ko'mir va neft kabi yoqilg'ilar, xomashyo va boshqa materiallar yetishmas edi. 1941-yil 5 – 7-dekabr kunlari bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining V plenumida respublika sanoatini harbiy izga solish, ko'chirib keltirilgan asbob-uskunalarni joylashtirish sohasidagi ishlarga yakun yasaliib, korxonalarda qurol-yarog'larning muhim turlari - samolyotlar, tanklar, bronepoyezdlar, aviabombalar, to'p va zambaraklar, granatalar, minalar, snaryadlar ishlab chiqarishni keng miqyosda yo'lga qo'yish vazifasi ilgari surildi. Buning uchun yetarli darajada metall qirquvchi stanoklar va aniq o'lchovchi instrumentlar ishlab chiqishni tashkil etish, nodir metallar qazib olishni kuchaytirish hamda qora va rangli metallurgiya sanoatini yaratish, elektr energetika bazasini kengaytirish, neft qazib olishni 2-3 barobar oshirish, ko'mir qazib olishni kuchaytirish, yirik qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, qisqa muddatda 30 ming malakali ishchilar tayyorlash tadbirlari belgilandi.

Harbiy izga tushirilgan respublikamiz korxonalari ham anchagina kengaytirildi. "Tashselmash" zavodi, masalan, boshqa korxonalardan keltirilgan 438 stanok, 200 dan ortiq yuqori malakali ishchilar hisobiga kengaydi. Qodirov, Hakimov, Yusupov, Ismoilov va boshqa ustalar kunlik normalarini 200-300 foizga oshirib bajardilar. "Tashselmash" zavodi 1941-yilgi ish rejasini 240 foizga ado etdilar.

Elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida 7 ta yirik va 30 ga yaqin kichik GESlar qurildi. 1943-yilda O'zbekistonning eng yirik gidroelektrostansiyasi - Farhod GESi qurilishi boshlandi, qurilish zarur materiallar

va ishchi kuchi bilan ta'minlandi. Farhod qurilishi umumxalq qurilishiga aylandi, binokorlik ishlari hashar yo'li bilan bajarildi. 10 oylik fidokorona mehnat natijasida Sirdaryo jilovlandi. Salar, Quyi Bo'zsuv, Tovoqsoy, Oqqovoq, Oqtepa, Qibray GESlari ham muddatidan oldin qurilib ishga tushirildi. Bu respublikada elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko'paytirdi. Elektr energiyasi 1940-yilga qaraganda 1943-yilda 3,5 barobarga oshdi, 1945-yilda esa 1187 million kilovatt soatga ko'paydi.

Yoqilg'i sanoatini rivojlantirishga ham katta kuch va mablag'lar sarflandi. 1940-yil oxirlarida Ohangaron daryosi oqimidagi Qurama tog' tizmasida dastlabki ko'mir qazib oladigan shaxta qurilgan edi. Urush davrida "Angrenugol" ko'mir konida yana uchta shaxta va ochiq usulda ko'mir qazib olinadigan kar'yer bunyod etildi. O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasida Qizilqiya ko'mir koni foydalanishga tushirildi, o'ta issiqlik quvvatiga ega bo'lgan qo'ng'ir ko'mir qazib olindi. O'zbekiston ko'mir sanoati xodimlariga 1942-yilda respublikamizga kelishgan Donbass shaxtyorlari ko'maklashdilar. Respublikada ko'mir, neft konlaridagi ish sur'atlarini ko'paytirish, yangi konlarni ochish borasida ham samarali ishlar olib borildi. Natijada 1945-yilga kelganda 1940-yildagiga nisbatan 30 marta ko'proq, ya'ni 103 million tonna ko'mir qazib olindi. Urush yillarida respublikada "Chuqurlangar", "Tolmozor", "Naymon", "Shahrixon-Xo'jaobod", "Janubiy Olamushuk" va boshqa yangi neft konlari ishga tushirilishi bilan birga Farg'ona vodiysida ishlab turgan "Andijon", "Polvontosh", "Changartosh", "Chimyon" neft konlarida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish tadbirlari natijasida respublikada neft ishlab chiqarish 4 marta ko'paydi.

O'zbekiston Xalq Komissarlar Sovett 1942-yil 17-iyunda Bekobodda metallurgiya zavodi qurishga qaror qabul qildi. Ittifoq hukumati zarur materiallar, mablag' bilan ko'maklashdi. Rossiya va Qozog'iston sanoat korxonalaridan ko'plab asbob-uskunalar keltirildi. Metallurgiya zavodini qurish butun respublika mehnatchilarining ishiga aylandi. Sanoat korxonalari zarur miqdorda mutaxassislar ajratishdi, kolxoz-sovхозlar ishchi kuchi bilan ta'minlandi. Zavod qurilishida 30 mingdan ko'proq kishilar ishtirok etdilar. Belorelsk, Dobryanka, Gur'yev, Makeevka zavodlaridan po'lat erituvchi mutaxassislar keldilar. Yuzlab O'zbekistonlik yigit-qizlar Ural va Sibirning sanoat korxonalarida marten va prokat ishlarini o'rganib keldilar. 1944-yil 5-martda O'zbekistonning birinchi metallurgiya zavodi ishga tushirildi. 1945-yil fevralda Bekobod metallurgiya zavodining ikkinchi navbati ham mahsulot bera boshladi.

Kimyo sanoati rivojlandi. 1944-yil yanvaridayoq Gorkiy va Stalinogorsk kimyo kombinatlaridan ko'chirib keltirilgan uskunalar asosida qurilgan Chirchiq elektro-kimyo kombinatining ikkinchi navbati muhim kimyo mahsuloti-ammiak ishlab chiqara boshladi. 1943-yilda Quvasoy kimyo zavodi, Qo'qon superfosfat

zavodi, Farg'ona gidroliz zavodi qurilib ishga tushirildi. Kimyo sanoati mahsulotlari salmog'i 1940-yilga nisbatan 1945-yilda 6,1 baravarga ko'paydi.

Aloqa xodimlari O'zbekistonning Markaz bilan, respublika rahbariyatining viloyat, shahar, tumanlar, yuzlab sanoat korxonalari bilan telefon aloqasini yo'lga qo'ydilar. Toshkent-Samarqand-Ashxobod, Toshkent-Samarqand-Boku, Toshkent-Samarqand-Rasnovodsk telefon liniyasi, ikkita Toshkent-Samarqand-Buxoro telefon aloqa yo'llari qurildi. 1943-yilda qurib ishga tushirilgan 500 kilometrlik telefon yo'li Toshkentni Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston bilan bog'ladi. Yirik korxonalarning o'zlarida ham 50-100 o'rinli telefon stansiyalari qurildi. Natijada xo'jaliklarga rahbarlik qilish, ularga o'z vaqtida ko'maklashish ishlari yaxshilandi.

Pochta bo'limlarida ish hajmlari oshib bordi. Agar 1941-yilda o'rta hisobda bitta pochta xodimi tomonidan 50 ming xat-xabarlar jo'natilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1942-yilda 74,5 mingga, 1943-yilda - 77,5 mingga yetdi. Pochta xodimlari frontdagi jangchilar bilan ularning ota-onalari, rafiqalari, qarindoshlari o'rtasida aloqa bog'lovchi ko'priklarni bajardilar.

Urush yillarida qurilish materiallari sanoati, to'qimachilik va poyabzal sanoati, oziq-ovqat sanoati, mahalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Faqat 1943-yilda 12 ta yog' zavodi, 3 ta paxta tozalash zavodi, 4 ta qand va 4 ta konserva zavodlari qurilib ishga tushirildi. Toshkent temir yo'l transportchilari ko'chirib keltirilayotgan korxonalarning asbob-uskunalarini va millionlab kishilarni G'arbdan Sharqqa, jangovar texnika va qurol-yarog'larni Sharqdan G'arbga o'z vaqtida to'xtovsiz o'tkazib turish topshirig'ini bajardilar. Faqat 1941 – 1942-yillarda O'zbekiston temir yo'lchilari 2700 sostavdagi passajir poyezdlarini, ko'chirilgan korxonalarning asbob-uskunalari ortilgan. Qishloq xo'jaligining barcha bo'g'inlarida qat'iy ish tartibi belgilandi. Eng kam miqdordagi majburiy mehnat kunlari 1,5 baravarga oshirildi, o'smirlar uchun ham 12 yoshdan boshlab mehnat kunlari belgilandi. Belgilangan miqdordagi mehnat kunlarini bajarish majburiy qilib qo'yildi.

Sanoatning yangi yo'nalishlarining paydo bo'lishi, zavod va fabrika tarmoqlarining kengayishi kadrlarga bo'lgan talabni ham oshirdi. Shuningdek, ko'p minglab tajribali ishchilarning frontga ketishi ham zavod va fabrikalarda ishchilar sonining qisqarishiga olib keldi. Natijada kasbga ega bo'lmagan kishilarni ham ishga jalb qilib, ishlab chiqarish jarayonida kasb o'rgatila boshlandi. Ayniqsa, 1942-yil 13-fevraldagi O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni bilan ishlamayotgan mehnatga layoqatli ayollar, o'smir yoshlar, nafaqaxo'rlar hisobiga ishchilar safi to'ldirildi. 1942-yilga kelib respublika sanoat korxonalarida ishlayotgan xotin-qizlar 63,5%ni tashkil qilgan. Respublika ishchilar sinfining o'sishida salmoqli o'rin tutgan yoshlarni kasbga o'rgatish uchun 1942-yil oxirida 31 ta FZO (fabrika-zavod ta'limi) maktabi ochildi. Umuman 15 ta hunar maktabi va 45 ta FZO maktablari

yoshlarga kasb maqoratlarini o'rgatdi. Ayniqsa, qisqa kurslarda ishchilarni ommaviy tayyorlash, yakka tartibda va brigada usullarida shogirdlarni tayyorlash bu davrda keng yoyildi. Natijada urushning ikki yili davomida O'zbekistonda 305673 nafar ommaviy kasbdagi sanoat ishchilari tayyorlangan bo'lib, shundan 73 ming nafari bevosita ishlab chiqarish jarayonida hunar egalladi. Ishchilar sinfining umumiy soni urush oxirlariga kelib 196,2 ming kishiga yetdiki, bu urush boshlangandagi sonidan 54,6 mingga ko'pdir. Ochlik, charchoq, toliqish, qiyin sharoitlarga qaramasdan ilg'or ishchilar kunlik normalarini 300-400, hatto 500 foizga qadar bajargan vaqtlari ham bo'lardi. Bular Qirg'izboev, Hamroyev, Yusupov, Nishonov kabi "Yangi turmush" artelining ishchilarini sanab o'tish mumkin.

Urush yillarida respublika dehqonchiligining strukturasi keskin o'zgardi. Paxtachilikni asosiy tarmoq sifatida saqlab qolgan holda don, qand lavlagi, kanop, pilla, sabzavot, poliz mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish tadbirlari ko'rildi. Birinchi navbatda ekin ekiladigan maydonlarni kengaytirish, irrigatsiya quvvatlarini oshirish ishlari yuksak sufatlar bilan olib borildi.

Urush yillarida mehnatkashlar chorvachilik, jun, qorako'l, teri yetishtirish, pillachilik jabhalarida ham fidokorona mehnat qildilar. Go'sht, yog', sut, kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlari, meva tayyorlashda ko'rsatilgan g'ayrat-shijoat tufayli mustahkam oziq-ovqat bazasi yaratildi.

Urush yillarida ham paxtachilik qishloq xo'jaligining muhim sohasi bo'lib qoldi. Paxtakorlar jonbozlik bilan ishlaganlariga qaramay, 1942 – 1943-yillarda paxta tayyorlash rejasi bajarilmay qoldi. Davlatga 1 ming tonna paxta kam topshirildi. Bunga bir qator ob'ektiv holatlar sabab bo'ldi: paxta ekiladigan maydonlar 1941 – 1943-yillarda 927650 gektardan 625343 gektarga kamaydi; mexanizatsiya vositalari yetishmasdi; mineral o'g'itlar, yoqilg'i kamaygan edi; yerni haydash, chopiq, sug'orish, irrigatsiya tarmoqlarini tozalash ishlarini o'z vaqtida muntazam olib borish uchun ishchi kuchi yetishmasligidan paxta yetishtirish agrotexnikasi yomonlashgan edi.

O'zbekiston Kompartiyasi MQning 1944-yil aprel oyida bo'lgan X plenumi mazkur qarorni bajarishga doir tadbirlarni ishlab chiqdi. Kolxozlar tashkiliy-xo'jalik jihatdan mustahkamlandi, brigada va zvenolar qayta tiklandi. Donli ekin yetishtirishga o'tib olgan xo'jaliklarning anchagina qismi paxtachilikka qaytarildi. Kolxozchilar uchun eng kam miqdordagi majburiy mehnat kunlari soni yana oshirildi. Ittifoq hukumati O'zbekiston paxtakorlari uchun 2300 yangi traktor, 300 yuk avtomobili, 375 ming tonna mineral o'g'it va boshqa qishloq xo'jalik uskunalari ajratdi. 1944-yilgi paxta tayyorlash rejasi bajarildi, davlatga 1943-yilga nisbatan 325 ming tonna ko'p paxta topshirildi, 1945-yilda ham paxta tayyorlash rejasi bajarildi.

Urush yillarida ishchilar bilan dehqonlar o'rtasidagi jipslik, o'zaro yordam

yanada kuchaydi. Sanoat korxonalari kolxozlarni otaliqqa olib, ularga qishloq xo'jalik texnikalari, ehtiyot qismlar bilan yordamlashdilar. Shaharliklar qishloq xo'jalik mahsulotlarini yig'ishtirib olishda faol qatnashdilar. Kolxozchi dehqonlar esa sanoat sohasidagi umumxalq qurilishlarida faol ishtirok etdilar. Masalan, Farhod GESi qurilishining o'zidagina 70 mingga yaqin kolxozchi qatnashdi. O'zbekiston ishchilari va dehqonlari jipslashib, fidokorona ishlab, fashistlar ustidan qozonilgan g'alabaga salmoqli hissa qo'shdilar.

Qishloq aholisining turmushi yanada og'irlashdi. Oziq-ovqat va sanoat mollarini me'yorlangan tarzda taqsimlash qishloq aholisiga joriy etilmadi. Ular ishlagan mehnat kunlari uchun deyarli haq ololmasdi. Ularga oziq-ovqat mollari matbuot kooperatsiyasi do'konlarida davlatga topshirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari miqdoriga qarab qat'iy me'yorlangan miqdorda berilardi.

Aholini oziq-ovqatlar bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida sanoat korxonalari qoshida yordamchi xo'jaliklar tashkil etishga ruxsat berildi. Ularga vaqtincha foydalanish uchun 53 ming gektar yer ajratildi. Ishchi va xizmatchilar tomonidan yakka tartibda polizchilik ishlari bilan shug'ullanish keng tarqaldi.

Oziq-ovqat tanqisligi sharoitida pul tobora qadrsizlanib bordi, chayqovchilik avj oldi. Muhtojliklarga qaramay sanoat va qishloq xo'jalik xodimlari g'alaba uchun, frontga ketgan farzandlari va yerlari uchun fidokorona mehnat qildilar. Qiyinchiliklarga qaramay frontga ketgan jangchilarning oilalariga har tomonlama g'amxo'rlik qilindi, bolalari yasli va bog'chalarga joylashtirildi. Kolxoz va sovxozlar jangchilarning oilalariga oziq-ovqat, ekin ekish uchun yer ajratib berardi.

Sovet davlati hali urush davom etayotgan qiyin paytlardayoq dushmandan ozod etilgan shahar va qishloqlarni, zavod, fabrika va boshqa xo'jaliklarni qayta tiklashga kirishdi. Ozod etilgan hududlardagi xo'jalikni tiklash ishlarida Sharqdagi barcha respublikalar, viloyatlar, shu jumladan, O'zbekiston ham faol qatnashdi. Tiklash ishlari umumxalq ishiga aylandi. Urushda zarar ko'rgan viloyat, shahar va tumanlarga yordamlashish bilan bog'liq bo'lgan masalalar respublika hukumati, viloyat, shahar va tuman tashkilotlari va keng jamoatchilik orasida muntazam ravishda muhokama qilinib, zarur tadbirlar amalga oshirib borildi. O'zbekiston temir yo'lchilari ozod etilgan joylardagi temir yo'llarni tiklashga katta yordam berdilar. Toshkent tovar stansiyasi temir yo'lchilari 35 ko'targich asboblarni komplekti, 350 dona slesarlik asboblari, 2 mingdan ortiq ehtiyot qismlarini to'plab G'arbdagi stansiyalarning birini tiklash uchun jo'natdi. 1943 yil 30 martda Toshkent temir yo'lchilari asbob-uskunalar orilgan butun bir eshelonni Stalingrad temir yo'l tarmog'ini tiklash uchun yubordi. Uning tarkibida ko'chib yuradigan maxsus ustaxona, ikkita parovoz, jihozlangan 33 ta vagon va platforma, dori-darmonlar va ishchi kiyimlari bor edi.

Ozod etilgan hududlar aholisiga qardoshlarcha yordam, respublikaning o'zida

moliyaviy resurslar, asbob-uskuna va materiallar, malakali kadrlar, iste'mol mollari yetishmay turgan og'ir bir sharoitda berildi. Urush yillarida O'zbekiston aholisining turmush saviyasi keskin pasayib ketganiga, xo'jalik harbiy izda ishlayotganiga qaramasdan qardosh xalqlarga ko'rsatgan baynalmilallik yordami o'zbek xalqining buyuk insoniylik fazilatlariga sodiq ekanligining guvohidir.

Urushning dastlabki yilidayoq Volgabo'yi nemislar avtonom respublikasi tugatildi. Uning 300 mingdan ortiqroq aholisidan "bosqinchilar yordam olishi mumkin", degan gumon bilan ularni yashab turgan joylaridan mahrum etib, Sibir va Qozog'iston viloyatlariga ko'chirib yuborildi. "Bu xalqlar fashistlar bilan hamkorlik qilishda" ayblandi, hech kimdan hech narsa so'rab surishtirilmadi, har bir odamning qanchalik aybdorligi, gunohkorligi aniqlanmadi, hamma ommaviy ravishda qattiq jazolandi. Ko'chirish yashirin holatda va shoshilinch ravishda amalga oshirildi. Bu katta kulfatlarga, ko'pchilik odamlar, bolalarning yo'lda qirilib ketishiga olib keldi. Bu xalqlar adolatsiz jazolanayotgan bir paytda, ularning farzandlari, yoru-birodarlari fashistlarga qarshi jang qilmoqda edilar. Ular yurtdoshlari boshiga tushgan kulfatdan bexabar edilar. Ko'chirilganlar Sibir va O'rta Osiyoning aholisi kamroq bo'lgan tumanlariga guruh-guruh qilib taqsimlandi.

O'zbekistonga 175 mingdan ortiqroq chechenlar, 157 ming ingushlar, 150 mingdan ortiqroq qrim tatarlari, 4500 bolqarlar, o'n minglab mesxeti turklari, greklar ko'chirib keltirildi. O'zbek xalqi ularni beg'araz kutib oldi, yashash uchun uy-joy, oziq-ovqatlar bilan yordam berdi. Mahalliy hokimiyat ularga hosildor yerlardan tomorqa yer, uy qurish va xo'jalik yuritish uchun kredit mablag'lari ajratdi. Ko'chirib keltirilganlar ancha mashaqqatlar bilan yangi joylarga asta-sekin moslashib bordilar.

Stalin boshliq Markaziy hokimiyat amalga oshirgan milliy siyosatning zarari, adolatsizligi odamlarning qattiq qatag'on qilinishi bilan chegaralanib qolmadi. Uning mudhish ekanligi yana shundaki, ko'plab xalqlarning milliy davlatchiligi buzildi, respublikalar va muxtor viloyatlarning haq-huquqlari poymol qilindi. Eng dahshatlisi shundaki, butun-butun xalqlarning milliy madaniyati, qadriyatlari va an'analari oyoqosti qilindi. Bunday "milliy siyosat" Markaz tomonidan butun vositalar bilan tashviqot qilinayotgan Sovet Ittifoqidagi xalqlar o'rtasida buzilmas do'stlik to'g'risidagi g'oyaga soya, qora dog' bo'lib tushdi. Bunday zo'ravonlikning zararli oqibatlari hanuzgacha to'la bartaraf etilganicha yo'q. Vaqti-vaqti bilan millatlar o'rtasidagi nizolar, fojealar chiqishga sabab bo'lib kelmoqda.

3. O'zbekistonliklarning urush jangohlarida ko'rsatgan jasoratlari.

Urushning dastlabki kunlaridayoq g'arbiy chegaralardagi harbiy qo'shilmalar tarkibida xizmat qilayotgan o'zbekistonliklar fashist bosqinchilariga qarshi jangga kirdilar. Chegarada joylashgan Brest qal'asining 50 dan ortiqroq millatga mansub jangchilari orasida o'zbekistonliklardan Doniyor Abdullayev, Boboxalil Kashanov,

Ahmad Aliyev, Nurum Siddiqov, Uzoq O'tayev va boshqalar ham bor edi. Ular qal'a himoyachilari bilan yelkama-yelka turib dushmanning katta kuchlariga qarshi qariyb bir oy davomida oxirgi tomchi qonlari qolguncha jang qildilar. "o'layotgan bo'lsam ham taslim bo'lmayman. Alvido, Vatanim!". Qal'a devoriga qon bilan yozilgan bu so'zlarda yurtdoshlarimizning his-hayajonlari, jasorati, Vatanga muhabbati o'zining yorqin ifodasini topgan.

G'arbiy chegaralardagi dastlabki janglarda toshkentlik Zokir Karimov jasorat ko'rsatdi. U Qrim va Kavkazda ham dushman bilan olishdi, mardlik va jasorati uchun I va II darajali "Shuhrat" va boshqa ordenlar hamda "Jasorati uchun" medali bilan taqdirlandi.

O'zbekistonlik jangchilar Smolensk, Kiyev, Odessa, Sevastopol va boshqa shaharlar mudofaasida qatnashdilar. Odessa himoyasida qatnashgan Omon Umarov dushmanning qurol-aslaha ortilgan 40 avtomobildan iborat kolonnasiga qarshi hujumda jasorat ko'rsatdi, bir o'zi dushmanning 3 avtomashinasini safdan chiqardi va 9 nemis askarini yer tishlatdi. Omon Umarovning kichik harbiy bo'limi Odessa yonida qurilgan dushman aerodromiga hujum qilib dushmanning 16 samolyoti va 30 avtomashinasini yondirib yubordi. Uning bir o'zi 12 fashistni yo'q qildi. Afsuski, Kerch uchun bo'lgan janglarda u halok bo'ldi. Odessa himoyasida sapyorlar rotasining komandiri Hamza Zaripov jasorat ko'rsatdi. Uning rotasi minalashtirilgan yo'lda dushmanning 27 tanki va 13 bronetransporterini portlatdi.

Moskva 1941-yil kuz-qish oylarida Moskva ostonalarida hayot-mamot janglari bo'ldi. Unda bir tomondan, qanday qilib bo'lsa ham Moskvani saqlash uchun intilgan, ikkinchi tomondan, qanday qilib bo'lsa ham Moskvani qo'ldan bermaslik uchun oyoqqa turgan tarixda misli ko'rilmagan darajadagi katta harbiy qo'shinlar to'qnashdi. Ana shu dahshatli jangda o'zbekistonlik jangchilar ham sabot-matonat yuksak harbiy mahorat ko'rsatdilar. Janubi-g'arbiy front tarkibidagi 353-tog' o'qchi polki jangchisi Qo'chqor Turdiyev katta jasorat ko'rsatdi. U 1941-yil 25-oktabrda o'rtoqlari bilan razvedkaga, so'ngra "til" olib kelishga yuborildi. Otishmada barcha o'rtoqlari halok bo'lgan Qo'chqor Turdiyevning bir o'zi dushmanning bir Dzot, 9 askar va zobitni yo'q qilib, 3 tasini asrga olib keldi va front qo'mondoni S.K.Timoshenkoga buyruq bajarilgani haqida xabar berdi. Bu jasorati uchun Qo'chqor Turdiyev Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi.

Toshkentda uzoq yillar xizmat qilgan general I.V.Panfilov Almati shahrida turkistonliklardan diviziya tuzdi. Uning komandirlari tarkibida Toshkent piyoda bilim yurti va O'rta Osiyo harbiy okrugining harbiy-siyosiy bilim yurtida ta'lim olgan 180 zobit bor edi. General I.V.Panfilov diviziyasi Moskva ostonalaridagi Volokolamsk yo'nalishida qattiq jang qildi. Ommaviy qahramonlik ko'rsatdi. Diviziyaning 28 kishidan iborat 4-o'qchi rotasining bir o'zi Dubosekovo raz'ezdida dushmanning bir rotasini qaytardi, 32 tankini majaqlab tashladi. Diviziya jang

maydonida dushmanning 114 tankini, 26 ming askar va zobitini, 5 samolyot va boshqa ko'plab texnikasini yo'q qildi, harakatdagi jangovar texnikasining ancha qismini qo'lga kiritdi. Janglarda vzvod komandiri Ikrom Halilov, Zarif Ibrohimov, Mamadali Madaminov, Abdulla Tog'ayev, jarroh g'ulom Abdurahimov va boshqalar jasorat ko'rsatdilar. Jangda diviziya qo'mondoni I.V.Panfilov halok bo'ldi, ammo uning quroldoshlari 8-gvardiyachi Panfilovchi diviziya nomi bilan dushman tor-mor etilguncha jang qildilar.

O'zbekistonda tuzilgan 21- va 44-otliq askarlar diviziyasi Moskva ostonalarida 1- va 2-otliq askarlar korpuslari saflarida jang qilib qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar. Shular qatorida 1-otliq askarlar korpusining jangchilari H.Musayev, R.Abdugosimov, A.Abdullayev, bo'lim komandiri R.Aliyev, vzvod komandiri kichik leytenant X.Bektursunov, 2-otliq askarlari korpusining jangchilari Z.M.Qosimov, R.S.Halilov, katta serjant V.Sodiqov, eskadron komandiri M.Ibrohimov va boshqalar bor edi.

Diviziyaning orden va medallar bilan mukofotlangan komandirlari va siyosiy xodimlari orasida B. O'razov, G.Tolipov, M.Bektemirov, V.Kashapov va boshqalar bor edi. O'zbek xalqi Moskva himoyachilariga ko'maklashish uchun qo'lidan kelgan barcha tadbirni ko'rdi. 1941-yil dekabrda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi raisi Yo'ldosh Oxunboboyev boshchiligidagi o'zbek delegatsiyasi Moskvaga bordi. Delegatsiya a'zolari Moskva ostonalarida jang qilayotgan g'arbiy front jangchilari-askarlar, zobitlar va qo'mondonlari bilan uchrashdi, suhbatlashdi, 1942-yil 1-yanvar - yangi yil kunini birga kutib olishdi, ularga O'zbekistondan olib borilgan 29 vagon meva-cheva, 9 ming kalta po'stin, 20 ming juft kigiz etik, 100 ming juft issiq qo'lgop va boshqalarni sovg'a qildilar.

Moskva himoyachilari orasida o'zbek qizi Zebo G'aniyeva ham bor edi. U Moskvadagi teatr san'ati institutida o'qir edi. Urush boshlangach, Zebo G'aniyeva o'z yurti - Andijonga qaytib kelishni emas, frontda jang qilishni afzal ko'rdi. Tez orada mohir mergan va razvedkachi bo'lib yetishdi. Uning harbiy qismi Moskva-Volga kanali bo'ylab joylashgan edi.

Moskva yonidagi jangda dushman tor-mor etildi. Bu uning Ikkinchi jahon urushi boshlangandan beri o'tgan ikki yarim yil orasidagi birinchi yirik mag'lubiyati edi. Fashistlarning "yashindek tez urush" rejasi butunlay barbod bo'ldi.

O'zbekistonlik jangchilar 1942-yilda Qrim, Donbass, Don, Kuban, Shimoliy Kavkazda bo'lgan og'ir janglarda ham qatnashib o'z vazifalarini bajardilar. O'zbekistonda uzoq yillar xizmat qilgan general I.Ye.Petrov Sevastopol uchun bo'lgan 8 oylik mudofaa janglarining boshliqlaridan biri edi. U katta harbiy mahorat bilan alohida dengiz bo'yi armiyasiga qo'mondonlik qildi. Sevastopolni quruqlikdan himoya qilishni tashkil etdi. Uning adyutanti toshkentlik katta leytenant Z.Qahhorov edi. General I.Ye. Petrov Shimoliy Kavkaz fronti, keyinroq 4-Ukraina frontiga

qo'mondonlik qildi, Berlin operatsiyasida qatnashdi. Urushdan keyin Toshkentga qaytib kelib Turkiston harbiy okrugi qo'shinlariga qo'mondonlik qildi.

O'zbekistonliklar 62- va 64-armiyalar safida tunb tarixiy Stalingrad jangida qahramonona jang qildilar. Janglar avjiga chiqqan paytda Stalingradga Samarqand va Farg'onada tuzilgan 90- va 94-o'qchi brigadalar yetib kelib jangga kirdilar. Bu brigadalar asosan o'zbek yigitlaridan tuzilgan bo'lib, komandirlari orasida S.Nuriddinov, V.Umarov, A.Murodxo'jayev, F.Norxo'jayev va boshqalar bor edi. 21-otliq askarlar diviziyasining baland jangovar ruhda jang qilishida diviziya komissari, keyinroq general-mayor unvoniga erishgan Mullajon Uzoqovning xizmati katta bo'ldi. Volga bo'ylarida dahshatli janglar bo'layotgan paytda o'zbekistonlik jangchilar o'zbek xalqining ularga yozgan xatini oldilar.

128-gvardiyachi Turkiston tog'-o'qchi diviziyasi askarlari dushmanga qarshi shiddatli zarbalari bilan shuhrat qozondilar. Kichik leytenant M. Kabirov vzvodiga Perelazovsk xutori yonidagi tepalikni egallash va ushlab turish vazifasi topshirildi. Vzvodning 40 ta jangchisi hamma tomondan ochiq, dushmanga ko'rinib turgan yalanglikdan o'rmlab tepaga yurdi, qattiq jang, og'ir yo'qotishlar evaziga tepalikni ishg'ol etdi. Tirik qolgan 11 jangchi dushmanning 300 jangchisiga qarshi 12 kun davomida tepalikni qo'ldan betmay jang qilishdi va dushmanni o'sha tepalik yonida to'xtatib qoldi. Ularning 9 tasi o'zbek, 1 tasi qozoq va 1 tasi tatar edi. Og'ir jangda B. Ajimbekov, D.Ahmedov, B.Gg'afforov, S.Mardonov, H.Musayev, S.Payziyev, N.Haitov, S.Tlenovlarning qoni ana shu tepalikda abadiy qoldi. Faqat Abdurahmon Erdonov va M. Kabirovlar tirik qolishdi.

Mashhur Pavlov uyini mudofaa qilgan jangchilar orasida o'zbek yigiti Kamoljon Turg'unov ham bor edi. Stalingradda jang qilayotgan namanganlik zobit Mamasoli Jabborov 1942-yil noyabrida o'zining motoo'qchilar ro'tasi bilan chekinib borayotgan dushmanning ikkita polkiga shiddatli hujum qilib 400 soldat va zobitni qirib tashladi, 230 tasini asirga tushirdi va anchagina qurol-aslahani o'lja qildi. 117 fashistni yer tishlatgan Buxoro viloyatidan borgan mergan Hayit Xo'jamatov 5 ta jangda o'z pulemyoti bilan dushmanning 300 dan ortiq askar va zobitini yer tishlatgan. Qorako'l tumanidan borgan jangchi Haitov, Toshkent Pedagogika institutining talabasi Yelena Stempkovskayalar jasorati Stalingrad jangi solnomasidan munosib o'rin egalladi.

Zilmat Hasanov bir o'zi 80 fashistga qarshi jang qilib, 60 tadan ortig'ini qirib tashladi, patronlari tugagach qaltis paytda o'zini ham, dushmanlarni ham portlatib yubordi. O'zbek qizi, shifokor-jarroh Muqaddam Ashrapova namunali xizmati uchun 1-gvardiyachi armiya jangchilarning mehr va hurmatiga sazovor bo'ldi. Pragagacha bo'lgan jangovor yo'lni bosib o'tdi. Ko'rsatgan jangovor jasoratlari uchun hukumat ordeni va bir necha medallar bilan taqdirlandi. Muqaddam Ashrapova urushdan keyin Toshkent Tibbiyot institutida ishlab, tibbiyot fanlari

doktori, professor darajasiga erishdi, o'z hayotini fanga va tibbiyot xodimlari tayyorlashga baxshida etdi.

Kurskdagi g'alaba va dushmanning Dneprdan uloqtirib tashlanishi natijasida jahon urushining borishida tub burilish yasaldi, harbiy strategik tashabbus dushmandan batamom tortib olindi. Stalingraddagi g'alaba Gitler Germaniyasining yengilishi muqarrarligini ko'rsatgan bo'lsa, Kursk va Dneprdagi g'alaba nemis-fashist qo'shinlarini halokatga mahkum etdi.

O'zbekistonlik jangchilar Leningrad qamalini yo'q qilish, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va Boltiqbo'yi respublikalarini dushmandan ozod qilish uchun bo'lgan janglarda qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar. 1944-yil kuz oylariga kelganda dushman mamlakatdan butunlay haydab chiqarildi, SSSR chegaralari tiklandi.

Gomel atrofidagi "Temir yo'l urushi"da ishtirok etgan Jonibek Otaboyev, Bryansk atrofida dushmanga to'satdan zarba bergan I.Musayev, A.Hakimov, I.Qosimov va boshqalarning nomlari urush solnomasidan o'chmas o'rin oldi. Ukrainada dushmanga qiron keltirgan S.A.Kovpak, A.N.Soburov, A.F.Fedorov, M.I.Naumovlarning partizan qo'shinlari saflarida yuzlab o'zbekistonlik qasoskorlar ham qatnashdilar. Ular dushman qismlariga to'satdan hujum qilar, ko'priklar va temir yo'llarni portlatib dushmanni sarosimaga solardilar.

1943-yil mayidan 1944-yil aprelegacha muddatda Sobir Rahimov Moskvadagi Oliy harbiy akademiyasida ta'lim oldi. U akademiyaning tamomlab, avval Belorussiyani ozod etishda, so'ngra Polshaning Grudzyandz, Gnev, Starograd, Dzyaddovo shaharlarini ozod etish uchun bo'lgan janglarda sarkardalarga xos harbiy san'atni namoyish etdi.

O'zbekistonliklar Yevropa mamlakatlarida avj olgan qarshilik ko'rsatish harakatida ham faol qatnashdilar. Ular dushmanning maxsus lagerlaridan qochib Chexoslovakiya, Polsha, Yugoslaviya, Gretsiya, Fransiya'dagi qarshilik harakatiga qo'shilib jang qildilar. Samarqandlik G.G.Bulatov otryadi Polshada o'nlab ko'priklarni, temir yo'llarni portlatdi, dushmanning harbiy qismlari va jangovor texnikasi ortilgan eshelonlarni ag'dardi. Italiyaning Karraro shahri konlarida ishlatish uchun olib borilgan harbiy asirlar orasida andijonliklar Turg'un Qo'chqorov va Ahmad Mamajonovlar italiyalik partizanlar bilan aloqa bog'lab toqqa qochadi. Ular Garibaldiyachi partizanlar otryadiga qo'shilib dushman qurol-aslaha omborxonalarini portlatishda, yo'llarda dushman kolonnalarini yo'q qilishda, ko'priklar va eshelonlarni portlatishda faol qatnashadilar.

O'zbekistonlik jangchilar Yaponiyaga qarshi urushda ham qatnashdilar. Ular 22-, 79-, 275-, 388-, 221-diviziya va boshqa harbiy qismlarning tarkibida jang qildilar. Seysin port shahrini egallashda 335-o'qchi diviziyasi bataloni tarkibida leytenant Fozil Karimov, razvedkachi Vali Sulaymonovlar alohida jasorat

ko'rsatdilar. Dushman sohiliga tushirilgan desantchilar orasida pulemyotchi Nishon Bozorov chaqqonlik bilan jang qilib, yaponlarning 10 ta askari va 2 ta zobitini yer tishlatadi. Fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning olamshumul tarixiy ahamiyati shundaki, u dunyodagi ko'plab xalqlarni zo'ravonlikdan, qullikdan, zulmdan ozod etdi, erkin, demokratik rivojlanish uchun, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyot uchun yo'l ochib berdi. O'zbek xalqi fashizmni tormor etishga, olamshumul ahamiyatga molik g'alabaga, ulkan hissa qo'shdi.

Xalqimizning fidokorona mehnatlari, jangchilarimizning qahramonona jasoratlari sabab nemis-fashist bosqinchilariga qarshi olib borilgan, 43 kuni kam 4 yil (1941-yil 22-iyun – 1945-yil 9-may) davom etgan urush g'alaba bilan yakunlandi. Lekin ikkinchi jahon urushi davom etardi. Ittifoqchi davlatlar bilan bo'lgan kelishuv va Sharqda xavf bo'lib turganligi sababli 1945-yil 9-avgustga o'tar kechasi sovet hukumati Yaponiyaga qarshi urush boshladi. 2-sentyabrgacha davom etgan bu jangda 6770 nafar o'zbekistonlik jangchilar ishtirok etib, Kvantun armiyasini mag'lubiyatga uchratishda, Yaponiyaning taslim bo'lishida o'z hissalarini qo'shdilar. N. Latipov, A. Karimov, U. Doniyorov kabi ko'plab hamyurtlarimiz yuksak harbiy mahorat va jangovar faolliklarini namoyish etdilar.

Ikkinchi jahon urushining g'olibona yakunlanishida o'zbekistonliklarning front va front orqasidagi jasoratlari katta qissa bo'lib xizmat qildi. 120 mingdan ortiq o'zbekistonliklar SSSRning orden va medallariga sazovor bo'ldilar. Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga ega bo'lgan 300 dan ortiq jangchidan 75 tasi o'zbek o'g'lonlari edi. O'zbekistonlik 82 ta jangchi "Shuhrat" ordenining uchala darajasi bilan taqdirlandi. Italiya, Angliya, Frantsiya, Yugoslaviya, Pol'sha, Chexoslovakiya, Vengriya kabi mamlakatlarining ordenlari bilan taqdirlangan hamyurtlarimiz bir necha ming kishini tashkil etadi.

Eng yangi tarixiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, Ikkinchi jahon urushida O'zbekistondan 1 mln. 433230 kishi qatnashdi. Bu davrda ya'ni 1941-yilda O'zbekiston aholisi bor-yo'g'i... 6,5 million kishi edi. Bosqinchilarga qarshi qo'lga qurol olib jang qilgan o'zbekistonlik jangchilarning umumiy tarkibidan 263005 kishi halok bo'lgan, 132670 kishi bedarak yo'qolgan, 60452 nafar vatandoshimiz nogiron bo'lib qolgan.

Urush yillarida asirga tushgan 6,2 mln. kishidan 4 mln. kishi halok bo'lgan, 1 mln. kishi «Vlasovchilar»ga qo'shilgan, tirik qolgan 1 mln. kishi esa nemis lagerlarini sovet lagerlari bilan almashtirishga majbur bo'ldilar. Nohaq jazolanganlar orasida yurtdoshlarimiz ham bor bo'lib, S. Abdullaev, L. Popov, K. Abramovich, P. Rustamov va boshqalar shular jumlasidandir.

Ikkinchi jahon urushi butun insoniyatga katta saboq bo'ldi. Eng muhim saboq shundan iborat bo'ldiki, urush boshlanmasdan oldin unga qarshi kurashmoq, uning oldini olish tadbirlarini ko'rmoq zarur. Shu maqsadda jahondagi ko'pchilik

mamlakatlar Birlashgan Millatlar Tashkilotini (1945-yil) tuzdilar. Bu xalqaro tashkilot urushdan keyingi yarim asrdan ortiqroq davr davomida tinchlikni mustahkamlash, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari bilan shug'ullanib kelmoqda.

Urush davri O'zbekiston tarixining uzviy bir qismi, biz uni unutmaymiz. O'zbekistonda urush faxriylariga, ularning oilalariga yordam berilmoqda, ularga imtiyozlar yaratilgan. Respublika faxriylar uyushmasining tashabbusi bilan fashizm ustidan qozonilgan g'alabani 50 yilligi munosabati bilan janglarda halok bo'lgan 400 mingga yaqin vatandoshlarimiz haqida arxiv materiallari to'planib, bu ma'lumotlar asosida "Xotira" turkumida 34 kitob nashr etildi. Fashizm ustidan g'alaba qozonilgan 9-may kuni O'zbekistonda "Xotira va Qadrlash" kuni sifatida nishonlanmoqda. Urushda qurbon bo'lganlarni xotirlash, biz bilan hozirgi kunlarda yonma-yon yashayotgan urush faxriylarini qadrlash, e'zozlash, hurmat-izzatini joyiga qo'yishdek ulug'vor insoniy ishlar yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda, mustaqil O'zbekistonning milliy xavfsizligini mustahkamlashda katta ahamiyatga egadir.

4. Urush yillarida fan va madaniyat.

O'zbekiston ishchi va mehnatkashlari bilan bir qatorda fan, maorif va madaniyat xodimlari ham nemis-fashist bosqinchilari ustidan qozonilgan g'alabaga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. "Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun!" shioriga "labbay!", deb javob bergan ko'pgina olimlar urushning birinchi kunlaridayoq frontga ketdilar. Ular orasida O'zbekistonning mashhur olimlaridan U.A. Arifov, YO.X. To'raqulov, I. Ismoilov, X. Usmonov va boshqalar bor edi. T. N. Qori-Niyoziy V.I. Romanovskiy, T.Z. Zohidov, I.A. Raykova O.S. Sodiqov kabi olimlar natijasi xalq xo'jaligi va front zaruriyati uchun xizmat qilgan muammolarni hal qilishda katta kuch bilan mehnat qildilar.

O'zbek matematik, mexanik va astronomlari aviatsiya, o'q-dori, harbiy texnika sifatini oshirishga aloqador bo'lgan bir qancha muhim ilmiy muammolarni hal qildilar. Bunda T.A. Sarimsoqov, V.I. Romanovskin, M. Kamolov, N.N. Nazarov va boshqa olimlar hissasi katta bo'ldi. Ularning ehtimollik nazariyasi va matematika statistikasi sohasidagi ijodiy izlanishlari artilleriya otishmalari va bomba tashlash aniqligini, jangovar samolyotlarning yuk ko'tarish imkoniyatini oshirishga, respublikada ishlab chiqarilayotgan harbiy texnikaning sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirishga imkon berdi.

Geolog olimlar foydali qazilma boyliklarini qidirib topish, sanoatni zarur xomashyo bilan ta'minlash vazifalarini bajarishga katta e'tibor berdilar. O'zbekiston tog'lari va cho'llarida 1943 yilning o'zidagina 35 ta geologiya ekspeditsiyalari ish olib bordi. O'zbekistonlik kimyogarlar paxta chiqindisidan xalq xo'jaligida foydalanish taklifini, etil spirtini, sirka kislotasini, qamishni quruq qayta ishlash

natijasida ko'mir briketini olishning yangi usullarini ishlab chiqdilar. Bunda akademik O.S. Sodiqov boshliq guruh ishlari alohida ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston o'simliklarining alkaloidlik xususiyatini o'rganish yuzasidan akademik S.Yu. Yunusov rahbarligida katta ishlar olib borildi. O'rta Osiyo davlat universiteti (O'zMU) ning kimyo fakultetida urush davrida muhim ahamiyatga ega bo'lgan narkoz efiri, xlorli kal'iy, kofein, streptotsid, sul'fidin, nikotin kislotasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Fakultet bazasida Toshkent farmatsevtika zavodi tashkil etildi. O'zbekistonlik farmatsevtlar mahalliy xomashyodan 15 ta yangi dori preparatlarini ishlab chiqarish usullarini kashf etdilar.

O'zbekistonning ijtimoiy-gumanitar fanlari olimlari-tarixchilar, sharqshunoslar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, iqtisodchilar va faylasuflar o'zlarining ijodiy mehnatlari bilan mamlakat ilmiy salohiyatini rivojlantirishga, ommaga insonparvarlik, vatanparvarlik, erksevarlik g'oyalarini singdirishga qimmatli hissa qo'shdilar.

SSSR FANing O'zbekiston filiali, respublikada ishlab turgan 75 ta ilmiy muassasalar, shu jumladan, 25 ta ilmiy-tadqiqot institutlari, 23 ta ilmiy stansiya va boshqalar, barcha olimlar respublika xo'jalik hayotini harbiy izga solish bilan aloqador muammolarni hal etishga jalb etildi. Ularning zavodlar, fabrikalar, temir yo'l va avtomobil yo'llari transport korxonalari bilan bevosita aloqalari o'rnatildi. Olimlarning tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish maqsadida 1941-yil 29-noyabrda O'zbekiston Ilmiy muhandis-texnika jamiyati tuzildi.

Ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish, ularni muvofiqlashtirishni dastlab 1940-yilda tashkil etilgan SSSR FANing O'zbekiston filiali (O'zFAN), keyin 1943-yil noyabrda ochilgan O'zFA amalga oshirdi. O'zFANing birinchi prezidenti qilib T.N. Qori-Niyoziy saylandi. Fanlar akademiyasining ochilishi respublika hayotida muhim voqea bo'ldi, ilm-fanning yanada taraqqiy etishi uchun mustahkam poydevor yaratildi. Tez orada yangi ilmiy muassasalar vujudga keldi. Til, adabiyot va tarix instituti bazasida Tarix va arxeologiya, Til va adabiyot institutlari, Sharqshunoslik instituti, Iqtisodiyot, Matematika va mexanika, Tuproqshunoslik, Fizika-texnika institutlari va boshqa laboratoriyalar tashkil etildi. Sharqshunoslik instituti olimlarining Sharq qo'lyozmalarini o'rganish asosida tayyorlagan fors, arab va turkiy tillarda yozilgan qo'lyozmalar to'plami jahondagi eng boy to'plamlardan biri bo'lib qoldi. To'plam 3 jildidan iborat bo'lib, ularda 300 ga yaqin qo'lyozma tavsiflab va ilmiy jihatdan baholab berildi. 1944-yilda O'zFA Prezidiumida aspirantura tashkil etildi va o'sha yili 60 kishi, shu jumladan, 41 o'zbek qabul qilindi. 1944-yilda Akademiya institutlarida 2 ta doktorlik, 17 ta nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi.

Urush yillarida O'zbekistonlik olimlar mingdan ortiq ilmiy ishlarni bajardilar, ularning ko'pchiligi xalq xo'jalik va mudofaa ahamiyatiga ega bo'ldi. 1943 – 1945-

yillarda qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar bilan O'zFA Ittifoqda tanilgan ilmiy markazga aylandi. Bu paytda akademiya tarkibidagi 22 ta ilmiy muassasada 818 ilmiy xodim fan olamining turli jabhalarida tadqiqot ishlarini olib bordilar. O'zFAning faoliyatida ko'chirib keltirilgan ilmiy xodimlarning ham o'ziga xos hissasi bo'ldi.

O'zbekistonlik olimlar ko'chib kelgan yirik olimlar bilan yaqin aloqa bog'ladilar, respublikamizda mavjud bo'lgan va ko'chirib keltirilgan ilmiy muassasalarning tadqiqot yo'nalishi qayta ko'rib chiqildi, urush talablariga moslab o'zgartirildi. Olimlar o'zlarining asosiy e'tiborini mudofaa sanoati uchun zarur bo'lgan tabiiy resurslarni izlab topish va ulardan foydalanishni tashkil etishga qaratdilar. Geolog olim H.M.Abdullayev va boshqalarning tadqiqotlari natijasida qalay, volfram, molibden, o'tga chidamli minerallar, nodir metallat va boshqa turdagi xomashyo konlari topildi va o'zlashtirildi. A.S.Uklonskiy boshchiligidagi geologlar guruhining temir konini topishi, o'zbek metallurgiya kombinati qurilishini loyihalashtirish va ularni foydalanishga tushirishdagi xizmatlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. D.M. Bogdanov va muhandis G.S. Chikrizovlar Angrenda qidiruv ishlariga boshchilik qildilar va ko'mir konining boy zahiralarini topib yangi shaxtalar qurishga ko'maklashdilar.

Sirdaryodagi Farhod GESning loyihasini ishlab chiqishda mashhur irrigatorlar A.N.Askochenskiy, V.V.Poslavitskiylar faol ishtirok etdilar, loyihachilarga akademiklar G. O. Grafito va B. Ye. Vedeneevlar qimmatli maslahatlar berdilar.

Butunittifoq paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti paxtaning yangi navlarini yetishtirish sohasida samarali izlanishlar olib bordi. Seleksionerlar S.S. Kanash va A.I.Avtonomov boshchiligida vilt kasalligini yuqtirmaydigan yangi navini yaratdilar.

Urush yillarida gumanitar fanlar ham ancha rivojlandi. Yirik tarixchi, arxeolog, huquqshunos, sharqshunos, adabiyotshunos olimlar O'zbekistonlik hamkasblari bilan O'zbekiston xalqlari tarixi, madaniyati va adabiyotining muhim masalalarini ishlab chiqdilar. V. S. Struve, V. A. Shishkin, Ye. E. Bertels, I. K. Dodonov, V. Yu. Zohidov, H. Sh. Inoyatov, A. Yu. Yakubovskiy, M. Ye. Masson, S. P. Tolstov, Ya. G'. G'ulomov va boshqalar O'zbekistonning eng qadimgi va O'rta asrlar tarixi, moddiy madaniyati va ma'naviyati, O'rta Osiyo xalqlarining etnogenezi bo'yicha qator asarlar tayyorladilar. Yozuvchi Aleksey Tolstoy rahbarligida rus va o'zbek olimlari birgalikda "O'zbek adabiyoti tarixi" asarini yaratdilar.

Urush yillarining qiyinchiliklariga qaramasdan O'zbekistonda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari va maorif muassasalarining faoliyati ham to'xtab qolmadi. O'zbekistonda 29 ta oliy va 52 ta o'rta maxsus o'quv yurti ishlab turdi, ularning soni Markazdan ko'chirib keltirilgan 31 ta oliy o'quv yurti va 7 ta harbiy akademiya

hisobiga yana ortib bordi. Bu o'quv yurtlarida o'rush yillari mobaynida 11.750 nafar yuqori malakali mutaxassis va 6.673 nafar kadrlar tayyorlandi.

O'zbekiston hukumati oliy o'quv yurtlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, moddiy ba'zasini mustahkamlash, o'qituvchilar bilan ta'minlash masalalarida ko'maklashdi. Ayniqsa, ko'chib kelgan tajribali pedagoglar, olimlar 1943 – 1944-yillarda o'z shaharlariga qayta boshlagan, urushning dastlabki davrida vaqtincha yopilgan yoki birlashtirilgan institutlar qayta tiklanayotgan, yangidan Chimboy va Urganch pedagogika institutlari, Namangan va Marg'ilon o'qituvchilar institutlari, Toshkent teatr san'ati instituti ochilgan, ilmiy-pedagogik kadrlarga muhtojlik ortgan bir paytda respublika hukumatining oliy o'quv yurtlariga ko'magi sezilarli bo'ldi. Yirik oliy o'quv yurtlarida doktorantura va aspiranturaga qabul kengaytirildi. Respublika miqyosida ishlab turgan rahbar xodimlar oliy o'quv yurtlariga ishga yuborildi.

Xalq maorifida ham jiddiy qiyinchiliklar bo'ldi. Ko'plab maktablar binolari gospitalar, yotoqxonalar, harbiy o'quv yurtlariga berildi. Maktablar birlashtirildi, ko'p smenali o'qish joriy etildi. Urushgacha respublika maktablarida ishlayotgan o'qituvchilarning 74,6 foizini erkaklar tashkil etardi. Ular frontga, ishlab chiqarish ishlariga ketdi.

Maktablarda ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash maqsadida o'quvchilar bilimini baholashning besh balli tartibi, boshlang'ich va yetti yillik maktablarni tamomlovchilar uchun bitiruv imtihonlari, O'rta maktabni tamomlovchilar uchun yetuklik attestati - guvohnomasi uchun imtihonlar topshirish majburiyati, maktab o'quv dasturlarini a'lo o'zlashtirgan va a'lo xulqli o'quvchilarni oltin va kumush medallar bilan taqdirlash joriy etildi. Bu tadbirlar dars mashg'ulotlari saviyasini ko'tarishga, o'quvchilar intizomini yaxshilashga olib keldi.

O'zbek adabiyoti ham xalqimizning yovuz dushmanga qarshi kurash yillarida o'zining munosib hissasini qo'shdi. Oybek, Hamid Olimjon, Shayxzoda, G'afur G'ulom, Uyg'un, Sobir Abdulla, Zulfiya, Temur Fattoh kabi shoir va yozuvchilar urush maydonlariga safarbar etuvchi she'rlari va maqolalari bilan xalqni g'alabaga ruhlantirdilar. Oybekning "Yovga o'lim!" she'ri, "Navoiy" romani, "Men yahudiy", Hamid Olimjonning "Yigitlarni frontga jo'natish", "Jangchi Tursun", "Roksananing ko'z yoshlari" va boshqa asarlar urush yillaridagi o'zbek adabiyotining yorqin namunalaridir. M. Ismoilov, Ilyos Muslim, Nazarmat, Adham Raxmat, N. Safarov, Ibroxim Rahim, Z. Fatxullin, Adham Hamdam kabi yozuvchi va jurnalistlar frontda ishtirok etib, "Qizil armiya", "Front haqiqati", "Qizil askar haqiqati", "Suvorovchi", "Vatan sharafiga uchun" kabi front gazetalarida xizmat qilish jarayonida, Hamid Olimjon, Oybek, A. Umariy, G'afur G'ulom, Ra'no Uzoqova va boshqa shoir ham yozuvchilar hukumat delegatsiyalari tarkibida frontning oldingi marralariga borib, o'z qahramonlari bilan tanishdilar, yurtdoshlarining jasoratlarini tarannum etdilar.

O'zbekistonga vaqtincha ko'chirib keltirilgan rus, ukrain, belorus, moldavan va boshqa millatlarga mansub yozuvchi va shoirlar ham respublikamiz hayotida faol qatnashdilar, O'zbekistonlik hamkasblari bilan yaqindan hamkorlik qildilar. "Biz yengamiz!" degan almanax, "O'zbekiston shoirlari – frontga" degan antologiya ana shunday hamkorlikning mevasi bo'ldi. Hamid Olimjon, Uyg'un, Sobir Abdulla, Nikolay Pogodinlar birgalikda "O'zbekiston qilichi" musiqali dramasini yaratdilar.

A. Axmatova, I. Virta, S. Gorodetskiy, A. Deych, K. Zelinskiy, Ya. Kolas, N. Pogodin, A. Tolstoy, V. Yan kabi yozuvchi-shoirlar ham O'zbekistonda yashab, o'zbek adabiyotchilari bilan hamkorlikda ajoyib asarlar yaratdilar. Bunda respublika Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qilgan H.Olimjonning xizmati katta bo'ldi. Dramaturgiya sohasida N. Pogodin, Hamid Olimjon, Uyg'un va Sobir Abdullalar yozgan "O'zbekiston qilichi" va A. Umariyning "Qasos", Yashin va Sobir Abdullaning "Davron ota" kabi asarlari bilan birga Uyg'un va Izzat Sulton "Alisher Navoiy", Xamid Olimjon "Muqanna", Maqsud Shayxzoda "Jaloliddin Manguberdi", Oybek "Mahmud Torobiy" kabi dramatik asarlarini yaratdilar, ularda o'zbek xalqining bosqinchilarga qarshi kurash sahifalari aks ettirildi.

O'zbekistonning bir guruh yozuvchi va jurnalistlari sovet armiyasi siyosiy boshqarmalari ixtiyoriga yuborildi. Bulardan To'liq Rustamov va Rasul Muhammadiy sovet armiyasi bosh boshqarmasida inspektor, Jalolxon Azizxonov, Rustam Abdurahmonov, Adham Rahmat, Sharif Bo'latov, Muhammadjon Murodov, Yo'lchi Bilolov va boshqalar front gazetalarida muharrir o'rinbosarlari bo'lib xizmat qildilar. Nazir Safarov, Mirzakalon Ismoilov, Zinnat Fatxullin, Meli Jo'ra, To'g'on Ernazarov, Sulton Jo'ra va boshqalar harbiy muxbirlar sifatida va jurnalistikaning boshqa jangovar sohalarida faoliyat ko'rsatdilar.

1941 – 1945- yillardagi urush davrida O'zbekistonda ta'sirchan vosita hisoblangan teatr va san'at ancha rivojlandi. Teatr va san'at arboblari frontning oldingi marralarida bo'ldilar va 6.667 303 tomoshabinga 13.568 ta spektakl va konsertlar ko'rsatdilar.

Toshkentda va Andijonda yangi teatrlar ochildi, respublikada hammasi bo'lib 36 ta teatr ishlab turdi. Shuningdek, ko'chirib keltirilgan 14 teatr ham faoliyat ko'rsatdi. Butun urush davomida 203 ta yangi postanovka tayyorladilar. 6.667. 303 tomoshabinga 13.568 ta spektakl va konsertlar ko'rsatdilar. Teatlarda urush mavzusiga bag'ishlangan "Davron ota", "Sherali", "O'zbekiston qilichi" musiqali dramalari, "Ulug'bek" va "Mahmud Torobiy" operalari, mardlik, jasorat mavzularida yozilgan Komil Yashinning "Bosqinchilarga o'lim", M.Shayxzodaning "Jaloliddin" pyesalari ko'rsatildi. Urush yillarida o'zbek davlat opera va balet teatri 10 ta, Hamza teatri 16 ta, Gorkiy nomli rus drama teatri 32 ta yangi spektakllarni sahnalashtirdilar. Respublika teatr jamoalari 1942 – 1944-yillarda 203 ta yangi asarni sahnalashtirdilar, 187568 marta spektakl va konsert namoyish etdilar, ularni

millionlab kishilar tomosha qildilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida respublikamizda 30 dan ortiq konsert brigadalari tashkil etilib, ular harakatdagi armiya qismlarida 35 mingdan ortiq, Turkiston harbiy okrugi qismlari va gospitaldagi nogironlarga 26 mingta konsert qo'yib berib, jangchilarni ruxlantirdilar, ularni fashizm ustidan g'alabaga undadilar. Ayniqsa, Tamaraxonim, Xalima Nosirova, Mukarrama Turg'unboyeva, Sora Eshonto'rayeva, Abror Xidoyatov, Shukur Burhonov kabi san'atkorlar ishtirokidagi konsert va tomoshalar jangchilar, tomoshabinlar qalbiga zo'r ko'tarinkilik baxshida etgan. A. Abdullayev, Ch. Ahmarov, O'.Tansiqboyev kabi rassomlar urush lavhalari, badiiy yilnomalarni yaratib, xalqimizning front va front orqasidagi fidokorona mehnatini mahorat bilan tasvirladilar.

Qisqa metrajli filmlar va 10 ta ovoqli badiiy filmlarini yaratish bilan Y.A'zamov, K.Yormatov, N.G'aniyev, S.Muhamedov kabi o'zbek rejissiyorlari urush yillarida kinematografiyani rivojlantirdilar. Bu davrda ishlangan "Nasriddin Buxoroda", "Tohir va Zuxra" kabi filmlar "O'zbekfilm"ning oltin fondiga aylandi.

Nazorat savollari:

1. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi?
2. O'zbekiston SSRda umumiy harbiy safarbarlik?
3. O'zbekistonliklarning urush jangohlarida ko'rsatgan jasoratlari?
4. O'zbekistonga evakuatsiya qilingan aholiga hamda jangchilar oilalariga g'amxo'rlik va mehribonlik?
5. Urush yillarida fan va madaniyat haqida gapirib bering.
6. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston?

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қаҳрамон Ражабов. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Тошкент. Маънавият. 2002
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T.: Sharq. 2000.
3. Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
4. Sagdullayev A.S., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. -T., 2006.
5. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. 1-jild. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
6. Istoriya Uzbekistana. Tashkent: Fan, 2012.
7. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-2-3-kitoblar. Toshkent: Sharq, 2000.
8. Sagdullaev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti.

Toshkent, 2000.

9. Leonid Levitin. Uzbekistan on a historical Threshold. England: Cambridge, 2001.
10. Mingnorov A. Turkistonda 1917-1918 yillardagi milliy-siyosiy tashkilotlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
11. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar). Davriy to'plam. №1. Toshkent: Universitet, 1999.
12. O'zbekiston tarixi. Toshkent, 2003.
13. Qahramon Rajabov. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash. Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
14. Dono Ziyoeva. Bosmachilik: haqiqat va uydirma. Toshkent: O'zbekiston, 2000.
15. Qahramon Rajabov. Mustaqil Turkiston fikri uchun mushohodalar. Toshkent: O'zbekiston, 2000.

IV. Internet saytlar

16. <http://natlib.uz>-Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
17. <http://yedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
18. <http://lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
19. <http://lib.bimm.uz>- Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
20. <http://ziyonet.uz>- Ta'lim portali ZiyonET
21. <https://tarixinstituti.uz/uzb/>Bo'limlar
22. <http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti
23. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.

2-AMALIY MASHG'ULOT. Turkiston Muxtoriyatining vujudga kelishi va sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar (2 soat)

O'rta Osiyo xalqlarining bolsheviklar hukmronligi va bosqinchi qizil armiyaga qarshi olib borgan kurashi (1918—1935). Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakat — O'rta Osiyodagi milliy ozodlik harakati tarixida alohida bosqich bo'lib, kurash ko'lam va shiddati uning murakkab va ziddiyatli ekanligi bilan ajralib turadi. Bu harakat o'z jug'rofiy doirasiga ko'ra, 3 hududga bo'linadi: Turkiston ASSR, Buxoro Respublikasi va Xorazm Respublikasi quudlari. U keyinchalik O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston SSRda ham davom etdi. Qurolli kurash o'z rivojlanish jarayoniga ko'ra, 2 davrni bosib o'tdi: 1918—24 va 1925—35 y. lar. Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatning 1davri, dastlabki qurolli guruxdarning tashkil topishi Kichik Ergash va Katta Zrgashning nomlari bilan uzviy bog'liqdir. Turkiston muxtoriyati xukumati qo'shiniga boshchilik qilgan Kichik Ergash.1918-y. 19 — 21 fev. da Qo'qon sh. da bo'lgan urush natijasida mag'lubiyatga uchrab, Qo'qon uyezdidagi Bachqir qishlog'iga chekindi. 26 fev. da Bachqirga qizil gvardiyachilar va arman dashnokdari (q. «Dashnakiutyun»)g'tng 5 ta otryadi hujum qildi. 27 fev. da bo'lgan janglarning birida Kichik Ergash halok bo'lgach, Katta Ergash Farg'ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi kurash boshladi. Tez orada harakat butun Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyati hududlariga tarqaldi.

Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakat niig bosh sababi bolsheviklarning o'lkada yuritgan mustamlakachilik va shovinistik siyosati bo'ldi. Bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan dastlabki sotsialistik tadbirlar (korxonalarning davlat ixtiyoriga o'tkazilishi, xususiy mulkning tugatilishi, oziq-ovqat taqsimoti va g'alla monopoliyasi, islom dinining cheklanishi va ateizm targ'iboti, masjid, Madrasa, xususiy maktab va qozixonalarining bekitilishi, vaqf yerlarning tortib olinishi, majburiy mehnatning joriy qilinishi, bozorlarning yopilishi va b.) xamda qizil armiya jangchilarining talonchilik va bosqinchilik siyosati harakatga alohida keskinlik va ko'lam bag'ishladi. Bu hodisalar kurashning tobora kengayishi va rivojlanishiga olib keldi.

Qurolli kurash o'zining harakatlantiruvchi kuchlari (dehqonlar, chorakorlar, hunarmandlar, kosiblar va mardikorlar, to'q badavlat oilalarning vakillari — savdogarlar, boylar qamda ulamolar) va tashkiliy tuzilishi jihatidan ham aholining barcha gurux^ari va ijtimoiy qatlamlarini o'ziga qamrab olgan harakat xisoblanadi.

Kurashchilarning milliy tarkibi, asosan, tub joy aholi — o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qirg‘izlar, qozoqlar, qoraqalpoklar, qisman uyg‘urlardan iborat bo‘lgan. Shuningdek, ruslar va Validiy tomonidan yuborilgan ayrim boshqird va tatar harbiylari, Turkiya va Afg‘onistondan kelgan oz miqdordagi zobitlar xam bor edi. Madaminbek qo‘shinlari bilan Jalolobodda turgan K. Monstrovning krest‘yanlar armiyasi o‘rtasida sovet rejimi va qizil armiyaga qarshi birgalikda kurashish uchun o‘zaro bitim tuzilgan (1919.02.09.). Qizil askarlar tomonidan bosqinchilik va talonchiliklarning kuchayishi ularga qarshi xdrakatni yanada kuchaytirdi va kurashchilar safiga muntazam ravishda askarlar (yigitlar) qo‘shilib turdi va yangidanyangi guruh,lar tashkil topdi.

Validiyning Turkistonga kelishi va kurash maydoniga chiqishi, «Turkiston milliy birligi» tashkilotining qaror topishi (1921.2.8) bilan janglar butun mintaqada avj olib ketdi. Boshqa yashirin milliy tashkilotlar («Milliy ittihad», «Milliy istiqloq») qam tuzilib, ular harakatni faol qo‘llabquvvatlashdi.

Turkiston jamiyatida o‘sha paytda yetakchi mavqega ega bo‘lgan ulamolar ham harakat mafkurasini tayyorlashda muayyan darajada xizmat qildilar. Ammo harakat ayrim mutaassib ruhoniylarning amallari oqibatida ko‘pgina hollarda faqat islom g‘oyalariga singib ketdi va shu bilan cheklanib qoldi. Kurashchilar faqat jang harakatlari olib borish bilan cheklanmasdan Madaminbek boshchiligida Muvaqqat Farg‘ona hukumati (1919.22.10) nomli hukumatni ham tuzdilar. 1920—24 y. larda Buxoro va Xorazm respublikalarida milliy muxolifat olib borgan ozodlik kurashi o‘ziga xos alohida yo‘nalish va xususiyatga ega bo‘lib, o‘ta murakkab va ziddiyatli ekanligi bilan Turkiston Respublikasidagi bu harakatdan ajralib turadi. Bolsheviklar kizil askarlarga tayangan holda 1920-y. 1 fev. da Xiva xonligi va 1920-y. 2 sent. da Buxoro amirliginn qurolli kuch bilan ag‘darib, hokimiyatni Buxoroda, asosan, Yosh buxoroliklar, Xorazmda esa Yosh xivaliklar firqalarining a‘zolaridan iborat demokratik kuchlar qo‘liga berishdi. Lekin, bu joylarda hokimiyat uchun kurashayotgan boshqa kuchlar ham mavjud bo‘lib, natijada milliy kuchlar o‘rtasida hokimiyat masalasida o‘zaro ixtilof vujudga keldi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Xorazm Xalk, Sovet Respublikasiaz. 1920-y. da yuzaga kelgan qurolli muxolifat shu sababli bir yo‘la 2 kuchga karshi: birinchidan, bu davlatlar hududida joylashgan bosqinchi qizil armiya qismlariga qarshi mustaqillik kurashini; ikkinchidan, bolsheviklar yordamida hokimiyatni egallab olgan kuchlarga, ya‘ni Yosh xivaliklar, Yosh buxoroliklarga qarshi muxoliflik urushini olib bordilar. Bu harakatning Turkiston Respublikasi, xususan, Farg‘ona vodiysidagi qurolli kurashdan farkli jihati ham ana shunda.

1924-y. oxirida Turkiston mintaqasida milliyhududiy chegaralanish o‘tkazilishi natijasida qurolli kurashning 1davri yakunlandi. Uning 2davri esa yana 10 y. davom etib, o‘zining xarakteri va kuchlar nisbati jihatidan avvalgi davrga nisbatan ancha farq qiladi. Bu davrda, asosan, Farg‘ona vodiysi, Sharqiy Buxoro va Xorazm voqasida janglar davom etdi. 30-y. larning o‘rtalariga kelib

qurolli harakat mag'lubiyatga uchradi. Tirik qolgan kurashchilarning aksariyati xorijiy davlatlarga muhojir bo'lib jo'nab ketishga majbur bo'ldi.

Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatning eng zaif tomoni uning O'rta Osiyo mintaqasida yagona markaz ostida to'liq birlasha olmasligi, harakatning boshidan to oxirigacha mafkuraviy asos bo'lib xizmat qiluvchi yagona milliy dasturning yaratilmaganligi hamda ba'zi yetakchi shaxslar orasidagi kelishmovchilik va nizolar, ayrimlarining tor dunyoqarashi va b. bo'ldi. Ayrim shaxslar (Xolxo'ja Eshon, G'ulomalixon Bahodir va b.) harakatga faqat o'zlari rahbarlik qilishni o'ylab, yagona qo'mondonlikka bo'ysunmadi. Shuningdek, qurolli kurashga aloqador bo'lmagan ba'zi rypyviap talonchilik va bosqinchilik bilan shug'ullanib, ko'plab begunoh kishilarni o'ldirishdi. Bundan qizil armiya qo'mondonligi va bolsheviklar ustomonlik bilan foydalanishdi. Ular maxsus xufiyalar va josuslar, turli ayg'oqchilar yordamida harakat ichidagi birlikni parchalash, ba'zi guruh rahbarlari o'rtasidagi tarqoqlik va o'zaro ixtiloflarni yanada avj oldirishga urindilar. Nihoyat, Sovet hukumati bir necha islohotlar o'tkazish (xususan, xalq ta'limi sohasida va yangi iqtisodiy siyosatni tadbiq etib, xalq uchun biroz yengillik tug'dirgandan so'ng) va turlituman targ'ibotlar natijasida harakat qatnashchilarini mehnatkashlar qo'llabquvvatlashdan qaytara oldi.

Turkiston mintaqasida bolsheviklar hukmronligidagi sovet rejimiga qarshi istiqloлчаilik harakati 1918-yil fevral oyining so'nggi o'n kunligida dastlab Qo'qon atroflarida boshlandi. Dastlabki guruhlarining tuzilishi Qo'qon atrofidagi Bachqir qishlog'idan bo'lgan Kichik Ergash (1885 – 1918) va Katta Ergash (1882 – 1921) kabi qo'rboshilarning nomlari bilan bog'liqdir. 27- fevralda bolsheviklarning harbiy kuchlariga qarshi bo'lgan janglarning birida Kichik Ergash shahid bo'lgach, uning o'rniga Katta Ergash Farg'ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi ozodlik bayrog'ini ko'tardi. Qo'qon uyezdidagi harakatning dastlabki tayanch nuqtasi Bachqir edi. 1918- yil mart oyining oxiriga kelib Kat- ta Ergashning nomi Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida juda mashhur bo'lib ketdi. Marg'ilonda esa militsiyaning sobiq boshlig'i Madaminbek – Muhammad Aminbek Ahmadbek o'g'li (1892 – 1920) kurash boshladi.

Harakatning mohiyati, maqsadlari va ijtimoiy tarkibi. • Istiqloлчаilik harakatining o'ziga xos milliy ko'rinishi va Turkistonga mos xususiyatlari bo'lgan. Harakatning boshdan oxirigacha ustuvor bo'lgan fikr bu butun Tur- kistonning milliy istiqlochi va mustaqilligi g'oyasidir. Istiqloлчаilik harakati goh kuchayib, goh pasayib turishiga, unda ishtirok etganlarning tarkibi almashib turganligi va ikkilamchi manfaatlar o'zgarib turishiga, obyektiv va subyektiv omillar kuchlar muvozanatiga turlicha ta'sir qilishiga qaramay, harakatning asosiy maqsadi Turkiston mustaqilligi uchun kurash bo'lib qolaverdi. • Harakatning mohiyatini sovet qo'mondonligi vakillari ham e'tirof etishga majbur bo'ldilar. Turkiston

frontining qo'mondoni M.Frunze: "Bosmachilikka qarshi kurash tamomila yangi, ayrica xususiyati bo'lgan, o'ziga xos dushman bilan kurash demakdir", deb yozgan edi. Uning gapiga ko'ra "Yo'qolsin sovet hokimiyati!" va "Mustaqil bir musulmon davlatini tuzamiz!" iboralari harakatning lo'nda g'oyasini ifodalardi.

Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi istiqlol janglari • Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati 1919-yil yozining oxiri va kuzida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Sentyabr oyining dastlabki kunlarida Madaminbek lashkarlari Jalolobod va O'sh shaharlarini egallashdi. Ular Eski Marg'ilon shahrini qizil bosqinchilardan ozod qildilar. Shu bilan birga vodiylariga kirishdilar. Madaminbek boshchiligidagi qo'shinning hujumi Farg'ona vodiysini larzaga keltirdi. 1919-yil 12-oktyabrda Pomirning Ergashtom ovulida bo'lgan anjumanda Madaminbek boshchiligidagi Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi. Hukumat tarkibiga 16 nafar tub aholi va 8 nafar ruslar kiritilgan edi. Madaminbek hukumat boshlig'i bo'lish bilan birga qo'shinning Oliy bosh qo'mondoni etib ham tayinlandigi eng yirik strategik shahar – Andijonni qamal qilindi. Qo'rboshilar faoliyati hamda qo'rboshilar qurultoylari. • Qo'rboshilar istiqlolchilarning harbiy rahbarlari bo'lib, ular xalq o'rtasida o'z jangovar liklari bilan mashhur edi. O'z vaqtida Farg'ona vodiysida Kichik Ergash, Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek, Islom Polvon, Samarqand viloyatida Ochilbek, Bahrombek va boshqalar harakatga rahbarlik qildilar. Ularning aksariyati savodli kishilar edi. Farg'ona vodiysida Shakarxon va Muhiddinbekning onasi, Buxoroda Nodira qiz singari o'zbek xotin-qizlaridan yetishib chiqqan ayol qo'rboshilar Turkistondagi milliy istiqlol kurashi tarixiga shonli sahifalar qo'shdilar

Atamalar izohi

Qo'rboshi – O'rta asrlarda O'rta Osiyo xonliklari qurolyarog' ombori (qo'r) mutasaddisi hamda qurol-aslaha, turli yarog'lar va to'p yasash korxonalari (qo'rxona) boshlig'i bo'lib, Turkiston o'lkasida Oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan davrda mahalliy politsiya boshlig'i hamda keyinchalik, Turkistonda sovet rejimiga qarshi istiqlolchilik harakati rahbarlarining unvoniga aylangan.

"Bosmachilik" – Turkistonda 1918–1925-yillarda keng xalq ommasi vakillarining bosqinchi qizil armiyaga qarshi olib borgan qurolli harakatiga sho'ro hukumati davrida buyuk davlat shovinistlari tomonidan berilgan rasmiy nom.

Savol va topshiriqlar:

1. Qanday sabablar Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatni keltirib chiqardi?
2. Farg'onadagi harakat rahnamolari orasida kimlarning nomlarini alohida ajratib ko'rsatgan bo'ladingiz?

3. Madaminbek shaxsini qanday baholaysiz?
4. Samarqanddagi harakat rahnamolari orasida kimlarning nomlarini alohida ajratib ko'rsatgan bo'lardingiz?

V. GLOSSARIY

N.A. Kuropatkin – So'nggi Turkiston general-gubernatori. 1916 – 1917-yillarda Turkiston general-gubernatori sifatida faoliyat yuritgan.

Madaminbek (1892 – 1920) – Farg'ona vodiysi istiqloqlachilari rahbari. Sentyabr oyining dastlabki kunlarida Madaminbek lashkarlari 1919-yil Jalolobod, O'sh, eski Marg'ilon shahrini qizil bosqinchilardan ozod qildilar. Shu bilan birga vodiydagi eng yirik strategik shahar – Andijonni qamal qiladi. 1919-yil 22- oktabrda Pomirning Ergashtom (Irkeshtam) ovulida bo'lgan anjumanda Madaminbek boshchiligida «Farg'ona Muvaqqat Muxtoriyat hukumati» tuzildi. Oradan sal o'tmay, ya'ni 1919-yil oktabr oyining so'nggi kunlarida Farg'ona vodiysidagi barcha yirik qo'rboshilar Oyim qishloqda to'plandi. Farg'ona vodiysida harakat kilayotgan 150 tacha qo'rboshi dastalari to'rtta yirik lashkarboshi: Madaminbek, Ergash, Shermuhammadbek, Xolxo'ja Eshon qo'mondonligi ostida birlashtirildi. qurultoyda islom qo'shinlarining Oliy Bosh Qo'mondoni – “Amir al-muslimin” qilib Madaminbek saylandi. shu uchta lashkarboshilar vodiydagi jangovar harakatlarni boshqarib turgan edilar.

“18 lar guruhi”– Respublikaning taniqli arboblardan tashkil topgan bu guruh (I. Xidraliyev, M. Saidjonov, U. Ashurov, R. Rahimboboyev, R. Rafiqov va b.)ga tirkalgan asossiz aybga, uyushtirilgan tuhmatu bo'htonga ko'ra, go'yo uning a'zolari ko'p masalalarda noto'g'ri yo'l tutganlar. Aslida esa ular hukmron Markazning ulug' davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydlik yo'lga qarshi chiqib, adolat va haqqoniylik tamoyillarini himoya qilib chiqqandilar. Shu bois rasmiy partiya organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralandi va uning a'zolari o'z lavozimlaridan olinib, turli partiyaviy jazolarga giriftor etildilar.

“Qosimovchilik” guruhi – 1929 – 1930-yillarda sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag'on qilish, jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma bo'lgan. O'zSSR Oliy Sudining raisi lavozimida ishlab kelgan Sa'dulla Qosimov va uning yaqin maslakdoshlari deb topilgan N.Alimov, B.Sharipov kabi 7 kishi 1929-yilning ikkinchi yarmida qamoqqa olinadilar. Ularning atayin to'qib chiqarilgan “ayblov ishi”ga siyosiy tus beriladi. Bunga ko'ra, ular respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog'laganlikda ayblandilar.

“Mustaqillik deklarasiyasi” – O'zbekiston tarixidagi asosiy voqealardan biri. 1990- yil 18- iyun kuni XII chaqiriq O'zbekiston respublika Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasi ochildi. Deputatlarning taklifi bilan O'zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qilish masalasi sessiya kun tartibiga kiritildi. Oliy Kengashning doimiy komissiyalari, faol deputatlar va huquqshunos mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan Mustaqillik Deklaratsiyasi matni sessiyada qizg'in

muhojama qilindi va 20-iyun kuni qabul qilindi. Mustaqillik Deklaratsiyasida xalqimizning xohish-irodasiga to'la mos keladigan oliy maqsad 12 moddadan iborat.

VKP(b) (Vsesoyuznyy Kommunisticheskiy Partiya (bolshevikov) – 1898 yilda V.I.Lenin tomonidan tashkil etilgan RSDRP 1917 yildan RSDRP (b) ga, 1918 yildan RKP (b) ga, 1925 yildan esa bu partiyaning nomi VKP (b) ga o'zgartirilgan. 1952 yildan 1991 yilgacha esa partiya KPSS (Kommunisticheskaya Partiya Sovetskogo Soyuza) deb yuritilgan.

GEGEMONIYA (yunon. hegemonia – hukmronlik, ustunlik) – jamiyat va davlat boshqaruvida, shuningdek xalqaro munosabatlarda biron bir siyosiy kuch yoki ijtimoiy guruhning ustunligi va rahbarligini anglatuvchi siyosiy tushuncha.

DAVLAT TUZILISHI SHAKLI – konstitutsiyaviy huquq nazariyasida davlat yoki ittifoqni tashkil etuvchi davlatlarni hududiy tashkil qilish usuli. Davlat tuzilishi shaklining ikki xil farqlanadi: federatsiya va unitar davlat. Ko'p millatli tarkibga ega bo'lgan mamlakatlarga nisbatan ba'zan "milliy-davlatchilik tuzilishi shakli" terminidan ham foydalaniladi.

DAVLAT CHEGARASI – davlat mustaqilligining zaruriy belgilaridan biri bo'lib, har qanday davlat o'z hududiy chegarasiga egadir. Davlat hududining boshqa davlat hududi bilan tutash chizig'i davlat chegarasi deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi beshta mustaqil davlat Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston davlatlari bilan chegaradoshdir.

Davlatimiz hududi chegaralarining umumiy uzunligi 6221 kilometrni tashkil etadi. Jumladan, Afg'oniston bilan chegara-137 km, Qozog'iston bilan-2203 km, Qirg'iziston bilan 1099 km, Tojikiston bilan-1161 km, Turkmaniston bilan-1621 km dan iborat.

Konstitutsiyamizning 3-moddasida O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi dahlsiz va bo'linmasdir deb qayd etilgan.

O'zbekiston davlat chegarasini qo'riqlash vazifasini Respublika chegara qo'shinlari amalga oshiradi.

DIKTATURA (lot. diktatura – cheksiz hokimiyat) – hokimiyatni nodemokratik usullar bilan amalga oshirish. Avtoritar siyosiy rejim. Sho'rolar davrida I.V.Stalin (1924-1953) diktatorlik boshqaruv tartibini o'rnatgan edi.

YERGA EGALIK – yer egalarining tegishli huquq va majburiyatlarini shart qiluvchi yuridik asoslarga muvofiq yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan yer maydonini haqiqiy egallash; xo'jalik muomalasi va bozor mexanizmi bilan birgalikda ishlab chiqarishning muhim vositalaridan biri sifatida yerni tasarruf qilish shakli.

NOZIR (arab. – nazoratchi) – 1) O'rta Osiyo xonliklarida saroy ta'minoti va uning xarj qilinishini nazorat qilib turuvchi mansabdor; 2) XX asr boshlarida Buxoro va

Xorazm Xalq Respublikalarida (1920-1924 y.y.) savdo, sanoat, harbiy va boshqa sohalar bo'yicha xalq nozirlari tayinlangan bo'lib, ular o'sha soha bo'yicha ishning borishiga javobgar hisoblanganlar.

OGPU (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi) – SSSR Xalq Komissarlar Kengashi huzurida 1923-1934 yillarda faoliyat ko'rsatgan davlat xavfsizligini qo'riqlash idorasi. Keyin NKVD tarkibiga kiritilib, Davlat xavfsizligi Bosh boshqarmasi deb o'zgartirilgan.

RADIKAL (lot. radix – ildiz) – tub, qat'iy va keskin choralar, harakatlar, dasturlar tarafdori.

REGRESS (lot. regressus – orqaga ketish) – rivojlanishning yuqori darajadan quyi darajaga o'tish davri, tanazzuli. Progressning aksi.

SANATSIYA (lot. sanatio – davolash, sog'lomlashtirish) – korxona va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini, uning barbod bo'lishi oldini olish yoki raqobatbardoshligini oshirish maqsadida davlat yoki boshqa manfaatdor tashkilotlar tomonidan moliyaviy yordam berish.

YUNIDO – BMTning sanoat taraqqiyoti bo'yicha tashkiloti. Rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoatini rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat bo'lgan BMT ning ixtisoslashgan muassasasi. 1946 yilda tashkil etilgan. 1995 yilda 166 ta davlat a'zo bo'lgan. O'zbekiston ushbu tashkilotga 1994 yil aprelda a'zo bo'lib kirgan.

YUNKTAD – BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi. BMT Bosh Assambleyasining xalqaro savdo tashkiloti bo'lmagan organi. 1964 yilda tashkil etilgan bo'lib, 168 ta davlat unga a'zodir. Asosiy vazifalari: xalqaro savdoni, davlatlar o'rtasida teng huquqli o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning amal qilishi bo'yicha har xil tavsiyalar ishlab chiqish. YUNKTAD qarorlari rezolyutsiyalar, bayonotlar singari shaklda bo'lib, tavsiya xususiyatiga egadir. Uning rahbarligida ko'p tomonlama bitimlar va konvensiyalar ishlab chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi YUNKTAD ga 1992 yilda a'zo bo'lgan.

O'ZBEKISTON SSR - 1924-1925 yillarda Moskva ko'rsatmasi bilan o'tkazilgan ma'muriy-hududiy davlat chegaralanishi oqibatida, 1925 yil 13-fevralda Buxoroda Umumo'zbek sovetlarining I qurultoyida O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil etiladi. 1927, 1937 va 1978 yillarda qabul qilingan O'zSSR Konstitutsiyalarida O'zbekistonning davlat mustaqilligi, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqlari yozib qo'yilgan bo'lsa-da, O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti to'liq "Markaz" va Kompartiya nazoratiga olindi. Shuning uchun ham O'zSSR mavjud bo'lgan 1925-1991 yillar tarixshunoslikda qaramlik yillari deb yuritiladi.

VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O'zbekiston strategiyasi” “O'zbekiston”, 2021.-464b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
8. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvar “2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabr “Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4910-son Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida” 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

13. Қаҳрамон Ражабов. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Тошкент. Маънавият. 2002
14. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T.: Sharq. 2000.
15. Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.

16. Sagdullayev A.S., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. -T., 2006.
17. Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. -T.: Uzbekistan. 2009.
18. Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. (o'quv qo'llanma). -T.:Ma'rifat, 2009.
19. Yo'ldoshev S.V., Tojiboyev M. Etnotoponimika. O'quv qo'llanma/-Farg'ona: 2021.
20. Ahmadaliyev Y. Farg'ona viloyati toponimlari. Farg'ona., "Farg'ona".2009
21. GumilevL. Etnogenez i biosfera zemli. -L.: Gidrometizdat. 1990.
22. Bobrov I.V. i dr. Istoriya mirovix sivilizatsiy chast I. Uchebnoye posobiye. Tyumen 2004
23. Bobrov I.V. i dr. Istoriya mirovix sivilizatsiy chast II. Uchebnoye posobiye. Tyumen 2004
24. SH.Ergashev. Qadimgi sivilizatsiyalar. - T.: O'zbekiston, Tixonravov Y.V. Geopolitika. M., 2000.
25. Gadjiyev K.S. Vvedeniye v geopolitiku. M., 2001.
26. Nartov N.A. Geopolitika. M., 2002.
27. Xo'janov B.A. Geosiyosat asoslari. T., 2002.
28. Tolipov F. Bolshaya strategiya Uzbekistana v kontekste geopoliticheskoy i ideologicheskoy transformatsii Sentralnoy Azii. T., 2005.
29. Safoyeov S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. T., 2005.
30. Bhuvan Garg. Teachingofhistory. India. New Delhi.: Rajatpublications. 2010.
31. James B. M. Schick., Teaching History Witha Computer: A Complete Guidefor College Professors. USA. 2009.
32. Grinin L. YE. O stadiyax evolyutsii gosudarstva. Problemi teorii // Istoriya i sovremennost. 2006. № 1.
33. Gosudarstvo na Drevnem Vostoke. M., 2004.
34. Kasje S.I. Imperii genezis, struktura, funksii // Kasje S.I. Politicheskiye issledovaniya. M., 1997.
35. Subtelny M.E. Timurids in Transition Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. - Leiden-Boston, 2007.
36. Mazar Documents from Xinjiang and Ferghana (Facsimile) 3. Edited by A.Muminov, N.Abdulahadov, K.Yayoi. - Tokyo: Tokyo University of Foreign Studies, (StudiaCulturaeIslamicae, 88), 2007.- 234 p.

IV. Internet saytlar

37. <http://natlib.uz>-Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
38. <http://yedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
39. <http://lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy

bazasi

40. <http://lib.bimm.uz>- Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

41. <http://ziyonet.uz>- Ta'lim portali Ziyonet

42. <https://tarixinstituti.uz/uzb/>Bo'limlar

43. <http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti

44. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti